

ISSN: 2181-0796

DOI: 10.26739/2181-0796

www.tadqiqot.uz

**TIL, TA'LIM, TARJIMA
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



Alisher Navoi

**VOLUME 7
ISSUE 1**

2026



TIL, TA'LIM, TARJIMA
7-SON, 1-JILD

ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
НОМЕР-7, ВЫПУСК-1

**LANGUAGE, EDUCATION,
TRANSLATION**
VOLUME-7, ISSUE-1



TOSHKENT-2026

TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

**Bosh muharrir:
Mirzayev Ibodulla**

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Tahrir hay'ati:

Abdullayeva Albina
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Boqiyeva Gulandom
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Bakirov Poyon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Babakulov Ismail
DSc, professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Eltazarov Jo'liboy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Isakova Nodira
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kiselyov Dmitriy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Labib Said Mohammad Alem
f.f.d., dotsent (Afg'oniston)
Mamatov Abdi
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatulla
huquqshunos, dotsent (O'zbekiston)
Mirzohidova Muyassar
f.f.d., professor (Qirg'iziston)
Nadim Mohammad Humoyun
PhD (Afg'oniston)
Pardayev Azamat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Qodirova Barno
ko'tib, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Qulmamatov Do'smamat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rasulov Ravshanxo'ja
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Safarov Shahriyor
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shahobiddinova Shohida
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sobirov Anvar
PhD (O'zbekiston)
Tagayeva Sayyora
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ubaydullayeva Maftuna
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Uluqov Nosirjon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Umurqulov Bekpo'lat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Xasanov Axmad
mas'ul ko'tib, PhD (O'zbekiston)
Xayrullayev Xurshidjon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Xolova Maftuna
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Yo'ldoshev Qozoqboy
p.f.d., professor (O'zbekiston)

**Bosh muharrir o'rinbosari:
Ismoilov Salohiddin**

f.f.n., professor (O'zbekiston)

Ilmiy maslahat kengashi:

Abdiyev Murodqosim
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baqoyeva Muhabbat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Jabborov Xo'jamurod
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Karimov Suyun
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mamatov Abdug'ofur
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mo'minov Siddiq
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suvonova Nigorabonu
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
To'xtasinov Ilhom
p.f.d. (O'zbekiston)
Yoqubov Jamoliddin
f.f.d., professor (O'zbekiston)

Sahifalovchi: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

**Главный редактор:
Мирзаев Ибодулла**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Редакционная коллегия:

Абдуллаева Албина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бакиров Поён
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бобокулов Исмаил
DSc, профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Элтазаров Жулибай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Исакова Нодира
PhD, доцент (Узбекистан)
Киселёв Дмитрий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Лабиб Санд Мохаммад Алем
д.ф.н., доцент (Афганистон)
Маматов Абди
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мирзаев Рахматулла
юрист, доцент (Узбекистан)
Мирзахидова Муяссар
д.ф.н., профессор (Киргизистан)
Надим Мохаммад Хумоюн
PhD (Афганистон)
Пардаев Азамат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Кадирова Барно
секретарь, PhD, доцент (Узбекистан)
Кулмаматов Дусмамат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Расулов Равшанхужа
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Сафаров Шахриёр
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шахабиддинова Шахида
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Собиров Анвар
PhD (Узбекистан)
Тагаева Сайёра
PhD, доцент (Узбекистан)
Убайдуллаева Мафтуна
PhD, доцент (Узбекистан)
Улуков Насиржан
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Умуркулов Бекпулат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Ахмал
тв. секретарь, PhD (Узбекистан)
Хайруллаев Хуршиджон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Холова Мафтуна
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Йулдашев Казакбай
д.л.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:
Исмаилов Салахиддин**

к.ф.н., профессор (Узбекистан)

Научный совет:

Абдиев Мурадқасим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бақоева Мухаббат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Жаббаров Хужамуррад
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Каримов Суюн
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Маматов Абдугафур
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Муминов Сиддик
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Сувонова Нигорабону
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Тухтасинов Илхам
д.л.н., профессор (Узбекистан)
Якубов Жамалиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Вёрстка: Шахрам Файзиев

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Chief Editor:
Mirzaev Ibodulla

Doc. of phil. sciences, professor (Uzbekistan)

Editorial Collegue:

Abdullaeva Albina
cand. of phil. sciences, assoc.prof. (O'zbekiston)
Bakieva Gulandom
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Bakirov Poyon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Babakulov Ismail
DSc, prof. (Uzbekistan)
Dadaboev Khamidulla
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Eltazarov Juliboy
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Isakova Nodira
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Kiselyov Dmitriy
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Labib Said Mohammad Alem
doc. of phil. scien. (Afg'oniston)
Mamatov Abdi
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Mirzaev Rahmatulla
lawyer, assoc.prof. (Uzbekistan)
Mirzokhidova Muyassar
doc. of phil. scien., prof. (Kirghizistan)
Nadim Mohammad Humoyun
PhD (Afg'oniston)
Pardaev Azamat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Kadirova Barno
secretary, PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Kulmamatov Dushmanat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Rasulov Ravshankhuja
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Safarov Shakhriyor
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Shakhobiddinova Shokhida
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Sobirov Anvar PhD (Uzbekistan)
Tagaeva Sayyora
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Ubaydullayeva Maftuna
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Ulukov Nosirjon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Umurkulov Bekpulat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Hasanov Ahmad
senior secretary, PhD (Uzbekistan)
Hayrullaev Hurshidjon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Xolova Maftuna
doc. of phil. scien., assoc.prof. (Uzbekistan)
Yuldashev Kazakbay
doc. of ped. scien., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:
Ismailov Salohiddin

Cand. of phil. sciences, professor (Uzbekistan)

Scientific Advisory Council:

Abdiev Murodkosim
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Bakaeva Mukhabbat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Berdaliev Abduvali
doc. of phil. scien., prof. (Tajikistan)
Jabborov Khojamurod
doc. of phil. scien., assoc.prof. (Uzbekistan)
Karimov Suyun
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Mamatov Abdugafur
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Muminov Siddik
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Suvonova Nigorabonu
cand. of phil. sciences, assoc.prof. (Uzbekistan)
Tukhtasinov Ilhom
doc. of ped. scien. (Uzbekistan)
Yakubov Jamoliddin
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Pagemaker: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

TILSHUNOSLIK

Rasulov Ravshanxo‘ja PROFESSOR RAVSHANXO‘JA RASULOV METODI.....	7
Yusupova Orziboni INKOR GAPLAR VA ULARNI HOSIL QILUVCHI VOSITALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	14
Raxmatova Dilfuza USMON AZIM SHE‘RIYATIDA ANJAMBANG MAZMUNI VA PRAGMATIK VAZIFALARI.....	26
Nabiyeva Rushana OZIQ-OVQAT NOMLARI O‘ZLASHMALARINING SOHAVIY LUG‘ATLARDA BERILISH TAMOYILLARI.....	34
Muminova Aziza ITERATIV (TAKRORIYLIK) ASPEKTUAL VAZIYATNI HOSIL QILUVCHI VOSITALAR XUSUSIDA (E.Seton-Tompsonning „Yovvoyi yo‘rg‘a“ asari asosida)	44
Furkatova Mahliyo A STUDY OF NOUN GRAMMATICAL CATEGORIES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	55
Ziyadullayeva Mohira INGLIZ TILIDA AYOLLARGA MUHOJATNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	64
Mamanova Dilnoza BADIY ASARDA TARIXIY VA TO‘QIMA OBRAZLARINING MUTANOSIBLIGI MASALASI.....	75
Qilichboyeva Xurshida OKKAZIONAL FRAZELOGIZMLARNING TABIATI, MODIFIKATSIYASI VA MATN BILAN MUNOSABATI HAQIDA.....	81
Xolikulova Shoxista SOTSIATIV NUTQ AKTLARINING SEMANTIK KRISTALLASHUVI VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	92

T A ‘ L I M S H U N O S L I K

Muhitdinova Badia, Karimova Farangiz XALQ ERTAKLARIDA MAQOLLARNING IFODALANISHI VA LINGVISTIK TAHLILI.....	103
Muxitdinova Badia, Shukurova Anora QADIMGI TURKIY YOZMA YODGORLIKLARDA KOSMOGONIK MIFLAR OBRAZLARI: GENEZIS, SEMANTIKA VA FOLKLOR TRANSFORMATSIYASI.....	112
Xujanova Gulchexra ALISHER NAVOIYNING “HIBAT UL-HAQOYIQ” ASARIDA SHE‘RIY SAN‘ATLARNING QO‘LLANILISHI.....	122
Djurakulova Elmira SHOYIM BO‘TAYEVNING “QO‘RG‘ONLANGAN OY” ROMANIDA SHAHAR XRONOTOPINI O‘QITISH METODIKASI.....	127
Ma’suma Obidjonova ILMIY FANTASTIK ASARLARNI QIYOSIY O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	135
Ergasheva Dilshoda “MUNSHAOT”DAGI MAKTUBLARDA QUR‘ON OYATLARINING IQTIBOS SIFATIDA KELTIRILISHI.....	144
Hamrayev Ilg‘or, Abdiraxmonova Nargiza BOSHLANG‘ICH SINIFLARDAKI 1–2 SINIF O‘QUVCHILARI UCHUN TARBIYA DARSLARINI TO‘G‘RI TASHKIL QILISH METODIKASI.....	149

T A R J I M A S H U N O S L I K

Akramova Takhmina, Ergasheva Komila A COMPARATIVE ANALYSIS OF HUMAN CREATIVE TRANSLATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE TRANSLATION: THE INTEGRATION OF LANGUAGE, TEXT, AND ARTISTIC QUALITY (ON THE EXAMPLES OF UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES)	155
--	-----

T A Q R I Z

A.Q.Hamidov ESHQOBIL SHUKUR IJODIGA ILMIY NAZAR.....	165
--	-----

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

TILSHUNOSLIK

Rasulov Ravshanxo'ja
professor,
filologiya fanlari doktori
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
rasulovravshanxo'ja@gmail.com

PROFESSOR RAVSHANXO'JA RASULOV METODI

ANNOTATSIYA

Maqolada sifatli ta'lim uchun xizmat qiladigan metod: "Chalg'itish yoki hushyorlikni aniqlash va oshirish" haqida fikr yuritiladi. Ushbu metod talabalarni ta'lim – bilim olish jarayonida ham aqliy, ham nutqiy faollashtirishga qaratilgan. Maqolada tushunish va fikrlash g'oyasi ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: so'zlash, tinglash, tushunish, tushuntirish, chalg'itish.

Rasulov Ravshankhoja
professor,
doctor of philological sciences
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

PROFESSOR RAVSHANKHO'JA RASULOV'S METHOD

ABSTRACT

The article discusses the method for quality education: "Distraction, or the Detection and Enhancement of Attentiveness." This method is aimed at activating students both mentally and verbally in the process of learning and acquiring knowledge. The article advances the idea of understanding and thinking.

Keywords: speaking, listening, understanding, explaining, distraction.

Расулов Равшанходжа

профессор,

доктор филологических наук

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

rasulovravshankhoja@gmail.com

МЕТОД ПРОФЕССОРА РАВШАНХОЯ РАСУЛОВА

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается метод качественного образования: «Выявление и повышение отвлечения внимания или бдительности». Этот метод направлен на активизацию учащихся как умственно, так и вербально в процессе обучения. В статье выдвигается идея понимания и мышления.

Ключевые слова: говорение, слушание, понимание, объяснение, отвлечение внимания.

Hozirda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan o'ta dolzarb va o'ta muhim muammolardan biri ta'lim muammosi – sifatli ta'lim, ta'lim sifatidir. Sifatli ta'lim shunchaki ta'lim emas, balki nazariya va amaliyotga asoslangan, mazmunan yuksak ilmiy saviyaga ega bo'lgan ta'limdir. O'zbekiston yoshlarini dunyoga dadil, erkin chiqishiga har qanday raqobatga qarshi turadigan, ilmiy “jangovarlik”ka tayyorlaydigan ta'limdir.

Shunday savol tug'iladi: Ta'lim qachon va qayerdan boshlanadi? Ta'lim – sifatli ta'lim, fikrimizcha, aslida yoshlikdan, anig'i, yoshlarimizning go'dakligidan, yana ham anig'i, hali tug'ilmasidan – onaning bag'rida yotgan paytdan boshlanadi.

Fikrimizcha, ona hali tug'ilmagan farzandiga doimiy she'r o'qib tursa yoki musiqa chalib tursa yoki o'z ona tiliga mehr uyg'otib borsa, albatta, bu jarayon, shak-shubhasiz, natija beradi. Chunki tug'ilmagan bolada tinglash, eshitish va esda saqlab qolish qobiliyati kuchli bo'ladi. Bu – haqiqat. Bola nafaqat eshitadi, balki unda har qanday tashqi ta'sirlarga javob harakatlari reaksiyasi ham yuz beradi.

Uzoq vaqt musiqa eshitgan hali tug'ilmagan go'dak, tug'ilgandan keyin, o'sish jarayonida musiqaga mehr bilan qarashi – kelgusida musiqachi bo'lib yetishishi hech gap emas. Tug'ilmagan go'dakka uzoq vaqt tez-tez doimiy she'rlar o'qib turilishi natijasida kelgusida uning shoir bo'lishi ham hech gap emas. Ushbu fikrimizni nisbatan qabul qilishingizni, ya'ni 10 tadan 10 tasi – hammasi musiqachi yoki shoir bo'ladi, degan ma'noda tushunmasligingizni so'rayman. Ammo bu ijobiy natija berishi aniq.

Shu o'rinda ulkan o'zbek tilshunosi, turkolog ustozim – ruhlari shod bo'lsin, professor Hamid G'ulomovich Ne'matov – Buxoro tilshunoslik maktabining asoschisi va O'zbekiston uchinchi avlod tilshunoslarining sardori bir kitoblarida [1:55] shunday fakti keltiradilar: “Oila va jamiyat” haftanomasining 1992-yil may oyida chiqqan 21-sonining 1-sahifasida “Larisaning mullo o'g'li” sarlavhali maqola e'lon qilindi unda moskvalik Larisa ismli rus qizi Abdujaborxon ismli qashqadaryolik yigitga turmushga chiqishidan oldin butun qonuniyatlari bilan islom dinini qabul qilganligi, namoz o'qib, ro'za tutganligi, eng muhimi shundaki, oilada

dunyoga kelgan to'ng'ich o'g'illari Temurxonga alla emas, ota – ona navbatma-navbat Qur'on o'qib uxlayotganlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Natijada Temurxonning birinchi aytgan so'zi "Ona" emas, "Ollloh" bo'lgan va bola 8 oyligida "La illaha illoloh" degan. Bir yoshga to'lganda esa "Kalimai toiba" bilan "Kalimai shahodat"ni to'liq aytgan. Bir yarim yoshida "Ixlos" surasini yod oladi, 2,5 yoshga yetganda esa 13 ta kichik surani yod bilgan va Toshkentdagi Mirzo Yusuf jome' masjidida bo'lib o'tgan yosh qorilar musobaqasida Qur'on suralarini qiroat bilan o'qib, hammani hayratga solgan.

Fikrimizcha, bola Qur'on suralarini nafaqat tug'ilgandan keyin, balki tug'ilmasdan oldin ham eshitgan, tinglagan, ta'sirlangan.

Demak, tug'ilmagani go'daklarda tinglash, qabul qilish qobiliyati, aytilganidek, kuchli bo'ladi, bu tabiiy holdir.

Xulosa shuki, biz farzandlarimizga go'daklik chog'idan til o'rgatishimiz, ularning tinglash qobiliyatidan to'liq foydalanishimiz shart.

Bola tug'ilganidan keyin ta'lim va tarbiya jarayoni boshlanadi. Anig'i, oila, bog'cha, maktab va oliy o'quv yurtida ta'lim va tarbiya birgalikda, bir butun holda, uzviy va uzluksiz holda olib boriladi.

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayoni, ya'ni ta'lim berish so'zlash va tinglash dialektikasi orqali amalga oshadi. Bu – aksioma.

So'zlash va tinglash o'zaro dialektik munosabatda bo'lgan faol jarayondir. Biri ikkinchisiz bilan chambarchas bog'liq, o'zaro zaruriy, mantiqiy aloqadadir. Biri ikkinchisiz sodir bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Aytmoqchimizki, so'zlash bor joyda, albatta, tinglash ham bo'ladi.

So'zlash murakkab fiziologik, psixologik va logik faoliyatdir. Shuning uchun bo'lsa kerak faylasuf Suqrot dan: "Dunyoda eng qiyin ish nima? deb so'rganlarida. Allomai zamona – so'zlash" deb javob bergan.

Buyuk adibimiz Abdulla Qodiriy esa: "So'z so'zlaganda, undan jumlar tuzganda uzoq andisha [2: 84] kerak", deganlar.

Tinglashchi? Fikrimizcha, tinglash ham murakkab ijtimoiy, mantiqiy ruxiyat bilan bog'liq jarayon. U so'zlashga qiyosan olganda unga nisbatan turg'un "qotgan", "faolsiz" jarayon. Aslida esa u ham faollikni talab qiladi. Uning asosiy, muhim jihati nimada? Fikrimizcha, tushunishda, tushunishdir, ya'ni tushunish bilan bog'liqligidir. Tushunish tinglash jarayonining "yuragi", davomi, uning markaziy yadrosidir. Shunday ekan, umuman xalq ta'limi va oliy ta'lim tinglovchilari ya'ni o'quvchi va talabalar ma'ruzalarni tinglash jarayonida qanchalik faol? Ularning ko'zi ham, qalbi ham, ongi ham tinglash jarayoniga tayyormi? Nutqni to'la tushungan holda tinglay oladimi? Ma'ruzadagi fikrni, ilmiy xabarni tushunadimi? Anig'i, tushungan holda notiqning nutqini yoza oladimi?

Bizning kuzatishlarimiz, oliy o'quv yurtlarida o'tkazgan tajribalarimiz talabalarning dars jarayonida ma'ruzani tushungan holda tinglash faolligi – ma'ruzani tushungan holda yozib borishi talabga javob bermasligini ko'rsatdi.

Aytilganlar asosida men tavsiya etgan metod, ya'ni professor R.Rasulov metodi yuzaga keldi. Ushbu metod "Chalg'itish yoki hushyorlikni aniqlash va oshirish" deb nomlanadi. Biz tavsiya qilayotgan chalg'itish yoki hushyorlikni aniqlash va oshirish metodining mohiyati, ahamiyati, vazifasi nimada? degan savolning tug'ilishi tabiiydir.

Ushbu metod biz tomondan yillar davomida ma'ruza jarayonida qo'llanib kelinmoqda.

Biz darsda o'tiladigan muayyan mavzuni, dastavval, bir necha yirik qismga bo'lib, har biri haqida alohida fikr yuritimiz, ma'lumot beramiz. M: "Sistema va struktura" mavzusini o'tishda uni quyidagi to'rt qismga bo'lamiz:

1. Sistema haqida ma'lumot
2. Struktura haqida ma'lumot
3. Sistema va struktura bog'liqligi haqida
4. Tilda sistema va struktura yoki til sistem-struktur tuzilish sifatida.

Demak, ma'ruzada, dastavval, sistema va struktura falsafiy kategoriya sifatida atroflicha o'rganiladi, so'ngra tilga sistema va struktura jihatidan yondashiladi. Tilning sistema ekanligi, uning strukturasi nimalardan iboratligi haqida misollar asosida mukammal, aniq ma'lumot beriladi.

Ma'ruza og'zaki ko'rinishda olib boriladi, ya'ni ma'ruza mavzusining muayyan qismi puxta tushuntirilib, ayni vaqtda talabalarning ushbu muammo haqidagi bilimi ham aniqlab boriladi. Bundan maqsad talabaning muayyan hodisa haqidagi tushunchasi yetarlimi, aytilganlarni tushundimi, ularda muayyan ma'lumot hosil bo'ldimi yoki yo'qmi kabilarni bilishdir. Aytmoqchimizki, talabalarda muayyan ilmiy hodisa haqida muayyan bilim, tushuncha hosil bo'lganligi aniqlangandan – bunga menda ishonch hosil bo'lgandan so'ng ushbu hodisa haqidagi ma'lumot talabalarda doimiy saqlanishi uchn yozdiriladi, ya'ni og'zaki amaliyotdan yozma amaliyotga o'tiladi. Aniqrog'i, ma'ruzachi og'zaki bergan ma'lumotini qisqa va aniq yozdiradi. Ana shu o'rinda talabalar tomonidan yozish jarayoni mantiqli, tushungan holda amalga oshirayotganligini aniqlash maqsadida talabalarda akustik qabul qilingan nazariy bilim yozish jarayonida – og'zaki tushuntirishdan farqli holda – noto'g'ri, ya'ni to'g'risiga zid holda yozdiriladi. Masalan, strukturaga berilgan ta'rif sistemaning ta'rifi yoki, aksincha, sistemaga berilgan ta'rif strukturaning ta'rifi sifatida qayd etiladi. Qiyoslang: struktura – qismlardan iborat butunlik. Sistema esa strukturaning elementlari, qismlari, tuzilishidir. Aslida esa, sistema qismlardan iborat butunlik, yaxlitlikdir. Ushbu jarayonda, dastavval, talabalarning 90-95%i ma'ruzachining yozdirayotgan noto'g'ri ma'lumotini to'g'ri deb qabul qiladi va qanday aytilgan bo'lsa, nimani eshitsa shuni yozadi, yozilayotgan fikrning mantig'iga e'tibor bermaydi. Demak, bunda mantiqiy qabul qilish emas, balki mexanik, avtomatik qabul qilish jarayoni kechadi.

Ma'ruzachi talabalar tomonidan yozib olingan noto'g'ri ma'lumotni o'ziga o'qitadi va tushuntirib berishini so'raydi. Shunda yozma ma'lumotning og'zaki berilgan ma'lumotga zidligi ma'lum bo'ladi. Bahs, munozaradan so'ng talaba yozilgan fikrning noto'g'ri, ya'ni asliga – og'zaki tushuntirilganiga zid ekanligini, mos emasligini tan oladi.

Gap shundaki, talaba eshitayotgan fikrni daftarga yozishida e'tiborsizlik bilan, mas'uliyatsizlik bilan qabul qiladi. Uning og'zaki aytilganda to'g'ri tushungan hodisani noto'g'ri yozayotgani hayoliga ham kelmaydi. Bunda sanoqli talabalardagina ikkilanish yuzaga kelsa-da, ular ham bunga jiddiy e'tibor bermaydi. Demak, fikrni daftarga tushirish jarayoni talabga javob bermaydi. Og'zaki nutq bilan yozma nutq o'rtasida ilmiy izchillik, uzviylik, dialektik bog'liqlik yo'qoladi.

Bizning maqsad – talaba fikrni daftarga yozishda ham diqqat-e'tibor bilan, mas'uliyat bilan tushungan holda faollik ko'rsatsa, ana shunda talabaning og'zaki to'g'ri olgan bilimi yana ham mustahkamlanadi, chuqurlashadi. Talaba yozish jarayonida miyasini egallagan bo'lar-bo'lmas

hayollardan, fikrlardan qutiladi. Og'zaki bilan yozma jarayon o'rtasida bog'liqlik, izchillik yuzaga keladi, maqsadga erishiladi.

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ldiki, ma'ruzani o'tish jarayonida talaba aytilgan fikrni daftarga qayd etayotganida ma'ruzachi tomonidan ongli ravishda chalg'itish amalga oshiriladi. Shu orqali talabaning muayyan fikrni yozishda qanchalik hushyorlik bilan, tushungan holda "ishlayotgani" aniqlanadi. Asta-sekin ma'ruzadan ma'ruzaga talabaning ma'lumotni yozish jarayonidagi hushyorligi ortib boradi. U og'zaki fikrni daftarga yozishda o'ylab, diqqat-e'tibor bilan ish ko'radi. Aniqrog'i, talabada fikrlab yozish ko'nikmasi – mantiqiy yozish shakllanadi. Bunda:

1. Talaba yozish jarayonida ma'ruzachining nutqiga tanqidiy munosabatda bo'ladi.
2. Talaba muayyan mavzu haqidagi og'zaki qabul qilingan fikrni yozish jarayonida uni aynan qayd etishga harakat qiladi.
3. Talaba yozish jarayonida ma'ruzachi tomonidan aytilgan noto'g'ri fikrni chetlab o'tib, o'zi mustaqil holda to'g'ri yozishga – og'zaki tushunganiga moslashga kirishadi. U fikrlaydi "ijod qiladi".
4. Talaba yozish jarayonida ma'ruzachi nutqining to'g'ri yoki noto'g'riligini bilish uchun, chalg'itish jarayoni bormi yoki yo'qmi ekanligini aniqlash uchun ma'ruzachi fikrini – nutqini diqqat bilan eshitishga va aniq tushunishga harakat qiladi.
5. Talaba chalg'itish jarayoni kechayotganini sezsa, hushyorlik bilan ma'ruzachi fikriga qarshi fikr bildirishga, bahs-munozara yuritishga kirishadi.
6. Talaba yozish jarayonida fikrlashga, o'ylashga, tafakkurini to'liq ishga solishga o'rgatiladi.

Shu o'rinda talabaning fikrlash faolligini oshirish maqsadida ma'ruzachi tomonidan mavzuning biron bo'lagi, qismi og'zaki nutq orqali mukammal tushuntirilganidan, ustozga talabalarning muammoni yaxshi tushunganligi haqida ishonch hosil bo'lgandan so'ng, ushbu mavzu qismi haqidagi xulosani yozdirish, ya'ni aytib yozdirish (diktovka) amalga oshirilmaydi, balki xulosani yozish talabaning o'ziga vazifa qilib beriladi. Har bir talaba og'zaki jarayonda tushunganini endi o'zi, ma'ruzachisiz, yozishga kirishadi. U "ijod" qiladi, faol fikrlaydi, u so'z qidiradi, gap tuzadi. Talaba og'zaki olgan bilimni o'zi mustaqil holda xulosa sifatida daftarga qayd etadi.

Demak, talaba mantiqiy tafakkurga asoslangan holda ijod qiladi. Talaba tafakkurida faol fikrlash amalga oshadi.

Xullas, bilim berishda qanday pedagogik texnologiyalardan, qanday metodlardan foydalanmaylik, ularni dars jarayonida qo'llamaylik maqsad bitta, talaba ham og'zaki, ham yozma tarzda puxta bilim olishi, mavzu haqidagi ma'lumotni xotirasiga mustahkam joylashtirishi, ma'ruzachi tomonidan lisoniy hodisalar yuzasidan beriladigan fikrlarga tanqidiy munosabatda bo'lishi, dars jarayoniga e'tibor bilan, mas'uliyat bilan yondashishi shart.

Shak-shubhasiz, "Chalg'itish yoki hushyorlikni aniqlash va oshirish" metodi ham ta'lim sifati – sifatli ta'lim uchun xizmat qiladi.

Yana bir umumiy xulosa shuki:

1. Talaba qachon ma'ruzachining mavzu bo'yicha fikriga tanqidiy munosabatda bo'ladi?
2. Talaba qachon ma'ruzachi bilan mavzu yuzasidan bahs-munozaraga kirishadi?
3. Talaba qachon mustaqil fikrlaydi, ya'ni lisoniy "ijod" qiladi?

Javob bitta.

1. Talaba qachonki ma'ruzani diqqat bilan tinglab, aniq tushungandagina u bahs-munozaraga kirishadi.

2. Talaba tushungandagina ma'ruzachi fikriga tanqidiy munosabatda bo'ladi.

3. Talaba tushungandagina xulosani o'zi mustaqil, erkin yoza oladi.

Aytilganlarning barchasi ta'lim sifati uchun xizmat qiladi. Shundagina sifatli ta'lim amalga oshadi. Demak, sifatli ta'lim berishda ta'lim sifatini oshirishda ma'ruzachi puxta bilimli, pedagogik mahoratli va zarur pedagogik texnologiyalardan – shu kungi talabga javob beradigan zamonaviy metodlardan mohirona, unumli foydalanishi shart. Bular ta'limda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Shu o'rinda eslatamiz, talabaning ma'ruzani yaxshi, to'liq, mukammal tushunishi, shak-shubhasiz, ustozga bog'liq. Chunki ustoz tushuntiradi, ya'ni tushuntirish ustozdan tushunish esa talabadan.

Demak, ustozning tushuntirishi, pedagogik mahorati yuqori ilmiy saviyada, mukammal bo'lishi shart. Anig'i, tushunish tushuntirishdan kelib chiqadi. Tushuntirish – asos, sabab; tushunish – natija, "hosil"dir.

Xulosa shuki, ustoz ham talaba ham dars jarayoniga ham ruhan, ham jismonan tayyor bo'lishi lozim. Bu ayni – muddao. Qars ikki qo'ldan chiqadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Неъматов Х.Ф., Жўраева Б. Социоллингвистика. – Бухоро, 2004. – 55-бет
(Ne'matov H.G'., Jo'rayeva B. Sosiolingvistika. – Buxoro, 2004. – 55-bet).
2. Andisha – o'yulamoq, fikrlamoq ma'nosida. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent, 2006. – 84-bet.

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Yusupova Orziboni,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari
va madaniyati instituti
Samarqand, O'zbekiston
yorziboni1978@gmail.com

**INKOR GAPLAR VA ULARNI HOSIL QILUVCHI VOSITALARNING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

ANNOTATSIYA

Bizga ma'lumki, voqelikka munosabatni ifodalash nuqtayi nazaridan gaplar tasdiq va inkor gaplarga bo'linadi. Tasdiq va inkor gaplar nafaqat harakatning bajarilgani yoki bajarilmagani, voqeaning yuz bergani yoki yuz bermagani haqidagi xabarni ifodalaydi. Balki badiiy matnlarda o'ziga xos vazifalar: emotsional-ekspressivlikni ifodalash, individual nutqni hosil qilish, xalqchilik, jonlilik, samimiylikni ta'minlash, ta'kidlash, ma'noni kuchaytirish kabilarni bajaradi. Ayniqsa, turli xil vositalar bilan shakllangan inkor gaplar yozuvchining maqsadlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada inkor gaplar va inkor gaplarning shakllanishida ishtirok etadigan vositalar *-ma* fe'lining bo'lishsizlik qo'shimchasi, emas yordamchi fe'li, yo'q so'zi, *-na*, *-na* inkor bog'lovchilarining badiiy matnda qo'llanilishi, poetik aktuallashuvi nasriy, she'riy va dramatik matnlardan olingan misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, poetik aktuallashish, ekspressiv sintaksis, emotsionallik, inkor gap, inkor ifodalovchi vositalar, uslubiy imkoniyatlar.

Yusupova Orziboni,

candidate of philological sciences, associate professor

Named after Sharaf Rashidov

Samarkand State University

Institute of languages and culture of the

peoples of Central Asia

Samarkand, Uzbekistan

yorziboni1978@gmail.com

LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF NEGATIVE SENTENCES AND THE MEANS OF THEIR FORMATION

ABSTRACT

It is well known that, from the perspective of expressing an attitude toward reality, sentences are divided into affirmative and negative types. Affirmative and negative sentences not only convey information about whether an action has been performed or not, or whether an event has occurred or not, but also fulfill specific functions in literary texts. These functions include expressing emotional and expressive meanings, shaping individual speech, ensuring naturalness, vividness, and sincerity, emphasizing particular ideas, and intensifying meaning. In particular, negative sentences formed through various linguistic means serve to reveal the writer's intentions and artistic purposes. This article analyzes negative sentences and the means involved in their formation—such as the negative suffix *-ma* of the verb, the auxiliary verb *emas*, the word *yo'q*, and the negative conjunctions *-na...-na*—and their use and poetic actualization in literary texts, based on examples taken from prose, poetry, and drama.

Keywords: linguopoetics, poetic actualization, expressive syntax, emotionality, negative sentence, means of expressing negation, stylistic possibilities.

Юсупова Орзибон,

кандидат филологических наук, доцент

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова

Институт языков и культуры народов Центральной Азии

Самарканд, Узбекистан

yorziboni1978@gmail.com

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОТРИЦАТЕЛЬНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ И СРЕДСТВ ИХ ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

Известно, что с точки зрения выражения отношения к действительности предложения делятся на утвердительные и отрицательные. Утвердительные и отрицательные предложения выражают не только факт совершения или несвершения действия, наступления или ненаступления события, но и выполняют в художественном тексте особые функции: передают эмоционально-экспрессивную окраску, формируют индивидуальный стиль речи, обеспечивают народность, живость и искренность

высказывания, служат средством акцентирования и усиления смысла. Особенно отрицательные предложения, сформированные с помощью различных языковых средств, способствуют раскрытию авторского замысла. В данной статье анализируются отрицательные предложения и средства их образования — отрицательный аффикс глагола *-ma*, вспомогательный глагол *emas*, слово *yo'q*, а также отрицательные союзы *-na*, *-na*, их функционирование в художественном тексте и поэтическая актуализация на основе примеров из прозаических, поэтических и драматических произведений.

Ключевые слова: лингвопоэтика, поэтическая актуализация, экспрессивный синтаксис, эмоциональность, отрицательные предложения, средства выражения отрицания, стилистические возможности.

Badiiy asar matni boshqa turdagi matnlardan shakli va mazmun ifodasi jihatidan tubdan farq qiladi. Bu farq birinchi navbatda, matn shakllanishida til birliklari ishtirokida namoyon bo'ladi. Til birliklari badiiy asar strukturasi g'oyaviy-estetik funktsiya jihatdan o'ziga xos vazifa bajaradi. Xususan, badiiy nutqning estetik jihatdan shakllanishida sintaktik vositalarning bajaradigan vazifasini inkor etib bo'lmaydi. Sintaktik vositalarning badiiy matndagi vazifasi xususida M.Yo'ldoshev quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Sintaktik vositalar badiiy matnda integrativ munosabatlarning yuzaga kelishida faol ishtirok etishi barobarida ayni munosabatlar fonida xilma-xil badiiy ma'no-mazmunlarni ham ifodalay oladi. Shu ma'noda ularning badiiy matndagi estetik salmog'i leksik vositalarnikidan qolishmaydi. Hatto tildagi sintaktik vositalarning tasviriy ifoda imkoniyatlarini o'rganadigan alohida soha, ya'ni ekspressiv sintaksisning yuzaga kelishi ham bejiz emas" [Yo'ldoshev, 2009: 260]. Haqiqatan, badiiy asarlarda sintaksisning uslubiy imkoniyatlariga ko'p murojaat qilinadi. Ayniqsa, shoirlarning shakl tanlovida ancha erkin harakat qilishlari bois sintaktik birliklarning mazmunga mos ravishda turli xil ko'rinishlarda qo'llash mumkinligi, shu orqali turli-tuman ottenkalarni ifodalay olish imkoniyati, ayrim sintaktik qoidalarning o'zgarishi, bu o'zgarishning badiiylikka xizmati asarda yaqqol seziladi. Bu holat faqatgina poetik asarlarda emas, balki prozaik va dramatik asarlarda ham ko'rinadi. Shu sababdan ham badiiy asarlarda sintaktik vositalarning qo'llanilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratish zarur, deb o'ylaymiz. Xuddi shunday sintaktik vositalardan biri inkor gaplarni hosil qiluvchi vositalar bo'lib, ular badiiy matnda o'ziga xos bir qancha vazifalarni bajaradi. Inkor gaplar manbalarda ta'kidlanganidek, predmetda biror belgining mavjud emasligini yoki biror ish-harakatning sodir bo'lmaganligini, sodir bo'lishi mo'ljallanmaganligini anglatadi [Abdurahmonov, Sulaymonov, Xoliyorov, Omonturdiyev, 1979: 36]. Inkor gaplar maxsus inkor ifodalovchi vositalar, ya'ni leksik, morfologik, sintaktik va intonatsion yo'l bilan hosil bo'ladi. A.G'ulomov, M.Asqarovalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida inkor ma'nosi bir necha yo'llar bilan *-ma*, *emas*, *yo'q*, *na...*, *na...* vositalari yordamida yasalishi aytilgan. Bundan tashqari ushbu darslikda inkorni ifodalovchi vositalarning inkor ifodalashidagi xususiyatlari, biri ikkinchisining o'rnida kelishi, gapda ulardan tashqari inkorni ifodalovchi maxsus so'zlar, ya'ni olmoshlar, yuklamalar, ayrim ravishlar kelishi, biroq ularning o'zigina gapni inkor tusiga kiritmasligi, ba'zan inkorning intonatsiya yordamida hosil bo'lishi aytib o'tilgan [G'ulomov, Asqarova, 1987: 51-52]. Inkor kategoriyasi gapda kesim orqali shakllanadi. Uning kesimda namoyon bo'lishi butun gapga xos bo'lib, boshqa bo'laklarda ifodalanishi o'sha bo'laklargagina xosdir. A.Hojiyevning "Inkor ifodalovchi vositalar va fe'lning bo'lishsiz formasi" nomli maqolasida bo'lishli formaning maxsus grammatik ko'rsatkichi yo'qligi, bo'lishsizlik (inkor) ma'nosi esa maxsus grammatik

vositalar yordamida ifodalanishi aytilib, quyidagi inkor ifodalovchi vositalar sanab o'tilgan: 1) -ma qo'shimchasi orqali; 2) emas to'liqsiz fe'li orqali; 3) yo'q yordamchisi orqali; 4) na yordamchisi va ohang orqali. Shu o'rinda A.Hojiyev inkorni ifodalovchi vositalar va fe'lning bo'lishsizlik formasini yasovchi vositalarni alohida ta'kidlaydi: "O'zbek tilida inkorni ifodalanish usullari va inkor ifodalovchi vositalar ko'p. Lekin fe'lning bo'lishsiz formasini yasovchi vositalar uchta: -ma affiksi, emas va yo'q yordamchilari [Hojiyev, 1970: 48-53]. A.Abdullayev "O'zbek tilida ekspressivlikni ifodalashning sintaktik usuli" asarida "inkor ifodalovchi lingvistik vositalar deganda shu kategoriyaning formal-grammatik va prosodik vositalar yordamida ifodalanishi tushuniladi", – degan fikrlarni keltiradi [Abdullayev, 1987: 9].

-ma fe'lning bo'lishsizlik qo'shimchasi "O'zbek tili stilistikasi" asarida ta'kidlanganidek, inkor gap hosil qilishda faol ishtirok etadi [Shomaqsudov, Rasulov, Qo'ng'urov, Rustamov, 1983: 162]. Bu qo'shimcha yordamida hosil bo'lgan inkor gaplar barcha uslublarda faol. U ma'lum bir uslubda chegaralanmagan. Bu haqida "O'zbek tili grammatikasi" darsligida quyidagi fikrlar keltirilgan: -ma affiksi yordamida yasaluvchi forma stilistik jihatdan neytralligi va qo'llanish doirasi kengligi bilan bo'lishsizlikning boshqa formalaridan farqlanadi [O'zbek tili grammatikasi, 1976:475]. Shu sababdan badiiy asarlar, uning barcha turlarida bu inkor shakl keng uchraydi:

Donishmand dediki, osonni kutma,

Imkondan ortiq bir imkonni kutma.

Daryodan daryoni talab aylagil

Va lekin hech qachon ummonni kutma. –(Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar.1-jild, 307).

Ammo bu affiks bilan hosil qilingan inkor gaplar badiiy matnda, xususan, she'riyatda shoir maqsadini ta'kidlashda, kutilmagan yechimni ifodalashda asosiy poetik vosita bo'lib xizmat qiladi:

Tubida tosh dumalatib soylar o'tdi,

Yelkasida yaraq-yaraq oylar o'tdi.

Qamishlarning boylamida naylar o'tdi,

Sizdan tekkan iztiroblar o'tmadi, yor,

Ko'zlarimdan ko'zlarinigiz ketmadi, yor (Iqbol Mirzo. "Sizni kuylayman").

She'r misralaridan anglashiladiki, shoir kitobxonni lirik kechinma, his-tuyg'ularni tasavvur qilish uchun dastlab tayyorlayotgandek, bayonchiga aylanadi, bunda tasdiq gaplardan foydalanadi. Biroq lirik qahramon aytmog'chi bo'lgan asosiy gap keyin keladi. Bu holatda esa ko'pincha inkor gap poetik aktuallashadi.

-ma fe'lning bo'lishsizlik qo'shimchasi fe'lning tuslanishli, tuslanishsiz barcha ko'rinishlariga qo'shila oladi. Masalan, sof fe'l, ravishdosh va sifatdosh shakllari, -ma fe'lning bo'lishsizlik qo'shimchasini olib, ish-harakatning inkorini bildiradi: *E, odam bo'lmay o'lsin, Jinoyat oqsoqol kuniga bir marta jinoyat qilmasa, kechasi uyqusi kelmaydi, bu ulgurning (S. Ahmad. "Ufq", 394).* -r, -ar shakli bilan hosil bo'lgan sifatdoshning bo'lishsizlik shakli -mas ko'rinishida bo'ladi. Bu shakl o'zida davomiylik, ifodaviylik, badiiylikni aks ettira olgani bois, badiiy asarlarda, xususan, she'riy nutqda keng ishlatiladi. -b, -ib ravishdoshining bo'lishsiz shakli -may, -masdan shakllari orqali ham yasaladi va badiiy asarlarda keng qo'llaniladi: *Zum o'tmay sarg'ishtob –"Volga"ning eshigi ochilib yopildi. Mashina bedasi o'rib olingan*

maydondan beshiktebratardek chayqalib-chayqalib yurib ketdi (O'.Hoshimov. "Ikki karra ikki besh", 214). -may shakli ham nasriy, ham she'riy, ham dramatik nutqda birdek qo'llaniladi:

O'ylamay deyman-u, o'ylamay bo'lmas,

O'tsang sen tomon bir bo'ylamay bo'lmas.

Sen mening hammadan yashirgan sirim,

Mening ertagimsan, so'ylamay bo'lmas (M. Yusuf. Saylanma).

-masdan shakli ko'proq jonli nutqqa xos bo'lib, tabiiylik, jonlilikni ta'minlash uchun qahramonlar nutqida nasriy va dramatik asarlarda faol: She'riyatda -may shaklining -mayin tarzida qo'llanishi ham uchraydi. Buyruq gaplarning inkor shakli faqat -ma shakli orqali hosil qilinadi [Abdullayev, 1987: 12].

Donishmand dediki, osonni kutma,

Imkondan ortiq bir imkonni kutma.

Daryodan daryoni talab aylagil

Va lekin hech qachon ummonni kutma (Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1-jild, 307).

Bo'lishsizlik shakli -ma affiksining stilistik imkoniyatlari M.Sodiqova tomonidan yaxshi tahlil qilingan. Unda -ma qo'shimchasining qo'shma va ko'makchili fe'llarga qo'shilganda, semantik, grammatik, stilistik mazmun berishi, -ma qo'shimchasining yuklama bilan kelib, ma'nolarni o'zgartishi aytib o'tilgan. Asarda o'zbek tilida qo'llanadigan *bo'ying uzilsin, ko'zing qursin, tiling kesilsin* kabi iboralar g'azab va nafratni ifodalasa, -ma qo'shilishi bilan salbiy ottenka butunlay yo'qolib, uning o'rnini erkalash, ayash, ehtiyotlash kabi uslubiy ma'nolar egallaydi: *bo'ying uzilmasin, ko'zing qurmasin, tiling kesilmasin* [Sodiqova, 1975: 51].

Yuqorida aytganimizdek, bo'lishsizlik ko'rsatkichi -ma affiksi harakatning inkorini bildiradi, *emas* yordamchisi esa narsa-predmet, belgi va harakatning inkorini ifodalash uchun ham qo'llanaveradi: daraxt *emas*, katta *emas*, kelgan *emas* va b:

Bosh ko'targan har bir jondor garchi kas emas,

Nazar solgin, poyingdagi u bir xas emas.

Laylo bo'lsang u ham Majnun, aslo past emas,

Sen uchundir bor hayotim, shuhratim, shonim,

Qo'llaringni bergil menga, shirinzaabonim (Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1-jild, 330).

Demak, bu jihatdan -ma affiksiga nisbatan *emas* yordamchisining qo'llanish doirasi keng, lekin ikkinchi tomondan, -ma affiksining qo'llanish doirasiga nisbatan *emas* yordamchisining qo'llanish doirasi ancha chegaralangan. -ma affiksi fe'lning tuslanishli va tuslanishsiz shakllari doirasida inkorni ifodalash uchun keng qo'llanaveradi. *Emas* yordamchisining qo'llanishi esa tuslanishli fe'l doirasida ham, tuslanishsiz fe'llar doirasida ham ancha chegaralangan. Masalan, kulmay gapirdi gapidagi inkor ifodalovchi -ma affiksini *emas* yordamchisi bilan almashtirib bo'lmaydi. *Emas* yordamchisi ikki harakat-hodisani bir-biriga qiyosan olib, birinchisining inkori ifodalanadigan hollardagina fe'lning tuslanishsiz formalari bildirgan harakatning inkorini ifodalash uchun qo'llana oladi: kulib *emas*, jiddiy gapirdi. Qarashi *emas*, kulishi chiroyli. Harakat-hodisa qiyosan olinib, birinchisining inkorini ifodalash uchun *emas* yordamchisi qo'llanganda, faqat u yoki bu fe'l bildirgan harakatning inkori *emas*, balki birinchi gap orqali ifodalangan fikrning inkori ifodalanadi. Masalan, yugurib *emas*, sekin keldi deganda, yugurib keldi gapiga xos mazmun inkor etiladi. Bunday hollarda gapning biror

bo'lagi tushirib qoldiriladi, emas yordamchisi fikrni ixcham tarzda va alohida ta'kid bilan ifodalash uchun yordam beradi. Birlashish emas, to'zib ketish hech gap emas. Bunday hollarda emas yordamchisi, hatto tuslanishli formalar bilan ham qo'llanadi. Demak, bunday hollarda emas yordamchisi fe'lining inkor formasini yasovchi bo'lmay, umuman inkor ma'nosini ifodalovchi yordamchi so'z hisoblanadi. Shuning uchun ham bu ma'noda u turli modal ma'no ifodalovchi yordamchi so'z hisoblanadi. Shuning uchun ham bu ma'noda u turli modal ma'nolarni ifodalovchi so'zlar, yuklamalar, undovlar bilan ham, shuningdek, bo'lishsiz formadagi fe'l bilan ham qo'llanaveradi: *G'amlaganlar bo'lmadi emas, bo'ldi*. Inkor ifodalovchi emas yordamchisi tuslanishli fe'llardan faqat *-gan* yordamida yasaluvchi o'tgan zamon fe'lining va *-moqchi* affiksi yordamida yasaluvchi maqsad fe'lining bo'lishsiz shaklini yasash uchun xizmat qiladi. Men bu yerga ariza berib kelgan emasman, ariza berib ketmayman. Kechiring oyi, men bunday demoqchi emas edim.

Emas so'zi odatda sifatdosh, ravishdosh, ot, sifat va ravishlarga qo'shilib, o'shalardan anglashilgan ma'noni inkor etadi: *Ha, men sodda edim. Ammo vijdonsiz emasdim. Go'l edim, ammo oriyatsiz emasdim! Ahmoq edim, ammo diyonatini pulga sotadiganlar xilidan emasdim. (O'.Hoshimov. "Ikki karra ikki besh", 334)*. Shuningdek tasdiq va inkor gaplarni o'zaro bog'lab, fikrning ixcham ifodalanishi uchun xizmat qiladi. Sen emas, men boraman. *Emas* so'zi bilan hosil bo'lgan inkor gaplar badiiy matnning barcha turida uchraydi. Ayniqsa, she'riyatda oziga xos uslubiy vazifa bajaradi:

Tortinaman bahslardan,

Hayqirish bo'lgan abas.

Chunki yaxshi bilaman,

Hamma ham sizdek emas... (U.Azim. "Fonus", 31)

Yo'q yordamchisi. Inkor bildiruvchisi yordamchi so'z sifatida yo'q so'zining qo'llanish doirasi *-ma* affiksi va *emas* yordamchisining shu ma'noda qo'llanish doirasiga nisbatan ancha chegaralangan. Bu so'z faqat *-gan* va *-yot+gan* affikslari yordamida yasaluvchi o'tgan va hozirgi zamon fe'llarining inkor shaklini hosil qilish uchungina qo'llana oladi: yozgani yo'q, yozayotgani yo'q kabi. O'tgan va hozirgi zamon fe'llarining yo'q so'zi yordamida yasaluvchi inkor formasida shaxs-son ko'rsatkichlari fe'lining o'ziga (yo'q so'zidan oldin) qo'shiladi. Yozganim yo'q, yozayotganim yo'q. *Yo'q* yordamchisi *-gan* affiksi bilan yasalgan fe'l formasi bilan qo'llanganda faqat holatning hozirgi inkorini ifodalashi mumkin. Bunda harakatning bajarilishi mumkinligi inkor etilmaydi. Masalan, mehmonlar kelishgani yo'q deganda hozirgi inkor holat nazarda tutiladi, kelish harakatining bajarilishi butunlay inkor etilmaydi. Bu ma'noni alohida ta'kidlash uchun shaxs-son ko'rsatkichlaridan so'ng *-cha* affiksi qo'llanishi mumkin. Rost, biz hali "masalani ko'ndalang" qilib qo'yganimizcha yo'q. Shaxs-son ko'rsatkichlaridan so'ng *-cha* affiksi qo'llanganda, harakat-holatning ma'lum darajasi yuz bergan bo'lishi mumkin, lekin uning to'la darajasi emasligi ifodalanadi. *Yo'q* yordamchisi hozirgi zamon fe'lining inkor formasini yasash uchun qo'llanganda ham ma'noni alohida ta'kidlash xususiyati bilan *-ma* affiksidan farqlanadi. Shu xususiyatiga ko'ra bu forma javob tariqasidagi nutqlarda ko'p qo'llanadi: – Menga hech kim xo'jayin bo'lolmaydi. – Haliyam sizga hech kim xo'jayin bo'layotgani yo'q. Yo'q inkor ma'nosini ifodalab, gapda kesim bo'lib keladi: *Kuyganyor xuddi kattakon vokzalga o'xshardi. Bu yerdan o'tganning ham, qo'nib qolganning ham son-sanog'i yo'q* (S.Ahmad. "Ufq", 59). Bu so'z takrorlanib, inkor ma'nosini kuchaytiradi: *U dunyoda ...o'lsa bo'ladi! U dunyoda quyosh yo'q. U dunyoda suv yo'q. U*

dunyoda non yo'q. Shu bois u dunyoda yaratib bo'lmaydi, u dunyoda ekin ekib bo'lmaydi. ...U dunyoda orden-medal yo'q, orden-medal yo'q! Qo'sha-qo'sha unvonlar yo'q. U dunyoda gimn aytib bo'lmaydi! U dunyoda "internatsional" aytib bo'lmaydi. U dunyoda pensiya bermaydi! U dunyoda pensiya yo'q! U dunyoda kampiri nozik ta'b bilan boqmaydi. Silab-siypalamaydi. Saranjom-sarishtalamaydi. Shu bois, u dunyoda o'lsa bo'ladi. U dunyoda oyoq uzatib yotsa bo'ladi! Bu dunyoda esa yashasa bo'ladi. Bu dunyo – yashash uchundir (Tog'ay Murod. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi", 159).

Yo'q so'zi bor so'zining antonimi sifatida narsa predmetning mavjud emasligini, ha so'zining antonimi sifatida rad-inkor ma'nosini, sifatdash +egalik qo'shimchasi shaklidagi birikma bilan ishlatilganda esa ish-harakatning yuzaga chiqmaganini ifodalaydi: *-Bunisini rais hali aytganlari yo'q (S.Ahmad. "Ufq", 530); A'zamjonning xotini bilan ketish niyatini payqagan ota o'g'liga shunday deydi: Ichkuyov bo'ladigan bolam yo'q. Nomard yigit ichkuyov bo'ladi. Xotin zotining urug'i Hirotdan kelgani yo'q (S.Ahmad. "Ufq", 449).* So'zlovchining buyruq tarzidagi savoliga nisbatan beriladigan yo'q javobi inkor gap bilan qo'sha qo'llanib, suhbatdoshning fikri qat'iy rad etiladi: *- Mansurjon bir so'ratib ko'rmaysizmi? O'sha xat kelganiga o'ttiz yildan oshdi. Bedarak ketganlarning ko'plaridan darak chiqdi, -dedim. Yo'q-yo'q. Kerakmas, -dedi. So'ng munglanib, aybdordek jilmaydi. -Asir tushib ketgan bo'lsa-chi? Yo'q. Bu isnodga chiday olmayman. (Sh. Xolmirzayev. "Kimsasiz hovli", 166); Yo'q, qaramayman, -dedi. -Nomahramlarga qaramayman! (Tog'ay Murod. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi", 29); Lekin Mengboy keyingi ichish hech qachon yaxshilikka olib bormasligini o'z tajribasida sinagani uchun qat'iyat bilan: "Yo'q, bas!" -dedi (Sh.Xolmirzayev. "Kimsasiz hovli", 115). Ba'zan yo'q ma'nosini uning antonimi bor so'zi berishi mumkin: *Bir hisobda bunaqa odatning nima yomon tomoni bor. U kishi bundan zavq oladi (Sh. Xolmirzayev. "Kimsasiz hovli", 31).**

Bu shakl bilan hosil bo'lgan inkor gaplar, ayniqsa, she'riyatda o'ziga xos vazifa bajaradi. Bu vosita takror holda qo'llanilishi va inkor ma'nosini yanada kuchaytirishi mumkin.

Sendamu chu bezor bo'layin? Yo'q, yo'q, yo'q!

Bir boshqasiga yor bo'layin? Yo'q, yo'q, yo'q!

To bog'i visolingda faqat gul ko'rdim,

Guldin kechibon, xor bo'layin? Yo'q, yo'q, yo'q! (J. Rumiy).

Yo'q so'zi yordamida hosil bolgan inkor gaplarning kuchli inkorni ifodalashi, o'zida qat'iylik ma'nosini tashishi, kuchli ohang bilan talaffuz qilinishi, inkordan tashqari xitob mazmuni mavjudligi tufayli shoirlarimiz bundan unumli foydalanadilar. Masalan, I. Mirzo she'riyatida yo'q so'zi yordamida hosil bolgan inkor gaplarning uslubiy xususiyatlaridan unumli foydalanilgan:

Yo'qsan, seni yo'qlab yo'llar qaragim yo'q,

Yurak yutib boray desam, yuragim yo'q.

O'zimga ham endi meni keragim yo'q,

Meni hatto mendan ziyod sevar eding,

Meni desa joningni ham berar eding (Iqbol Mirzo. "Sizni kuylayman", 8).

Yomonga o'lim yo'q, yaxshiga kun yo'q, Tomiringga qo'shib olishar uzib.

Bobur yo'q, Cho'lpon yo'q, Majnun yo'q,

Muhammad Yusuf yo'q, Muhammad Yusuf (Iqbol Mirzo. "Sizni kuylayman", 8).

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, mumtoz adabiyotda inkor shakllari orqali, bir fikrni inkor qilib, boshqa bir fikrni tasdiqlash orqali hosil bo'ladigan badiiy san'at mavjud. Bu haqida A. Hojiahmedovning "Mumtoz badiyat malohati" asarida quyidagi fikr keltirilgan: "Inkor so'zlar mumtoz adabiyotda badiiy san'at – ruju' san'atini vujudga keltirishga xizmat qiladi. Ruju' – arabcha "qaytish" ma'nosini bildirib, she'riyada shoirning oldingi misra yoki baytda ifodalagan fikrni, qo'llagan badiiy tasviriy vositasidan qaytgandek bo'lib, keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchliroq ifoda, she'riy san'atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to'ldirish usulidir" [Hojiahmedov, 1999:47]. Bu she'riy san'at hosil bo'lishida ham yo'q so'zi faol ishtirok etadi:

Kirdi ikki jism bir kafang'a,

Yo'q, yo'q, ikki ruh bir badang'a (A.Navoiy. "Layli va Majnun")

...Miskin men-u zori poybasta,

Yo'q, yo'qki, zaifi po shikasta.

Har bir mongishida yuz latofat,

Yo'q, yo'qki, sochib jahong'a ofat (A. Navoiy. "Farhod va Shirin")

Yo'q inkorni ifodalovchi vositadagi qat'iylik, og'zaki nutqqa xoslik, boshqa inkor shakllar bilan birga kelishlik va insonning shu narsaga, shu voqeaga yoki shu harakatga qarshiligini, mutlaqo xohlamasligini yaqqol aks ettirishi uni faolligini ta'minlaydi va u birlik inkorni ifodalovchi sifatida gapdan oldin keladi: *-Yo'q, yo'q. Bormaydi, unga bermayman bolamni* (S.Ahmad. "Ufq", 451).

Na yordamchisi takror holda qo'llanib, inkor ma'nosini ifodalaydi. Ba'zan she'riyatda bir necha marta qo'llanilib ma'noni kuchaytirishi mumkin:

Na orom, na xayol band etar uni,

Na oyna oldida soch tarar bu qiz.

Na o'zin o'ylagay, na yosh umrini,

Ko'ziga ko'ringay go'zasi yolg'iz (Muhammad Ali. "Saylanma", 25).

Na so'zining inkorni ifodalovchi boshqa vositalardan keskin farqi shundaki, u bir gap tarkibida necha marta qo'llanishidan qat'iy nazar, inkor ma'nosi saqlanadi. Hatto na so'zi ishtirok etgan gapning kesimi inkor shaklda ham, tasdiq shaklda ham qo'llanaveradi: Na o'qimaydi, na ishlamaydi; Na o'qiydi, na ishlaydi. "Na bog'lovchisi inkorga ishora bo'luvchi, inkor ma'nosini kuchaytiruvchi boshqa vositalar (hech, mutlaqo kabi) bilan hech qachon birga qo'llanmaydi. Na bog'lovchisi hamma vaqt nimanidir inkor etishi, uni ta'kidlashi, inkorga ishora bo'luvchi va inkorni kuchaytiruvchi vositalar bilan birga qo'llanmasligi, uyushiq bo'laklarni bog'lashi, o'rni bilan ajoyib tasviriy vosita sifatida qo'llanilishi kabi bir qator spetsifik xususiyatlari bilan boshqa inkor ifodalovchi vositalardan farq qiladi" [Abdullayev, 1987: 22].

Poyonsiz olamga boqaylik so'zsiz,

Na hasrat, na so'zning bordir keragi.

Bizning tegramizda yonayotgan kuz

Qaysi bir oshiqning so'ngan yuragi... (Abdulla Oripov. *Tanlangan asarlar. 1-jild, 193*).

Men na oy, na quyosh, na yer, na samo,

Shu'laga intizor giyohday o'sdim.

Yolg'izlik hasratin tortmaylik aslo,

Bor bo'lsang yodga ol meni ham, do'stim (Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1-jild, 205).

Na yordamchisi orqali hosil bo'lgan inkor gaplar boshqa vositalar bilan hosil bo'lgan inkor gaplardan badiiyligi bilan ajralib turadi. Shu sababdan faqat she'riyatda emas, nasriy asarlarda ham (asosan, muallif nutqida) keng qo'llanadi. Masalan, Said Ahmadning "Ufq" romanida A'zamjon cho'lga ketishda mashinada uchrashgan ayol bilan yana Quvada uchrashib qoladi. Az'amjon ayolning ko'tarib ketayotgan og'ir yukini qo'lga olib, uning uyiga eltib qo'yishi, ikkalasining yo'lda ketish holatini yozuvchi inkor yuklamalari orqali quyidagicha tasvirlaydi: *A'zamjon savatni ham oldi. Ikkovi indamay azim teraklar uzun-uzun beqasam soya tashlagan qishloq ko'chadan borishardi. Na undan, na bundan sado chiqardi* (Said Ahmad. "Ufq", 516).

"Tasdiq-inkor so'z-gaplarni bo'lishli va bo'lishsiz gaplar bilan qiyoslaganda, bunday so'z-gaplar o'ziga xos tasdiq-inkor ma'nosi bilan alohida bo'rttirilgan mazmun va shakl ifodalovchi gaplar sifatida ulardan ajralib turadi. – Ertaga kelasizmi? – Kelaman. – Ertaga kelasizmi? – Ha. – Ertaga kelasizmi? – Kelmayman. – Ertaga kelasizmi? – Yo'q. – Juda ko'p tilshunoslar tasdiq-inkor so'zlarni modallar tarkibiga kiritadilar. Bu bejiz emas. Haqiqatan ham tasdiq va inkor so'zlar, xususan, "Ha" va "Yo'q" so'zlari so'zlovchi nutqidagi neytral ma'noning tasdig'i yoki inkorini ifodalaydi. Lekin modal so'zlarda asosiy belgi so'zlovchining munosabatini belgilash bo'lganligi sababli so'zlovchining munosabati neytral bo'lgan "ha" va "yo'q" so'zlarini modallar guruhiga kiritish to'g'ri bo'lmasa kerak. Chunki tasdiq-inkor so'zlarni modallar guruhiga kiritganda birinchi o'rinda so'zlovchining munosabati - modal ma'no turadi. Shu sababdan "Albatta" so'zida tasdiq emas, balki so'zlovchining qat'iy ishonch ma'nosi turadi. "Ha" so'zida esa aksincha, ifodalash birinchi o'rinda turib, so'zlovchining munosabati ikkinchi o'ringa ko'chadi" [Bobokolonov, 2000: 54-55]. Qaydam modal so'z va bilolmadim to'liqsiz gapida ifodalangan axborot ham o'zaro yaqin, lekin qaydam so'zida gumon ma'nosi inkor yoki tasdiqdan ko'ra kuchliroq, bilolmadim to'liqsiz gapida esa inkor qilish ancha kuchli. O'zbek tilidagi tasdiq gaplarda tasdiq ma'nosi bilan birga inkor ma'nosining ham ifodalanishi kuzatiladi. Tasdiq shakl orqali inkor ma'nosining ifodalanishi natijasida shakl va mazmunning tasdiq-inkor belgilari jihatidan nomuvofiqligi yuzaga keladi. Tasdiq gaplarning shakliy va mazmuniy tuzilishidagi bunday nomuvofiqlik mazkur gaplarning chalkash yoki noto'g'ri tushunilishiga olib kelmaydi. Chunki sintaktik qurilmaning shakliy tuzilishiga mos bo'lmagan mazmun shu gapda yashirin ifodalanadiki, bu esa ochiq ifodalangan mazmunning gapning shakliy tuzilishiga muvofiq keluvchi mazmunning yashirin ifodalangan mazmun bilan qorishib ketmasligiga, sintaktik qurilmaning to'g'ri tushunilishiga imkoniyat yaratadi. Tasdiq gaplarda yashirin ifodalangan inkor propozitsiya bu gaplarning mazmuniy tuzilishini murakkablashtirishi yoki murakkablashtirmasligi mumkin. O'zbek tilida bo'lishli shaklda bo'lsa-da, lug'aviy ma'nosida inkor semaning mavjudligi bilan xarakterlanuvchi so'z va iboralar ko'plab uchraydi. Bunday leksik birliklarning lug'aviy ma'nosida inkor semaning mavjudligi ularning gapdagi turli so'zlar bilan munosabatida aniq ko'rinadi. "Lug'aviy ma'nosida inkor sema mavjud bo'lgan leksik birlik ishtirokida tuzilgan har qanday tasdiq gaplarda yashirin inkor ifodalanadi. Rad qilmoq, rad aylamoq, rad etmoq, mahrum etmoq, inkor qilmoq, inkor etmoq, rad bo'lmoq, inkor bo'lmoq, mahrum, benasib, bebahra so'zlarini ma'nosida inkor mazmuni anglashilishini aytib o'tadi va rad qilmoq, inkor qilmoq so'zlari sintaktik qurilmada bo'lishsiz shaklda qo'llangan tan olmoq, e'tirof etmoq, qabul qilmoq,

tasdiqlamoq ma'qullamoq so'zlari bilan almashinib qo'llana oladiki, bu holat ham mazkur so'zlarning inkor semaga ega ekanligini qo'rsatadi" [Lutfullayeva, 1997: 11]. "Qo'y so'zi inkor ifodalovchi vosita sifatida qo'llanganda harakatning yoki chegaralangan tushunchaning inkorini ifodalaydi. Qo'y so'zi o'timli fe'l bo'lganidan sintaktik qurilmada tushum kelishigidagi so'zni, so'z birikmasini, boshqarib keladi" [Lutfullayeva, 1997: 16]. *Soqchi: Hoy, hoy, xolajon. Qo'ying bu ishingizni. Gullarga suv sepib, hovli supuradiganlar son mingta-ku* (O.Yoqubov. "Bir koshona sirlari", 2); *Qo'y so'zi inkor ifodalovchi vosita sifatida og'zaki nutqda faol ishlatiladi. -Qanday bo'larkin. Pochchangiz ko'rib qolsalar... -E, qo'ysangiz-chi, bunaqa gaplarni. Yuring, yuring o'sha uzoq do'stingizni endi aytib berasiz* (S.Ahmad. "Ufq", 351). Qanday bo'larkin to'liq inkor shakli emas, balki bu gapda hadik, xavotir, andisha bor. – E, qo'ysangiz-chi bunaqa gaplarni gapida yuqoridagi gapga javob tarzida tasdiq orqali inkor gap mazmuni shakllangan. She'riyatda ham bu vosita qo'llanadi. Nafaqat inkorni, balki shu narsani, harakatning bo'lmasligini istaganini ham ifodalaydi:

Qo'ygil, u kunlarni eslatma menga,

Qalbimni yoqmasin bu xazon fasling.

Endi begonaman, jonginam, senga,

Endi begonadir menga ham vasling (Abdulla Oripov. *Tanlangan asarlar. 1-jild, 137*).

Tilshunos A. Nurmonov -gina emas, tugul, nafaqat, na..., nainki, u yoqda tursin til birliklarining ham chegaralangan tushunchaning inkorini ifodalay olishini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, berilgan gapda qo'y so'zining o'rnida ushbu til birliklari qo'llanganda ham chegaralangan tushunchaning inkori ifodalanadi. Masalan, *yoshlargina emas, hatto qariyalar ham zamonaviy kiyimlarni xush ko'radigan bo'lib qolishgan. Yoshlar tugul, hatto qariyalar ham zamonaviy kiyimlarni xush ko'radigan bo'lib qolishgan. Nafaqat yoshlar, hatto qariyalar ham zamonaviy kiyimlarni xush ko'radigan bo'lib qolishgan. Nainki yoshlar, hatto qariyalar ham zamonaviy kiyimlarni xush ko'radigan bo'lib qolishgan. Yoshlar u yoqda tursin, hatto qariyalar ham zamonaviy kiyimlarni xush ko'radigan bo'lib qolishgan. Qo'y so'zi tasdiq gapda inkor ifodalovchi vosita sifatida qo'llana oladi. Natijada gapning tasdiq shakli orqali inkor ma'nosi anglashiladi. Shaklan tasdiq gapning mazmunan inkorni anglatishi natijasida gapda shakliy-mazmuniy nomutanosiblik yuzaga keladi. *Aslo, bo'ldi, bas, mutlaqo, hargiz, mutlaqo* inkorni ifodalovchi so'zlar ham yakka holda yoki fe'lning bo'lishsizlik shakli bilan qo'llangan holda inkor ma'nosini ifodalaydi. *Bas* so'zida ham inkor ma'nosi mavjud bo'lib, *bas qil, bo'ldi bas, e bas-e* shaklida nutqda namoyon bo'ladi. Shuningdek, ba'zan so'zlovchining gapiga emas, uning holatiga ham munosabat bildirishga xizmat qiladi: *-Endi yer ag'darishni bas qil, bola, traktormisan, nima balo. Yer ag'darishning o'zi bilan ish bitmaydi. Bor ohangjamosi keyin chiqadi. Yozi bilan suv kechasan hali.* (S.Ahmad. "Ufq", 355).*

Badiiy matnlarda tasdiq ohangi bilan hosil bo'lgan inkor gaplar ko'p uchraydi. Masalan, nasriy va dramatik matnlarda ohang va ayrim vositalar yordamida tasdiq mazmuni o'z o'rnini inkor gapga bo'shatib beradi: *-To'xta, yer yutkur! – Onam ketimdan chopdi. – To'xta, juvonmarg. To'xtab bo'pman! (O'.Hoshimov. "Ikki karra ikki besh", 196); Bir xodim birdan hushyor bo'ldi. Alang-jalang bo'ldi. Nima-nima?! - dedi. -Uyga ketasan? Ketasan-a, ketasan, ketib bo'psan! Endi, sening o'ligingni orqalab kelish uchun yana boramizmi? Nima, sening... o'ligingdan boshqa ishimiz yo'qmi? yoki -mi yuklamasi* orqali tasdiq gap inkor mazmunini beradi: *Quruvchi kelarmidi, firqa bova. Binoni topshirish qog'oziga qo'limizni qo'ydiridi-yu, jo'nab qoldi.* Quruvchilar kelmasligi oddiy inkor shaklida ifodalanganda qahramon nutqi bir

xil bo'lib qolishi mumkin edi. – *Esizgina kinoteatr-a? Yaxshi-yaxshi kinolar qo'yib berardi. Konsertlar bo'lardi. – Endi kinoni tushingda ko'rasan. Ma, choyingdan bosib-bosib quy. (Tog'ay Murod. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi", 67); Menga qiliq ko'rsatyapti...Ko'rsatib bo'psan! Odamingni topibsan-ku!... (Sh. Xolmirzayev. "Kimsasiz hovli", 142). Ustun tagida ko'zi binafsharang bo'lib, oqshomgi mushuk turibdi. "Ha, uyga kirib bo'psan!"-dedim. (Sh. Xolmirzayev. "Kimsasiz hovli", 19); O'g'ling bunaqalarga bo'sh kelmasligini bilasan-ku, nimadan xavotir olasan (S. Ahmad. "Ufq", 31).*

Xullas, inkor gaplar voqea-hodisaning sodir bo'lmagani, ish-harakatning bajarilmaganini bildiradi. Inkor gaplar badiiy matnlarda nafaqat grammatik vazifa bajaradi, balki tasdiq gaplar singari vositalari yordamida o'ziga xos konnotativ ma'no ifodalashga, emotsionallikni oshirishda, ekspressivlikka erishishda, buyruq-xitob ma'nolarini, da'vatni kuchli ohang bilan talaffuz qilishda, yozuvchining individual uslubini hosil qilishda, xalqchilik, jonlilik, soddalik, tabiiylikni oshirishda alohida o'rin egallaydi.

Iqtiboslar/Sinopski/References

1. Абдуллаев.А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 90 б.
2. Абдурахмонов Ғ., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
3. Ahmad Said. Ufq. –Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2016. –640 b.
4. Бобоколонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. – Тошкент, 2000. –Б.93-96.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси: Филол.фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2009.
6. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: – Самарқанд: Зарафшон, 1992. –140 б.
7. Лутфуллаева Д. Тасдиқ гапларда инкор ва шаклий-мазмуний номувофиқлик: Филол. фан. номзоди...дисс. автореф. – Тошкент, 1997.
8. Нурмонов А. Синтактик конструкциялар тасдиқ ва инкор оппозицияларининг нейтраллашуви // Ўзбек тили ва адабиёти. 1981. №1. – Б.47.
9. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 432 б.
10. Содиқова М. Фейл стилистикаси. –Тошкент: Фан, 1975. –108 б.
11. Xolmirzayev Sh. Kimsasiz hovli. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. –192 b.
12. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. – Тошкент: Фан, 1975. – 600 б.
13. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. –256 б.
14. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. –240 б.
15. Ҳожиёв А. Инкор ифодаловчи воситалар ва феълнинг бўлишсиз формаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970. №4. –Б.48.
16. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 2016. – 576 b.

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Raxmatova Dilfuza,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

raxmatovadilfuza99@gmail.com

USMON AZIM SHE'RIYATIDA ANJAMBANG MAZMUNI VA PRAGMATIK VAZIFALARI

ANNOTATSIYA

Anjambang misra yoki gapning grammatik va semantik jihatdan keyingi satrga ko'chishi orqali she'r ritmi, emotsional ta'sirchanlik hamda pragmatik ma'nolarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Usmon Azim she'riyatida anjambang nafaqat sintaktik qurilish elementi, balki muallifning estetik niyati, ichki kechinmalari va kommunikativ maqsadini ifodalovchi poetik mexanizm sifatida muhim o'rin egallaydi. Shoir ijodida anjambang vositasida fikrning bosqichma-bosqich ochilishi, dramatik pauza, semantik urg'u va o'quvchi diqqati boshqariladi. Bu esa poetik matnda pragmatik ta'sirchanlikni yuzaga keltirib, lirik qahramon ruhiyati hamda muallif munosabatining yanada chuqurroq idrok etilishiga imkon beradi. Mazkur maqolada Usmon Azim she'riyatida anjambangning mazmuniy xususiyatlari, poetik funksiyasi hamda pragmatik vazifalari lingvopoetik tahlil asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: anjambang, she'rlar, pafos, ritm, Mayakovkiy uslubi, baxshiyona she'rlar, falsafiy qarashlar

Raxmatova Dilfuza,

doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, associate professor

Samarkand State University

Samarkand, Uzbekistan

raxmatovadilfuza99@gmail.com

СОДЕРЖАНИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ АНЖАМБЕМГА В ПОЭЗИИ УСМАНА АЗИМА

АННОТАЦИЯ

Анжамбманг служит для усиления ритма стихотворения, эмоциональной выразительности и прагматических значений посредством грамматического и семантического переноса строки или предложения на следующую. Особенно в поэзии Усмана Азима анжамбманг занимает важное место не только как синтаксический структурный элемент, но и как поэтический механизм, выражающий эстетическое намерение автора, его внутренние переживания и коммуникативную цель. В творчестве поэта анжамбманг используется для постепенного раскрытия мысли, создания драматических пауз, семантического акцента и контроля внимания читателя. Это создает прагматическую выразительность в поэтическом тексте, позволяя.

Ключевые слова: анжамбманг, стихи, пафос, ритм, стиль Маяковского, стихи бахшиевы, философские взгляды

Dilfuza Raxmatova,

PhD in Philology, Associate Professor
Samarkand State University
Samarkand, Uzbekistan
raxmatovadilfuza99@gmail.com

THE CONTENT AND PRAGMATIC FUNCTIONS OF ENJAMBMENT IN USMON AZIM'S POETRY

ABSTRACT

Enjambment, through the grammatical and semantic transition of a verse line or sentence into the following line, serves to enhance poetic rhythm, emotional impact, and pragmatic meanings. In the poetry of Usmon Azim in particular, enjambment occupies a significant place not merely as an element of syntactic structure, but as a poetic mechanism that conveys the author's aesthetic intent, inner experiences, and communicative purpose. In the poet's work, enjambment is used to gradually unfold thought, create dramatic pauses, place semantic emphasis, and guide the reader's attention. This, in turn, generates pragmatic expressiveness in the poetic text and enables a deeper perception of the lyrical hero's inner world as well as the author's attitude. This article examines the content-related features, poetic function, and pragmatic roles of enjambment in Usmon Azim's poetry on the basis of linguopoetic analysis.

Keywords: enjambment, poems, pathos, rhythm, Mayakovsky style, bakhshi-style poems, philosophical views.

O'zbek she'riyatiga XX asrning 70-80-yillarida kirib kelgan yana bir shoir Usmon Azim ijodi nihoyatda rang-barang va keng qamrovli ekanligi bilan o'ziga xosdir. Shoirning ko'pgina she'rlarida jahon adabiyotidan ta'sirlanib yaratilgan obrazlar, peyzaj va xronotopda g'arbona tasvirlarga o'xshash holatlarni ko'rishimiz mumkin. Lekin uning milliy ruhdagi an'anaviy

she'rlari ham ijodining alohida fasllarini tashkil etadi. Masalan, shoirning "Saylanma" sida berilgan "Chapani yoxud jaydari she'rlar", "Baxshiyona" kitobidan" ruknlari ostidagi she'r va dostonlari ana shunday asarlardir. Shoirning "Baxshiyona" turkumidagi dostonlarida asar qahramonlarining ismlariyoq, ya'ni Elbek baxshi, Elomon, Oytuman, Oqbotir, Qorabotir milliy koloritning vositalaridan ekanligi e'tiborni tortadi. "Oltinchi ballada" degan asarda ham Qora botir va Oq botir orasidagi munosabatlar tasviriga duch kelamiz. Bu asar "Baxshiyona" turkumidagi she'r bilan mantiqan bog'langan, anjambmangda yozilgan bo'lib, unda Qora botirning do'stga nisbatan qilgan xiyonatidan mag'rurlanib, bunday deydi: Falakni g'uborga to'lg'izib ko'rdim / Do'stimni o'ldirib, topdim farog'at // Shubhaga almashdim ishonchning o'rnin / Onamni zo'rlatdim – Etdim xiyonat [7.260].

XX arga kelib, adabiyotning folklor bilan sintezlashuv jarayoni tezlashdi. Natijada badiiy adabiyotda yangi yo'nalishlar, uslublar va ohanglar paydo bo'ldi. Usmon Azimning xalqona ruhda yozilgan she'riyati, ya'ni shoirning o'z iborasi bilan aytganda, baxshiyona ohanglari ana shunday sintezning go'zal namunasidir. Usmon Azim she'riyati nafaqat xalq og'zaki ijodi bulog'idan suv ichadi, ayni vaqtda uning ildizi yana mumtoz adabiyot va jahon adabiyoti tajribalari bilan ham tutashib ketadi. Aslida bu xususiyat Usmon Azim she'riyatiga yangicha bir tarovat, yangicha bir jilo bag'ishladi, uning uslubiy o'ziga xosligini belgiladi. Shoir baxshiyona she'rlar vositasida o'z dilidagi dardlarni, xalqning dardini anjambmangda ifodaladi, boshqacha aytganda eski ohanglar yordamida yangi davrlar dardini kuyladi [8. 47]. Usmon Azimning "Samarqand bo'ylab tungi sayr" she'rida kechinma uzoq tarix bilan bugungi kun o'rtasidagi uzilmas bog'liqlik asosiga qurilgan. Kechalarni chiroqlar parchalab tashlagan goh yorug', goh qorong'u ko'chalarda tun bilan nur o'rtasida minoralar kelajak sari ko'krak kerib turadi. Quloqlarga azon sasi urilganday bo'ladi. Zinalardan choponga o'ralib falak peshtoqi sari borayotgan shoir "Mening to'rt ming yillik bog'im", deya Samarqandning tarixiy ildizlariga nazar tashlaydi:

*Ana, osmonning qurboni – shahid rasadxona,
Ana, tarixning ko'milgan beshigi – Afrosiyob...
Necha asr bo'ldi o'shanga?
–Tuproq, qani,
yoril!
Samarqand, ildizing qayerda? [7.260].*

Anjambmang she'rga hayotiylik berish, his-tuyg'uni kuchaytirish, o'quvchini fikr oqimiga tortish, ritmik o'zgarishlar kiritish maqsadida qo'llanadi. Oddiy anjambmangda fikr darhol keyingi satrda davom etadi. Sintaktik anjambmangda sintaktik birikma (ot+ sifat, fe'l + aniqlovchi, ega+kesim, fe'l+ to'ldiruvchi) ko'rinishlarga ajraladi. [1.77-78]. Murakkab anjambmang fikr bir nechta satrga cho'ziladi. Shoirning erk haqidagi she'rida ikkinchi bir shaxsning lirik qahramonga munosabatini, uning taqdiriga ko'rsatayotgan ta'sirini badiiy mujassamlantirish orqali lirik "men"ning ruhiy holatini nurlantiradi [2.161]. U ikkinchi shaxsning kim va qanday ekanligini yashirmaydi. U - dushman, yomonlik timsoli. U – lirik qahramonni ta'qib qiladi. Bir paytlar uni yerparchin qilgan, lekin lirik qahramon ildiz yanglig' yana qayta novda chiqargan. Anjambmangda yozilgan ushbu she'rda dushman shundan keyin endi uni bamisoli tosh qilib osmonga otgan, lekin lirik qahramon yulduzga aylangan:

*O'lgin, deding - yerga ko'mding –
Ildiz bo'ldim.*

*Ko'kka otding – yo'q bo'l, deding –
Yulduz bo'ldim.
Tilim kesding – dilim aytdi
Rost kalima...
Qiyin bo'ldi senga, sho'rlik
Dushmanim-a? [8. 70].*

Shuningdek, personajlarning gap-so'zlari va ular orqali namoyon bo'lgan fe'l-atvorlari ham milliyliги bilan betakrordir. Ijodkor ichki kechinmalarini chiroyli tarzda nasr yoki nazm ko'rinishida ifoda eta oladilar. Badiiy kechinma bu hayotni obrazli idrok etish ibtidosidir. Har bir ijodkorning o'z uslubi va yo'nalishi bo'lib, undagi mahorat darajasini belgilab beradi. Usmon Azim qalbidagi kechinmalarni shunday ipga tizadiki, dard-u quvonchlar bir-birini to'ldirib turadi. Usmon Azim she'riyatining jozibasi, ko'pchilikning e'tirofiga sazovor bo'lishi ham shundandir. Usmon Azim ijodiyoti turkiy she'riyat, shuningdek, umumsharq adabiyotining eng ilg'or an'analarini o'zida mujassam etgan yangi va yuqori bosqichdir. Aksariyat she'rlariga nazar tashlasak, lirik qahramonning ichki his-tuyg'ulari, kuz tasviri va psixologizmi, g'ussa, tabiat bilan uyg'unlik, haqiqiy va majoziy muhabbat g'oyalarining keng yoritilganini anglaymiz. Usmon Azim ijodining tub mohiyati psixologik va falsafiy, majoziylik, ijtimoiy-estetik qarashlarning yuksak poetik shaklidagi ifodasi bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Usmon Azim xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy ma'naviyatining mukammallik kasb etishida o'z davrini tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning g'ururi, shon-u sharafini tarannum etayotgan o'lmas so'z san'atkoridir. U olam va odam, borliq haqidagi o'tkir falsafiy qarashlari bilan insonning ichki kechinmalariga ta'sir etish, tarbiyalash bilan bir qatorda odamni Hazrati Inson darajasiga ko'tarilishiga o'z hissasini qo'sha oluvchi mohir ijodkordir. Usmon Azim shiddatli tuyg'ulari bilan, keskin holatlar va aniq tasvirlari bilan o'zbek she'riyatiga yangicha ruh olib kirdi va anjambmangdan foydalandi.

Anjambmangda satr tugashi bilan fikrning yakunlanmasligi, balki keyingi satrda davom etishi, bir satrda boshlangan fikrning keyingi satrga o'tib ketishi aks etadi [4.290]. Usmon Azimning aksariyat she'rlarida shunday hodisani ko'rish mumkin. Shoir shaxsi – vujud, she'ri – ruh bo'lib ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi:

*...go'zal bir she'r yozsam,
haq bir she'r yozsam,
mard bir she'r yozsam...
Axir bu she'rni yozmasdan
Xudoning oldiga qanday boraman?
Nima deyman parvardigorga?
Nima deyman?..*

Ko'rinish turibdiki, shoirlik ijodkor uchun Olloh tomonidan ato etilgan ne'mat. Usmon Azim qalbida tug'yon urgan kechinmalarni hamisha qog'ozga solgan va ruhi taskin topgan. Shu sabab ham shoirlikni kasb deb emas, yelkasida vazifa sifatida bilgan. Har qanday she'r ruhi, pafosi o'z qiyofasi-yu ohangiga ega bo'ladi. Shoir va dunyo, shoir va inson, shoir va jamiyat, shoir va Alloh o'rtasida vositachi she'r bo'ladi. U she'r orqali his qildi, she'r orqali fikrladi, she'r orqali yashadi. Shoirning "Navoiy" nomli she'rda ham anjambmangning she'r satri sintaktik jihatdan tugallanmaganligi, fikr, gap yoki tasvir keyingi satrda davom etishi, bu usul she'rga

tuyg u, ohang, ritm va sur'at baxsh etishi, o'quvchida kutilmaganlik, ta'sirchanlik hosil qilishi ko'rsatilgan:

*Bir qarasam
tashqarida kuz,
bir qarasam bahor,
goh yozda nozlanib yotar tashqari,
goh qorda qaltirab...
Har lahzada – shu.
Xullas, cheksiz Astrobod.*

Usmon Azim she'riyatining yana bir xususiyati, ularning qanot qoqib baland parvoz qilishida. Agar she'r shoir ostonasidan nari o'tmasa, xira va qorong'uda qolib, o'z xususiyatini yo'qotsa, muallifni barvaqt mahv etadi. Shoirning ruhiyat nafasi bilan oshufta she'rlari, birinchi navbatda, go'zallik timsoli va sarchashmasidir. Shu bois ularning parvozi haqiqatan lochin parvozigacha o'xshaydi va o'zlaridan tabiiy bir nur taratadi. Usmon Azim she'rlari shunday xususiyatga ega. Shoirning "Qush" she'ri ham anjambmang usulida yozilgan bo'lib, bunda esa nafaqat she'rning mazmuni, balki uning ohangi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi: Qachondir, Bir paytlar, qushlik kezimda / Tuzoqqa tushganim ayon esimda // Tiriklik ko'yida holim edi tang / Arang qo'nar edim / Uchardim arang. Usmon Azim "Sobiq kombatim podpolkovnik Dudnikovga" she'rida sog'ligi chatoq podpolkovnik doktorning maslahatiga qaramay, o'z burchi va vazifasi yo'lida oxirgi nafasigacha fidoyilik bilan olg'a yuradi. Anjambmang usulida yozilgan shu birgina she'rda vatan, xalq ishi uchun jonini ham ayamaydigan shaxs obrazini yaratadi. Bu obraz qarshisida par yostiqa yotib, o'rnidan turishni xayoliga ham keltirmaydigan, o'z jismining quli bo'lgan shaxs obrazini qo'yadi: *Mayli podpolkovnik... Podpolkovnik, olg'a! Oldinga yuguraylik bemor yurakni changallab // "Oxiri yomon bo'ladi?" Bekor gap! [9. 14-15]* Shoir bu bilan beparvolik, beg'amlik, xotirjamlik botqog'iga botish alal oqibatda halokatli oqibatlarga olib kelishini alohida ta'kidlamoqchi bo'ladi.

Usmon Azim she'riyatida Mayakovskiy uslubining yoki siyosiy publitsistik ruhning ko'rinishi dastlab "usmonona" dardning erkin vaznda ifodalanishi bilan boshlanadi. "Insonni tushunish" to'plamidagi "She'r yozaman", "Polkovnik Fateyev", "Askar o'ldi", "Komandirman", "Insonni tushunish kerak...", "Bu sochlarning" kabi she'rlari shular jumlasidan. Usmon Azimning she'riyatida garchi mayakovskiyona uslubiy izlanishlar ko'rinsada, Mayakovskiyga xos uslub va uning ijodiga bo'lgan e'tiqodning tub sabablari hali noma'lum edi. Shoir faqat erkin vazndagi siyosiy she'rlar yaratish bilan cheklanmadi, balki Mayakovskiyning ijodkor va shaxs sifatidagi mohiyatini tushunishga ham intildi. She'r Mayakovskiyning ustoz sifatida idrok etish mayli bo'rtib turgan quyidagi satrlar bilan boshlanadi: *Quyoshni koyiysiz / Quyosh- ishyoqmas // Sizningcha, falakda yonar behuda // Ustoz, qanday kuylay sizga basma-bas / Uni so'kishni ham qilmagach udda [10.13].* Parchada Usmon Azimning mayakovscha izlanishlari ham, uning rus shoiriga bo'lgan munosabati ham o'z aksini topgan. Shoir Mayakovskiy uslubiga faqat shaklan ergashishni maqsad qilib olgan emas, balki ko'ngil dardini to'kib solish uchun o'sha paytda o'ziga eng maqbul tuyulgan uslubni tanlagan. Tanlagan uslub haqiqatdan ham shoirning maqsadiga muvofiq tushgan. Maqsad esa, davr nafasini, ijtimoiy-siyosiy hayot nafasini ifodalash edi. "Tazarru" she'ri misolida ham yuqoridagi fikrni yana bir karra tasdiqlash mumkin:

*Har kimsaga
kimligingni
ochiq aytib
ketmasang,
bu – onangga xiyonatdir,
Vataningga xiyonat [10. 23].*

Hayotda to'g'rilik va poklik uchun kurash ruhi Usmon Azim she'riyatidagi lirik qahramonga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan sanaladi. Shoir ijodining avvalidanoq, faqat shakily izlanishlarga ruju qo'ymay, ayni vaqtda she'rning mazmuni, shakl ustida ham boshqotirdi. Anjambmang – bu she'r satrining sintaktik jihatdan yakunlanmasligi, ya'ni bir satrda boshlangan fikr, gap yoki obraz keyingi satrda davom etishi [5. 11]. Usmon Azim she'rlarining aksariyati anjambmangda yozilgan bo'lib, keyingi satrda izohlanadi yoki to'ldiriladi.

Xalq adabiyotiga xos adabiy sujetlar va ularning qahramonlari obrazini poetiklashtirish, shu asosda davr fojialari, quvonch va tashvishlarini aks ettirish Usmon Azim she'riyatida yanada chuqurlashib bordi. Uning “Dramatik balladalar” turkumiga kiritilgan asarlarida xalq ijodi sujetlariga murojaat etish mayli kuchaydi. Bu turkumda sakkizta ballada bo'lib, uning bittasi ilohiy mavzudagi fantastikaga asoslangan, qolganlari esa, xalq ertaklarining Kenja botir, To'ng'ich botir, O'rtancha botir, Gulpari, Qora botir kabi qahramonlari timsolida davr hayotini ifodalashga qaratilgan. Xalq og'zaki ijodida ulkan va mitti odamlar to'g'risida ko'plab adabiy sujetlar mavjud. Usmon Azim ana shu adabiy sujetdan foydalanib, ramziy timsollar vositasida davrning o'ziga xos fojialarini ko'rsatadi. “Dramatik balladalar” turkumining beshinchi asarida kichik odam – davrning amalsiz, oddiy fuqarosi, ulkan odam – davrning yuksak martaba va mavqega ega bo'lgan amaldori sifatida ko'rinadi. Ballada kichik odamning ulkan odamga murojaati bilan boshlanadi:

*Bilmayman, boshimni kim olib ketdi–
Dunyo bilganicha afsona aytar,
Ortiq chidolmayman–
Dil yonib ketdi,
Ulkan odam,
Menga boshimni qaytar! [11. 15-16]*

Shoir Usmon Azim kichik odam timsolida qizil imperiya davrida ezilgan, o'z erk-huquqini yo'qotgan, faqat birovning topshirig'i va ko'rsatmasi bilan ish bajaruvchi, lekin fikrlarini amalga oshirish imkoni bo'lmagan kishining obrazini chizadi. Usmon Azim balladasining hali qizil imperiya o'z oyog'ida mustahkam turgan bir pallada yaratilishining o'zi bir jasoratdir. U Moskvada turib, ko'p millionli xalqni o'z irodasiga bo'ysundirgan “ulkan odam”ga o'z noroziligini dadil aytadi. U yaratgan dunyo qo'rqinchli bo'lib, unda yashayotgan kishi o'z aqli bilan emas, birovning aqli bilan ish yuritishga majbur ekaniga urg'u berib, anjambmangning go'zal namunasini yaratdi:

*Istiqlol ufqqa sarobday botar...
Qarsaklar shiddati
Borarkan toshib,
Barcha yelkalarda bamaylixotir
Turar mening boshim,*

*Bir mening boshim.
Ammo men aqlimni yeb qo'yganim yo'q,
Asradim hammani boshini alhol.
Ana, omborlarda yotibdi to'p-to'p,
O'zingni boshingni
Bor-da topib ol! [11.15-16]*

Nihoyat kichik odam o'z boshini topib olgach, ulkan odamga "Men yashayman o'z boshim bilan" deb murojaat etadiki, bu ham davr fojiasini ochuvchi kalitlardan biridir. Chunki uzoq muddat bironing qaramog'ida yashagan insonning ozod bo'lgach, sarosimaga tushishi tabiiy hol. Lekin kichik odamning bu murojaatida kinoya ruhi yashirin.

Usmon Azim she'riyatida anjambmang poetik sintaksisning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shoir ushbu usul orqali misralar o'rtasidagi semantik bog'liqlikni kuchaytirib, fikrning ta'sirchan va dinamik ifodalanishiga erishadi. Anjambmang she'riy matnda ritmik harakatni yuzaga keltirish, emotsional holatni chuqurlashtirish, poetik urg'uni kuchaytirish hamda o'quvchi diqqatini muayyan mazmuniy nuqtaga yo'naltirish kabi vazifalarni bajaradi.

Usmon Azim ijodida anjambmang faqat shakliy hodisa emas, balki muallifning pragmatik niyatini ifodalovchi lingvopoetik mexanizm hamdir. U lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini tabiiy va dramatik tarzda ochishga xizmat qiladi. Natijada she'ning kommunikativ ta'sir kuchi ortib, badiiy matnning estetik qiymati yanada boyiydi. Demak, anjambmangning mazmuniy va pragmatik imkoniyatlarini o'rganish Usmon Azim poetikasining o'ziga xos jihatlarini chuqurroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtiboslar/Синоски/References

1. Grigoryev V.P. Poetika slova. - Moskva: Nauka. 1979.77-78 b
2. Vinogradov V.V.Stilistika.Teoriya poeticheskoy rechi.Poetika.-Moskva: Izd-vo AN SSSR,1963. 13, 161-b.
3. M.Jirmunskiy. Teoriya stixa.– Leningrad: Sov.pisetel, 1975, 14, 290-betlar
4. Tinyanov Yu.N.Problema stixotvornogo yazika.–Moskva:Sov.pisatel.1965.
5. B. Jirmunskiy.Vvedeniye v metriku. – Leningrad: Akademiya. 1925.15 b.
6. Usmon Azim. Saylanma. –Toshkent. 1995. –B.260.
7. Suvonova J. Usmon Azim she'riyatida badiiy tafakkur. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012. 47 -bet].
8. Usmon Azim. Insonni tushunish. –B. 14-15].
9. Usmon Azim. Surat parchalari. – Toshkent: Yosh gvardiya.1986.–B. 13.
10. Usmon Azim. Baxshiyona. Dramatik balladalar. – Toshkent. 1990. –B. 15-16.

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Nabiyeva Rushana

Xalqaro innovatsion universitet katta o'qituvchisi
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalqaro innovatsion universitet

Qarshi, O'zbekiston

rushana.nabiyeva@internet.ru

**OZIQ-OVQAT NOMLARI O'ZLASHMALARINING SOHAVIY
LUG'ATLARDA BERILISH TAMOYILLARI**

ANNOTATSIYA

Maqola oziq-ovqat nomlari yangi o'zlashmalarining sohaviy lug'atlardagi berilish tamoyillari xususida bo'lib, dalillar asosida ochib berilgan. Unda sohaviy lug'at tushunchasiga qisqacha to'xtalib, maxsus leksika, kasb-hunar nomenlari, sohaviy terminlar haqida ham ma'lumot berib o'tilgan. O'zbek tili leksikasida hozirda umumxalq tilida faol qo'llanuvchi brokkoli, paprika, patisson, vasabi hamda faqat soha vakillari nutqida qo'llanuvchi agar-agar, paxta, posipka, tofu kabi o'zlashmalar shakllanib ulgurgani, ayniqsa, oziq-ovqat o'zlashma nomlarining o'zbek tili leksikasida ortib borayotgani va sohaviy lug'atlarda chegaralab olinishi sekin kechayotgani misollar asosida tahlil qilingan. Maqolada umumiy tipdagi izohli lug'atlarda oziq-ovqat nomlarining etimologik, lug'aviy ma'nolari illyustirativ misollar asosida izohlanishi, pazandachilik lug'atlarida esa ularning tabiati, sog'lik uchun foydali diyetologik sharhi, mahsulotlarni tayyorlash usuli va oziq-ovqat nomlari mavzuviy guruhida qaysi lug'aviy-ma'noviy to'daga mansubligi ko'rsatib berilishi atroflicha bayon qilingan.

Kalit so'zlar: maxsus leksika, kasb-hunar nomenlari, sohaviy terminlar, gastronomik terminlar, tansiq (delikates) taom nomlari, kulinaronimlar, gastronomik lug'atlar.

Набиева Рушана

Старший преподаватель Международного инновационного университета
доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Международный инновационный университет
Карши, Узбекистан
rushana.nabiyeva@internet.ru

ПРИНЦИПЫ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ЗАИМСТВОВАННЫХ НАИМЕНОВАНИЙ ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ В ОТРАСЛЕВЫХ СЛОВАРЯХ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена принципам представления новых заимствований, обозначающих наименования продуктов питания, в отраслевых словарях и раскрывает данную проблему на основе фактического материала. В работе кратко рассматривается понятие отраслевого словаря, а также приводятся сведения о специальной лексике, профессионально-ремесленных номенах и отраслевых терминах.

Отмечается, что в лексике узбекского языка уже закрепились как заимствования, активно употребляемые в общенародном языке, такие как брокколи, паприка, патиссон, васаби, так и единицы, используемые преимущественно в речи специалистов, например агар-агар, пахта, посипка, тофу. На основе конкретных примеров анализируется тенденция к увеличению количества заимствованных наименований продуктов питания в современном узбекском языке, а также сравнительно медленный процесс их систематизации и фиксации в отраслевых словарях.

В статье подробно освещается, что в толковых словарях общего типа наименования продуктов питания сопровождаются этимологическими и лексико-семантическими характеристиками с иллюстративными примерами. В кулинарных словарях, в свою очередь, раскрываются природа соответствующих продуктов, их диетологическая ценность и польза для здоровья, способы приготовления, а также их принадлежность к определённым лексико-семантическим группам в тематическом поле наименований продуктов питания.

Ключевые слова: специальная лексика, профессионально-отраслевые номены, отраслевые термины, гастрономические термины, наименования деликатесных блюд, кулинаронимы, гастрономические словари.

Nabiyeva Rushana

Senior lecturer, International Innovative University
PhD in Philological Sciences
International Innovation University
Karshi, Uzbekistan
rushana.nabiyeva@internet.ru

PRINCIPLES OF REPRESENTING LOANWORD FOOD NAMES IN
SPECIALIZED DICTIONARIES

ANNOTATION

The article examines the principles of presenting newly borrowed food names in specialized dictionaries and elaborates on them with supporting evidence. It briefly addresses the concept of a specialized dictionary and also provides information about special vocabulary, occupational nomenclature, and field-specific terms. Through illustrative examples, the article analyzes how borrowings such as *brokkoli* (broccoli), *paprika*, *patisson* (pattypan squash), and *wasabi* (wasabi), now widely used in the common language, as well as terms used only in professional speech such as *agar-agar*, *paxta*, *posipka*, and *tofu*, have already become established in the lexicon of the Uzbek language. It particularly highlights the growing number of borrowed food names in Uzbek lexis and the slow pace at which they are being incorporated and delimited within specialized dictionaries. The article elaborates in detail on how, in general-type explanatory dictionaries, food names are interpreted in terms of their etymological and lexical meanings supported by illustrative examples, whereas in culinary dictionaries their nature, dietological commentary regarding health benefits, methods of preparation, and the lexical-semantic subgroup to which they belong within the thematic group of food names are indicated.

Keywords: special vocabulary, occupational nomenclature, domain-specific terms, gastronomic terms, names of delicacy dishes, culinaronyms, gastronomic dictionaries.

Leksikografik tadqiqotlarning bir bo'g'ini bo'lmish sohaviy lug'atlarning dunyoga kelishi va taraqqiy etishi, albattaki, leksik sathda kasb-hunar leksikaning shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Aniqroq aytganda, sohaviy lug'at jamiyatdagi turli-tuman soha vakillari uchun xizmat qiluvchi asosiy manbalardan biri bo'lib, tor doiradagi maxsus leksik birliklarni qamrab olishi bilan umumiy tipdagi izohli lug'atlardan farq qiladi.

Avvalo, sohaviy lug'at birliklarini belgilab olish munozaralidir, xususan, pazandachilik sohasiga oid terminlarni aniqlash ham o'ziga xos murakkab hodisadir.

Sohaviy lug'atlarni o'zida mujassamlashtiruvchi *maxsus leksikaning* o'rni haqida V.Leychik shunday yozadi: "... rivojlanayotgan tillardagi yangi leksikaning 80-90 % ini terminlar va boshqa maxsus leksik birliklar tashkil etishini inobatga olish kerak, zero ko'p olimlar tomonidan e'tirof etiladigan "*til intellektuallashuvi*" ma'lum darajada tilda *maxsus leksikaning* keng qo'llanishi bilan bog'liqdir" [8, B. 20–28].

Rus tilshunosi Y.Serdobinseva [14, B. 42] qayd etganidek, "tilshunoslikda *termin* va *nomenklaturadan* farqli o'laroq, professionalizmlar (sohaviy terminlar) material to'plashdagi qiyinchiliklar tufayli kam o'rganilgan. Negaki sohaviy terminlar, asosan, og'zaki nutqqa xos bo'lib, yozma nutqda kam uchraydi. Sohaviy lug'atning ayrim xususiyatlari aniqlangan bo'lsa-da, terminologik tadqiqotlarda ko'rib chiqilmagan va *kasb-hunar nomenlarining* til tizimida maqomi mavjud emas".

Tilshunoslikka oid darsliklarda aytilganidek, "terminlar muayyan bir sohaga oid tushunchalarni aniq ifoda etuvchi so'zlar bo'lsa-da, lekin bu so'zlarning qo'llanishi shu soha kishilari doirasi bilan chegaralangan bo'lishi shart emas. Bunda ikki holatni ko'rish mumkin:

1. Terminlarning ma'nosi sohaga aloqasi bo'lmagan kishilar uchun ham tushunarli bo'ladi va ular tomonidan ham qo'llanaveradi.

2. Terminlarning ma'lum qismi shu termin oid bo'lgan soha kishilari uchun tushunarli bo'ladi va shular nutqida qo'llanadi" [19, B. 129].

Oziq-ovqat nomlari yangi o'zlashmalari orasida ham umumxalq tilida faol qo'llanuvchi terminlar (*brokkoli, paprika, patisson, vasabi* kabi) hamda faqat soha vakillari nutqida qo'llanuvchi o'zlashmalar (*agar-agar, paxta, posipka, tofu* kabi) uchraydi.

B.Mengliyev esa bu haqida shunday deydi: " Moddiy ishlab chiqarishning har xil sohalari muntazam rivojlanib, yangi yo'nalishlar bilan boyib borishi, fan va texnikaning tinimsiz rivoji yangidan yangi maxsus so'zlar – termin va terminologik qatlamlarni vujudga keltiradi va rivojlantiradi. Bunda e'tiborlisi shundaki, umumiste'mol so'zlarning ayrimlari terminologik tabiat kasb etsa, ayrim terminlar o'z ifodalanmishining kundalik turmushda qo'llanish darajasiga bog'liq ravishda umumiste'mol xususiyat kasb etib boradi" [10, B. 106].

G.Bahodirova [5, B. 27] ta'kidlashicha, sohaviy terminlar keng ma'noda, terminning barcha ko'rinishlarini, tor ma'noda esa muayyan sohaga oid nomlar, masalan, *kiyim-kechak, to'y-hasham, aza-marosim, oziq-ovqat, taom nomlari, o'yin nomlari* va boshqalarga nisbatan ishlatiladi.

Jamiyatning moddiy-madaniy hayotida muhim o'rinda turuvchi pazandachilik sohasi ham terminografik tizimda o'z o'rniga ega bo'lib, lug'at tarkibining boyligi va ko'p qirraliligi bilan boshqa sohalardan ajralib turadi.

O'zbek tilshunosligida sohaviy leksikani leksikografik tadqiq qilish, asosan, hunarmandchilik sohasiga qaratilgan bo'lib, bu borada M.Abdiyev [2, B. 55], M.Ahatova [4, B. 24], I.Pardayeva [12, B. 27], M.Muhammadiyeva [11, B. 137], X.Berdiyev [6, B. 47], G.Bahodirova [5, – B. 27] larning ishlari e'tiborga molik. Xususan, M.Abdiyev [1, B. 110] asosiy e'tiborni kasb-hunar leksikasiga qaratadi va o'zbek xalqi tarixida qadimdan rivojlanib kelgan hunarmandchilik terminlarini lug'aviy-mavzuviy guruhlariga bo'lib o'rganadi.

O'zbek pazandachilik sohasida bajarilgan amaliy ishlar doirasida esa bevosita G.Odilovanning tadqiqotlari e'tiborga molik bo'lib, olima kulinarologik lug'atlarning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillarini ishlab chiqadi. G.Odilova ko'p tilli pazandachilik lug'atlarini yaratishda quyidagi mezonlarni tavsiya qiladi:

- gastronomik terminlarning aniq ekvivalentlarini topish;
- manba tildagi retseptik qoliplarni qiyosiy tahlil qilish;
- lug'atni mahsulot nomlari, oshxona anjomlari, pishirish jarayonida ishlatiladigan so'zlar, maxsus tayyorlangan yarim tayyor mahsulot nomlari, o'lchov birliklari kabi qismlarga ajratish;
- lug'at maqolalarni qisqa va lo'nda, dialektlarga asoslangan holda ta'riflash [13, B. 1718–1722].

Shuningdek, G.Odilova boshchiligida o'zbek pazandachilik sohasiga bag'ishlangan ensiklopedik lug'at ham yaratilib, 2018-2019-yillarda O'zbekiston oshpazlar uyushmasi va O'zbekiston gastronomik turizmi assotsiatsiyasi tomonidan "Lazzatli O'zbekiston" pazandachilik kitobi ham nashr ettirildi va bu o'zbek tilidagi gastronomik ilk ensiklopedik lug'at deya e'tirof etildi.

Aytish joizki, elektron lug'at shaklida taqdim etilayotgan gastronomik lug'atlar ham hozirgi vaqtda rivojlanib borayotgan amaliy leksikografik ishlar doirasidan sanalib, xususan,

2020-yilda G.Odilova tomonidan “Gastronomik terminlarning elektron lug‘ati” [20] yaratilib, lug‘at ushbu soha atamalarini o‘zbek, rus va ingliz tillarida izohlab beradi.

Hozirgi vaqtda gastronomik elektron lug‘atlarning alfavitli, mavzuviy, imloviy va retseptik shakllari ancha rivojlangan bo‘lib, so‘zshakllarning ifodalanishiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Masalan, rus tilidagi gastronomik birliklarni o‘zida aks ettiruvchi shunday veb-saytlardan biri *fitaudit.ru* [21] *oziq-ovqatlar, oziq moddalari (nutriyentlar) va oziq-ovqat toifalari (kategoriyalari)*ni alfavit tartibida sharhlaydi.

Pazandachilik lug‘atlarida oziq-ovqat mahsulotlari nomlarini berish ham umumiy tipdagi izohli lug‘atlardagi sharhdan tubdan farqlanadi. Aniqrog‘i, umumiy tipdagi izohli lug‘atlarda oziq-ovqat nomlarining etimologik, lug‘aviy ma‘nolari illyustrativ misollar asosida izohlansa, pazandachilik lug‘atlarida esa ularning tabiati, sog‘lik uchun foydali diyetologik sharhi, mahsulotlarni tayyorlash usuli va oziq-ovqat nomlari mavzuviy guruhida qaysi lug‘aviy-ma‘noviy to‘daga mansubligi ko‘rsatib beriladi.

Fikrmizning dalili sifatida quyida “*brinza*” va “*soda*” o‘zlashmalarining o‘zbek tilining izohli lug‘ati va K.Mahmudovning “O‘zbek tansiq taomlari” kitobida berilishini keltirib o‘tamiz:

1-jadval.

O‘TIL (2023)da berilishi	“O‘zbek tansiq taomlari” asarida berilishi
BRINZA	
BRINZA (<i>rum. brinza</i> – pishloq) Asosan qo‘y sutidan, shuningdek, sigir, echki sutidan yoki ularning aralashmasidan tayyorlangan sho‘rtang pishloq. <i>Aholining yog‘, qatiq, brinza, suzma kabi oziq-ovqatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda anchagina yutuqlarga erishayotirmiz. Gazetadan</i> [15, B. 615].	OQ PISHLOQ (BRINZA) Yog‘i olingan sutni qaynatib unga tuz va zardob qo‘shiladi. Nisbati: 1 litr sutga 1/2 choy qoshig‘ida tuz va 2 osh qoshig‘ida qatiq zardobi. Shunda sut oqsil va suvga ajraydi, uzoq qaynatib o‘tirmasdan darhol olib xaltachaga qo‘yiladi, osib suvidan ajratiladi, bir sutkadan so‘ng oqsilli qopni ikkita lagan, taxta yo silliq narsa orasiga qo‘yib ustiga yuk bostiriladi, bir necha soatdan so‘ng suvi batamom sirqiydi, mazasi sho‘rtang bo‘ladi [9, B. 58].
SODA	
SODA [<i>ital. soda</i> < <i>lot. soda</i> – natriy] Natriy karbonatlarning umumiy texnik nomi. <i>Ichimlik sodasi. Kaustik soda. – No‘xatni tezroq va yumshab pishishi uchun ivitganda, choy sodasi qo‘shsangiz ham bo‘ladi. K.Mahmudov, O‘zbek tansiq taomlari. Qadimgi kishilar qumga soda yoki ishqor qo‘shilsa, uning erish temperaturasi bir qadar pasayishini bilishgan. “Fan va turmush”</i> [17, B. 668].	SODA bu sanoatda ishlab chiqariladigan oq mayda kristalli kukun modda, kimyoviy nomi natriy gidrokarbonat, ya‘ni, taom sodasi. Biroz sho‘rtangroq mazasi bor, suvda yaxshi eriydi. O‘zbek pazandaligida yaqinda rus pazandaligining ta‘sirida ishlatila boshlangan, xamirga qo‘shiladi, bo‘g‘irsoq, o‘rama, varaqi, somsa va pecheniye tayyorlashda ishlatiladi, oz miqdorda qo‘shib dag‘al go‘shetni pishirishadi [9, B. 334].

Oziq-ovqat o‘zlashmalarining O‘TILda va sohaviy manbalarda berilishi.

Yuqorida ikki ustunda keltirilgan lug‘at maqolani qiyoslanganda “brinza” va “soda” o‘zlashmalarining semalari ikkinchi ustunda gastronomik jihatdan boyitilgani hamda lug‘at maqolaning pazandachilikka aloqadorligi bilan ajralib turadi.

Yana shuni ham aytib o‘tish lozimki, pazandachilik sohasida yaratilgan lug‘atlar okkazonal birliklar, shevaga xos oziq-ovqat nomlari bilan boyitilishi ham mumkin. Masalan, K.Mahmudov o‘zining “O‘zbek tansiq taomlari” kitobida “*ho‘plama*” taom nomini keltiradi va bu olimning o‘zi ixtiro qilgan okkazonal birlikdir. K.Mahmudov “*ho‘plama*” taomiga “*suv o‘rnida pomidor sharbati qo‘shib tayyorlanadigan sabzavotli sho‘rva*” [9, – B. 36] deya ta‘rif

beradi. Bundan tashqari, u “*tvorog*” o‘zlashmasini “irimshik” nomi bilan keltirib, “*o‘z nomi bilan bu irigan sutdan tayyorlanadigan mahsulot*” deya izohlagan.

Shuningdek, “O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati”da berilgan *ajabsanda, siltama, vag‘urri, chumchuqtili, o‘risno‘xat, o‘risloviya, o‘risqovoq* kabi shevaga xos kulinaronimlar ham gastronomik lug‘atlardan joy olishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlarining bir tarmog‘i bo‘lgan non va non mahsulotlari nomlarini terminologik tadqiq qilgan A.Ibatova M.Abdiyev bilan birgalikda novvoylik sohasiga oid “Novvoylik terminlari izohli lug‘ati”ni tuzadi va unda sohaga xos yangi o‘zlashmalarni ham beradi. Quyida shunday o‘zlashmalardan “*lavash*” va “*chapati*” nomlarining o‘zbek tilining izohli lug‘ati hamda M.Abdiyev, A.Ibatovalarning “Novvoylik terminlari izohli lug‘ati” da berilishini keltirib o‘tamiz:

2-jadval.

O‘TIL (2023)da berilishi	“Novvoylik terminlari izohli lug‘ati” (M.Abdiyev, A.Ibatova)da berilishi
LAVASH	
<p>LAVASH [<i>armancha lavash – yupqa, yassi non</i>] 1 Bug‘doy unidan oshirilmay xamir tayyorlanib, yupqa qilib yoyilgach, ikki yuzasi qizartirib olinadigan non turi; turli taomlar tayyorlash uchun yarimmahsulot. <i>Lavashning tarixi juda qadimga borib taqaladi. Bunday turdagi nonni shumerlar, bobilliklar, misrliklar, etrusklar va Yaqin Sharqda yashagan boshqa qadimgi xalqlar tayyorlashgan. Gazetadan.</i></p> <p>2 Lavash xamiri ichiga mol yoki tovuq go‘шти, qovurilgan kartoshka, pomidor, mayonez, ba‘zan pishloq solib, o‘rab tayyorlanadigan tezpishar taom. <i>Toshkentdagi yangi “Evos” lavash markazida 15 metrli lavash tayyorlandi. Gazetadan [17, B. 20].</i></p>	<p>LAVASH bug‘doy unidan ingichka shaklda tayyorlanadi, uni maxsus pechning devorlarida qizdiriladigan yoki pishiriladigan non turi. An‘anaga ko‘ra bu taom quvonch va tinchlik ramzi hisoblanadi.</p>
CHAPATI	
<p>CHAPATI shv. <i>Yupqa qatirma non; lochira. Ertalab Ahmad Husayn bir piyola choy va bir burda chapati bilan nahorlik qilib, o‘rnidan turdi. Oybek, Nur qidirib. [18, B. 727].</i></p>	<p>CHAPATI xamirturushsiz pishiriladigan hind xalqining milliy noni. shv. <i>Yupqa qatirma non; lochira [3, B. 159].</i></p>

Oziq-ovqat o‘zlashmalarining O‘TILda va sohaviy lug‘atlarda berilishi.

Oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarining sohaviy lug‘atlarda berilishi ham o‘ziga xos bo‘lib, bunda nomning lug‘aviy ma‘nosi bilan birgalikda uning foydali va zararli xususiyatlari hamda oziq-ovqat nomlari lug‘aviy-mavzuviy guruhida qaysi to‘daga mansubligi ko‘rsatiladi. Masalan, o‘zbek tilining izohli lug‘atida “*avokado*” o‘zlashmasiga quyidagicha ta‘rif beriladi:

AVOKADO [isp. *aguacate*] Faqat issiq iqlim sharoitida o‘sadigan, mevasi noksimon shaklli, doimiy yashil daraxt. *Olimlar avokadoning vatanini Meksikadagi Teuakan vodiysi deb hisoblashadi, boisi ushbu hududdagi qazilma ishlari davomida bir necha million yil avval yashagan, xuddi avokadoga o‘xshash o‘simlikning toshga aylangan qoldiqlari topilgan. Gazetadan [15, B. 178].*

O‘zlashmani sohaviy lug‘atlarda esa quyidagicha berish mumkin:

AVOKADO yashil, qora tusdagi yaltiroq tropik meva bo'lib, tarkibida omega yog'lari, mineral va tolalar mavjud. Avokado, ayniqsa, oshqozon-ichak tizimi uchun foydali. Meva pazandachilikda sendvich va salatlar, shuningdek, smuzlar tayyorlashda ishlatiladi.

Yuqoridagi "avokado" mevasiga berilgan ikki sharhni qiyoslaganda, izohli lug'atda uning "qayerda o'sishi", "mevasining shakli" va "o'simlik turi" semalari anglashiladi. Ikkinchi izohda esa "mevaning rangi", "tarkibi", "foydasi" va "sohada qo'llanish o'rinlari" kabi semalari bayon qilinadi.

Shu kabi o'zlashma meva nomlaridan yana biri "*greypfrut*" nomining o'zbek tilining izohli lug'ati va sohaviy lug'atda berilishini keltirib o'tish joiz deb topildi:

GREYPFROT [ingl. grapefruit < grape – uzum + fruit – meva] AQSh, Yaponiya, Hindiston, Gruziya, O'zbekiston, Kavkazning Qora dengiz bo'ylarida yetishtiriladigan, novdalari tikanli, bargi yirik, guli oq, mevasi nordon-chuchuk mazali doimiy yashil subtropik o'simlik; sitrus meva turlaridan biri. (Vatani –Hindiston). *Greypfrut mevalari uzum g'ujumi kabi bir joyda shoda-shoda bo'lib osilib turadi*. Gazetadan [16, B. 243–244].

Keltirib o'tilganidek, izohli lug'atda daraxtning yetishtiriladigan hududlari, botanik izohi va nihoyat, mevasining ta'mi va sitrus meva ekanligi izohlangan. Sohaviy lug'atlarda esa uni quyidagicha yoritisa bo'ladi:

GREYPFROT pomelo va apelsin daraxtlarining gibril qilinishi natijasida hosil bo'lgan subtropik daraxt; uning qizil, sariq va och yashil rangdagi mevalari nomi. Greypfrut mevasi vitaminlar, minerallar va antioksidlarga boy bo'lib, immun tizimini mustahkamlashga yordam beradi, biroq ayrim dori vositalari bilan ta'sirini hisobga olish kerak. Greypfrutdan, odatda, kivi, apelsin mevalari bilan birgalikda salatlar yoki kokteyllar tayyorlashda foydalanishadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari nomlari orasida meva nomlari yangi o'zlashmalarining tilga kirib kelishi ko'pchilikni tashkil qilayotgani bois ularning aksariyati mavjud izohli lug'atlardan joy olmagan. Shu bois ularni sohaviy lug'atlarda jamlab o'rganish o'rinlidir. So'zlashuv nutqida faollashib borayotgan shunday mevalardan ayrimlarini keltirib o'tmoqchimiz:

PITAYA asosan Meksikada yetishtiriluvchi kaktus shaklli, nordon ta'mli sitrus meva. Ko'rinishi ajdarhoga o'xshagani bois xalq tilida "*ajdar meva*" deb ham ataladi. Pitaya mevasidan sharbat tayyorlashda, alkogolli ichimliklarga ta'm berishda, bargidan esa choy sifatida foydalaniladi.

LAYM limonga o'xshash, biroq unga nisbatan shirinroq, yashil tusli sitrus meva. Laym pazandachilikda turli-tuman kokteyllar aralashmasining ajralmas qismidir.

KESHYU yarim oy shaklidagi yong'oqsimon quruq meva hamda noksimon keshyu olmasi olinadigan daraxt. Keshyu boshqa mevali daraxtlardan farqli ravishda ikki xil meva hosil beruvchi tropik daraxtdir. Noksimon keshyu olmasidan sharbat va murabbolar tayyorlashda foydalanishadi, keshyu yong'oqlarini esa to'g'ridan to'g'ri iste'mol qilinadi.

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat nomlari yangi o'zlashmalarini sohaviy lug'atlarga kiritish va ularni pazandachilik lug'atlarida mavzuviy hamda tizimli ravishda yoritib borish muhim ahamiyatga ega..

Shuningdek, pazandachilik sohasiga oid sohaviy terminlar o'z ichida bir necha soha terminologiyasiga mansub birliklarni qamrab oladi. Bular: *bog'dorchilik*, *dehqonchilik*, *chorvachilik*, *oshpazlik* kabilardir. O'zbek tili bog'dorchilik terminologiyasiga kiruvchi *kelinbarmoq*, *bo'rikalla* terminlari haqida D.Jamoliddinova shunday deydi:

“O‘zbek tili bog‘dorchilik terminologiyasidagi ko‘plab terminlarning yaratilishida, nomlanishida milliy-madaniy assotsiatsiyalar ishtirok etadi. Chunonchi, o‘zbek bog‘dorchilik terminologiyasida uzumning *kelinbarmoq* degan turini atovchi termin bor. Ushbu termini yaratishda til sohiblarining shu uzum mevasining kelin-qizlar barmog‘idek uzunchoq bo‘lishi assotsiatsiya qilingan. Yoki *bo‘rikalla* terminining yaratilishida ham qovunning og‘irlik sifati xuddi bo‘rining kallasidek og‘ir bo‘lishi assotsiatsiya qilingan” [7, B. 668].

Pazandachilik sohasiga oid lug‘atlar ma’lum bir xalqning gastronomik sohasiga oid boy moddiy-madaniy merosi bo‘lib, ularda xalqning *noyob (delikates) taom nomlari* bilan birgalikda ijtimoiy xoslangan, xalqning o‘tmish madaniyatida tayyorlangan faqirona taom nomlarini ham aks ettiradi. Masalan, *yovg‘onsho‘rva*, *yovg‘onosh* – go‘shsiz, ziravorlarsiz tayyorlanuvchi suyuq osh; *shulonsho‘rva* – kambag‘al, beva-bechoralarga tarqatiluvchi issiq ovqat; *sholg‘omsho‘rva* – faqat sholg‘om solib pishiriladigan suyuq osh, *qorasho‘rva* – qaynagan suvga eritilgan dumba yog‘i, piyoz va nonqoqi solib tayyorlanuvchi taom kabilarni keltirib o‘tish mumkin. Bu kabi misollarni davom ettirib forsiy o‘zlashma “langar” taom nomini ham aytib o‘tish joiz. *Langar* – hindlarning sinkx jamiyati tomonidan tekin tarqatiluvchi ovqatlarning umumiy nomi bo‘lib, ular, asosan, vegetarian taomlar sirasiga kiradi.

Xullas, sohaviy lug‘atlardan biri bo‘lgan gastronomik lug‘atlarning yaratilishi xalqning madaniy boyligi hisoblangan pazandachilik atamalarini tilning imkoniyatlaridan kelib chiqib tartibga solishda hamda gastronomik terminologiyada sohaga doir terminlarni unifikatsiya qilishda yordam beradi. Ularda oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarining berilishi esa sohaviy leksikaga kirib kelayotgan oziq-ovqat mahsulotlari nomlari haqida foydalanuvchiga to‘liq tasavvur uyg‘otadi. Muhimi, yangi o‘zlashmalarni sohaviy lug‘atlarda berishda tildagi mavjud imlo va umumiy izohli lug‘atlarga mos orfografik va orfoepik tamoyillarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Iqtiboslar / Сноски / References

1. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: Халқ мероси, 2004. – 110 б.
(Abdiyev M. Soha leksikasining sistem tahlili muammolari. – Toshkent: Xalq merosi, 2004. – 110 b)
2. Абдиев М.Б. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида): Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 55 б.
(Abdiyev M.B. Sohaviy leksikaning sistem tahlili (Samarqand viloyati kasb-hunarleri materiallari asosida): Filol. fanlari doktori... diss. avtoref. – Toshkent, 2005. – 55 b)
3. Abdiyev M, Ibatova A. Novvoylik terminlari izohli lug'ati. – Toshkent: Kafolat print company, 2023. – B. 159.
4. Аҳатова М. Ўзбек тили ёғочсозлик терминологияси: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.
(Ahatova M. O'zbek tili yog'ochsozlik terminologiyasi: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Toshkent, 2004)
5. Bahodirova G.B. O'zbek tilining kashtachilik leksikasi va uning leksikografik talqini: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Qarshi, 2023. – B. 27.
6. Бердиев Х.Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: филол. фан. бўй. фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2017. – 47 б.
(Berdiyev X.X. O'zbek tilining o'tovsozlik leksikasi: filol. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2017. – 47 b)
7. Жамолиддинова Д.М. Терминларни антропоцентриқ аспектда тадқиқ этиш хусусида баъзи мулоҳазалар // Istiqlol davri o'zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari. respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 58–59.
(Jamoliddinova D.M. Terminlarni antropotsentrik aspektda tadqiq etish xususida ba'zi mulohazalar // Istiqlol davri o'zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 58–59)
8. Лейчик В.М. Проблему отечественного терминовидения в конце XX века. // Вопросы филологии. – Москва, 2000, – С. 20–28.
(Leychik V.M. Problemu otechestvennogo terminovideniya v kontse XX veka. // Voprosu filologii. – Moskva, 2000, – S. 20–28)
9. Махмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари. – Тошкент: Меҳнат, 1989. – 352 б.
(Mahmudov K. O'zbek tansiq taomlari. – Toshkent: Mehnat, 1989. – 352 b)
10. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tili (Kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath). – Toshkent: Excellent polygraphy, 2020. – 202 b.
11. Муҳаммадалиева М.Н. Ўзбек тилидаги касб-хунар номларининг лексик-семантик ва деривацион хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс. – Фарғона, 2021. – 137 б.
(Muhammadaliyeva M.N. O'zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining leksik-semantik va derivatsion xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. diss. – Farg'ona, 2021. – 137 b)

12. Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Филол. фанлари номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1994. – 27 б.
(Pardayeva I. O'zbek tilining zargarlik terminologiyasi. Filol. fanlari nomz. diss. ... avtoref. – Toshkent, 1994. – 27 b)
13. Sayfullayeva R., Odilova G. Principles of Culinary Dictionary Compiling . // Ilkogretim Online – Elementary Education Online. 2021. – P. 1718–1722.
14. Сердобинцева Е.Н. Профессиональная лексика русского языка: структурно-семантический, функционально-стилистический и когнитивный аспекты: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Москва: 2011. – С. 42.
(Serdobintseva E.N. Professionalnaya leksika russkogo yazyka: strukturno-semanticheskii, funktsionalno-stilisticheskii i kognitivnyy aspektu: Avtoref. diss. ... dokt. filol. nauk. – Moskva, 2011. – S. 42)
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2023. – 964 b.
16. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. II jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2023. – 1036 b.
17. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. III jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2022. – 844 b.
18. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. VI jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2023. – 864 b.
19. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: 1980. – 443 б.
(Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980. – 443 b)
20. <https://play.google.com/store/apps/details?id=org.rteco.dictionary&hl=ru>
21. <https://fitaudit.ru>

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Muminova Aziza,

Doktorant (DSc)

Samarqand davlat chet tillar instituti,

Samarqand, O'zbekiston

aziza-310187@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0002-5922-5808>

ITERATIV (TAKRORIYLIK) ASPEKTUAL VAZIYATNI HOSIL QILUVCHI
VOSITALAR XUSUSIDA

(E.Seton-Tompsonning „Yovvoyi yo‘rg‘a” asari asosida)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada aspektual vaziyat turlaridan biri - ish-harakatning takroriy bajarilishini ifodalovchi **iterativ aspektual vaziyatni** shakllantiruvchi til vositalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida to‘plangan faktik materiallar asosida o‘zbek tilida takroriylik ma‘nosi turli lingvistik birliklar - payt ravishlari, leksik ko‘rsatkichlar, ko‘makchi fe‘llar, fe‘lning ichki semantik xususiyatlari hamda boshqa grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanishi aniqlangan. Muallif mazkur vositalarning umumiy leksik-semantik tavsifini ishlab chiqib, ularning aspektual imkoniyatlarini ham ochib beradi. Shuningdek, E. Seton-Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” asari materiallari asosida iterativlik semantikasini yuzaga chiqaruvchi birliklarning leksik-semantik xususiyatlari umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: aspektuallik, aspektual vaziyat, iterativlik (takroriylik), payt ravishi, leksik vosita;

Muminova Aziza,

Doctoral Candidate (DSc)

Samarkand State Institute of Foreign Languages,

Samarkand, Uzbekistan.

aziza-310187@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0002-5922-5808>

ON THE MEANS OF CREATING ITERATIVE (REPETITIVE) ASPECTUAL
SITUATION

(Based on the work of E. Seton-Thompson “The Wild One”)

ABSTRACT

This article analyzes the means that form the iterative aspectual situation, which is one of the types of aspectual situations and expresses the repeated performance of an action. Based on the examples collected during the research, it was identified that in the Uzbek language, the meaning of repetition of action is expressed through various means – temporal adverbs, lexical indicators, auxiliary verbs, verbal semantics, and other linguistic units. By providing a general lexical-semantic description of these means, the author also reveals their aspectual properties. Furthermore, the author generalizes the lexical-semantic features of the means expressing iterative semantics in E. Seton-Thompson's work "*Wild Mustang*".

Keywords: aspectuality, aspectual situation, iterativity (repetition), temporal adverb, lexical device;

Муминова Азиза,
Докторант (DSc)

Самаркандского государственного института
иностранных языков,
Самарканд, Узбекистан.
aziza-310187@mail.ru
<https://orcid.org/0000-0002-5922-5808>

О СПОСОБАХ СОЗДАНИЯ ИТЕРАТИВНОЙ (ПОВТОРЯЮЩЕЙСЯ) АСПЕКТУАЛЬНОЙ СИТУАЦИИ (На основе работы Э. Сетон-Томпсона «Дикарь»)

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются языковые средства, формирующие итеративную аспектуальную ситуацию — один из типов аспектуальных ситуаций, выражающий повторяемость действия. На основе собранного фактического материала установлено, что в узбекском языке значение повторяемости передаётся различными лингвистическими средствами — наречиями времени, лексическими показателями, вспомогательными глаголами, внутренними семантическими характеристиками глагола, а также другими грамматическими и лексическими единицами. Автор разрабатывает их общую лексико-семантическую характеристику и раскрывает их аспектуальные возможности. Кроме того, на материале произведения Э. Сетон-Томпсон «Дикий иноходец» обобщаются лексико-семантические особенности средств, выражающих семантику итеративности.

Ключевые слова: аспектуальность, аспектуальная ситуация, итеративность (повторяемость), обстоятельство времени, лексическое средство.

Aspektologiya atamasi lotin tilida aspectus – tashqi ko‘rinish, qiyofa va yunon tilida λόγος – so‘z, ta’limot kabi ma’nolarni anglatadi. Aspektologiya grammatikaning bir bo‘limi sifatida fe’l ifodalaydigan harakatning vaqt jarayonidagi kechimi va taqsimlanishini tadqiq etadi. Uning o‘rganilishi qadim tarixga ega bo‘lib, antik davridayoq aspektualikka oid ilk qarashlar yuzaga kela boshlagan. Jumladan, Aristotel birinchi bo‘lib, fe’llarning

chegaralangan/chegaralanmagan aksional guruhlarini ajratib bergan. Keyinchalik fe'l shakllari ifodalaydigan ba'zi aspektual farqlarni Appaloniya Diskol (yunon tilida), Varron (lotin tilida) ko'rsatgan [4].

Zamonaviy tilshunoslikda - aspektuallik tilshunoslikning grammatik tarmoqlaridan biri sanalib, u o'z ichiga aspekt (vid), chegaralanganlik/chegaralanmaganlik (aksionallik), harakat tarzi kabi kategoriyalarni qamrab oladi. Shulardan, aspekt (vid) - fe'lning grammatik kategoriyasi bo'lib, u fe'l ifodalaydigan harakatning tugallanganligi/ tugallanmaganligini, aksionallik - harakatning chegaralanganligi/ chegaralanmaganligini, harakat tarzi - fe'l ifoda etgan ish-harakatning qay tarzda va usulda amalga oshirishini ko'rsatadi. Zamonaviy aspektologiyada bu birliklar semantik, morfologik va pragmatik darajada o'rganiladi.

Aspektuallik va uni tashkil etuvchi kategoriyalarga to'xtalgan holda, aspektuallikning muhim tushunchalaridan biri, "aspektual vaziyat"ga izoh berish o'rinlidir. Aspektual vaziyat - bu fikr mulohazani aks ettiruvchi kategorial ifodalardan biridir. U aspekt (vid)ning tugallanganlik/tugallanmaganlik, fe'llarning chegaralanganlik/chegaralanmaganlik, davomlilik, karralilik, fazaviylik, perfektivlik kabi aspektual ma'nolaridan tashkil topadi [3, 302 - 303].

Aspektual vaziyat - faqat turli lisoniy, grammatik, leksik va kontekst vositalari yordamida shakllanadigan aspektual ma'nolar (terminativlik/protsessuallik) bilan cheklanib qolmay, shu bilan birga, u harakat tarzlari (harakatning boshlanishi, davom etishi, takroriyliigi, natijaviyligi) va ularning kombinatsiyasi natijasida yuzaga keladigan aspektual ma'nolarni ham o'z ichiga oladi [2, 105]. Aspektual vaziyatlarning bir necha turlari kuzatiladi. Jumladan, harakatning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi - inxoativ, takroriy harakat - iterativ, o'rta oqimda bo'lgan harakat - protsessual, tugal nuqtaga yetgan harakat - terminativ aspektual vaziyat kabilardir. "Aspektual vaziyat" tushunchasiga izoh bergan holda bevosita iterativ aspektual vaziyatlar tahliliga o'tamiz. Aytib o'tilganidek, iterativ aspektual vaziyat - harakatning takroriyliigini ifoda etadi. O'zbek tilida harakatning takroriylik ma'nosi, asosan, turli leksik ko'rsatkichlar, payt ravishlari, fe'l semantikasi, ko'makchi fe'l va boshqa vositalar yordamida o'z ifodasini topadi. Mazkur maqola uchun to'plangan (87 ta) misollarda iterativlik ma'nosi quyidagi ko'rsatkichlar orqali o'z aksini topgan:

I. leksik vositalar:

(1) *Billi bir necha kun Arnoni mehr bilan xo'p parvarish qildi. Arno oradan bir hafta o'tgach, butunlay sog'aydi, ...* [1, 297]. - Ushbu misoldagi iterativlik **bir necha kun** leksik vositasi orqali berilib, bunda shaxsning muayyan harakatni bir necha kun qayta-qayta bajarganligi ifodalangan.

Keyingi misollarni ko'rib chiqamiz:

(2) *Ular [tulkilar] kechqurun o'rdakning qurib qolgan qanotini ermak qilib o'ynadi. O'rdak qanoti o'n martalab tulkidan tulkiga o'tdi* [1, 4];

(3) *Ular [tulkilar] bu yerda butun yoz bo'yi ota-onalarining necha o'n martalab o'lja olib kelishini kuzatib o'tiradi* [1, 10]. - (2) hamda (3) misollardagi harakatning takroriyliigi **o'n martalab** ko'rsatkichi yordamida o'z aksini topib, "martalab" - miqdoriy-takroriylikni bildiruvchi yasama ravish sanaladi, u *marta* so'zi + *-lab* affiksidan hosil bo'lgan.

Navbatdagi misollarni kuzatamiz:

(4) *Ularning [tulkilarning] ota-onasi qo'rqanidan allaqachon o'rmonga qarab qochib, o'shayoqda bekinib yurdi. Ammo bolalaridan alag'da bo'lib, **bir necha bor** iniga qaytishga chog'landi, **har gal** odam ovozini eshitib, iziga qaytib ketaverdi* [1, 8];

(5) *U [Yan] baribir umidsizlikka tushmadi, chunki daydib yurganlarida **bir necha bor** ulkan Qumloq adir bug'usi izlariga duch keldi* [1, 90]. - Mazkur (4), (5) misollardagi iterativlik **bir necha bor** leksik vositasi orqali aks etgan, ya'ni ushbu leksik birlik ham harakatning qayta-qayta amalga oshish, takrorlanish ma'nolariga ishora qiladi. Shuningdek, (4) dagi **har gal** birikmasi ham takroriylik ma'nosini yanada kuchaytirgan.

Keyingi misollardagi iterativlik "**yana**" ko'magida hosil bo'lgan, misollarni tahlil qilamiz:

(6) *Bordi-yu, ular kechasi kelganlarida, tulkilar onasi bilan otasi o'zlarining qadrdon inlariga kirish uchun panjalari bilan tuproq kovlab yotganini ko'rgan bo'lardi. Ertasi kechasi tulkilar **yana** keldi* [1, 9];

(7) *Domino ana shu vaziyatdan foydalandi, bor kuchini to'plab, sohilga sapchidi. Qop-qora oqimdan oshib, yerga borib tushdi. Daryo uni yoshligidayam baloyi ofatlardan asrab yurardi, mana, **yana** asrab qoldi* [1, 58]. - Berilgan (6), (7) misollardagi ish-harakat muayyan vaqt oldin sodir bo'lib, u qayta takrorlangan, bunda asosiy vosita sifatida **yana** leksik vositasi xizmat qilmoqda.

Navbatdagi tahlil ostiga olinadigan (8), (9) misollarda odatiy, takroriy ish-harakat ma'nosi aks etib, **hamisha** leksik ko'rsatkichi harakatning doimiy sodir bo'lishini, takrorlanishini voqelantirgan:

(8) *Yaqin atrofda shu hovuzdan boshqa suv yo'q. **Hamisha** mollar hamda uy otlari o'tlaydigan ana shu yalanglik qora toychoqning ko'ngil qo'ygan yayloviga aylandi* [1, 60];

(9) *Ana shu xushqomat baytallarning birovi kundalik yumushlar uchun **hamisha** otxonada qoladi, qolgan to'qqizi toychoqlarini emizib bo'lib, o'z erkida o'tlab yuradi* [1, 61].

Ko'rib chiqiladigan (10), (11) misollardagi takroriylik **tez-tez** vositasi ta'sirida yuzaga kelgan, misollarni kuzatamiz:

(10) *Asabiy taranglik yovvoyi otlarning ishtahasini bo'g'ib qo'ydi, ammo **tez-tez** suvsay boshladilar* [1, 66];

(11) *So'ng biz uning [shoqol] quyosh botishi yo tong otishi bilan darhol kuylay boshlashini **tez-tez** eshitdik* [1, 334]. - Ushbu misollardagi **tez-tez** - harakatning ko'p marta, qisqa muddat ichida takroriy tarzda amalga oshishiga ishora qilgan.

Navbatdagi misolga e'tibor qaratamiz:

(12) *It bo'riga **har** yaqinlashganda, avvalo, uning quymichiga yopishdi, **har safar** bo'rining o'tkir tishlaridan qochib qutulishga ulgurdi* [1, 105]. - Misolda keltirilgan **har** - umumiylik, takroriylikni bildirib, u ko'pincha aniq vaqt yoki holat bildiruvchi otlar bilan birikib, takroriylikka asoslangan payt ravishli birikmalarni yasaydi. Mazkur misoldagi **har safar** - xuddi shu vazifada kelib, harakatning qayta sodir bo'lish ma'nosini yanada kuchaytirgan.

Tahlil qilinadigan (13), (14) misollardagi iterativlik **ko'p** vositasida hosil bo'lib, u ham sifat ham ravish vazifasida kela oladi, **ko'p** - fe'l bilan birgalikda qo'llanib, harakatning takrorlanish miqdorini ko'rsatadi. Aspektual jihatdan, u noaniq-iterativlikni ifodalovchi leksik ko'rsatkich sanaladi, chunki u harakatning necha marta sodir bo'lganligini aniq sonini emas, balki umumiy takroriylikka ishora qiladi:

(13) *Olmaxon u daraxtdan bu daraxtga irg'ib o'tayotganda tulkilar uni tutib olish uchun ko'p urindi, ammo foydasiz bo'ldi* [1, 131];

(14) *Bu hiylayi nayrang yovvoyi qoramollar bilan chiyabo'rilar olishgan olis zamonlardan qolgan bo'lsa ajab emas. Uchqur Toychoq ushbu hiylayi nayrangini esidan chiqarmay, uni kelajakda juda ko'p qo'lladi* [1, 261].

Keyingi misolni kuzatamiz:

(15) *Ko'p kunlari bir xil, tuzsiz kechib, ba'zida biron-bir tasodifiy sarguzashtga duch kelib qolardi, axir ovning gashti ham shunda-da* [1, 228]. - Ushbu misoldagi iterativ aspektual vaziyat jumla tarkibidagi **ba'zida** yordamida ifodalangan. **Ba'zida** - tuzilish jihatidan *ba'zi* + *vaqtlarda* shaklining qisqartmasi sanalib, u doimiy bo'lmagan vaqti-vaqti bilan sodir bo'lib turadigan harakat ma'nosini bildiradi.

Ko'rib chiqiladigan (16) misolimizda **qayta-qayta** takroriy birligi ishtirok etgan:

(16) *Toychoqdan mag'lubiyatga uchrash har qanday itga ulug' sharaftir, degan gapni qayta-qayta takrorlashdan tolmadi* [1, 193]. - Mazkur birlik harakatning takroriylik darajasini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi, ya'ni bunda harakat ko'p marta, tinimsiz takrorlanadi. Shu sababli uni "intensiv-iterativlik"ni hosil qiluvchi sifatida ham e'tirof etish mumkin.

II. payt ravishlari:

Navbatdagi misollardagi takroriylik ma'nosi turli payt ravishlari orqali o'z ifodasini topgan. Bunda **har ertalab**, **har kuni**, **har kechqurun**, **har yili** kabilar harakatni muntazam bir vaqtda, **ertalablari**, **kechalari** kabi payt ravishlari harakatning muayyan vaqt oralig'ida doimiy, odatiy tarzda takroran sodir bo'lishini bildiradi:

(17) *Sug'ur har ertalab qarag'ay kundasiga chiqib, oftobga isinib yotishni yaxshi ko'radi* [1, 128].

(18) *Shu yaqinda bir to'palonchi, qo'poldan-qo'pol olmaxon yashaydi, u har kuni daraxtning tulkilar chiqolmaydigan eng baland shoxiga chiqib olib, tulkilarni so'kadi* [1, 131].

(19) *U [tog'am] hamon mening ustimdan kulib, biror nima otib kelish uchun har kechqurun yelkasiga miltiq osib, ikkita itni ergashtirib, o'rmon oralaydigan bo'ldi* [1, 135].

(20) *Ularni [bo'rilarini] qirib tashlash uchun har yili turli-tuman chora-tadbirlar ko'rildi, ammo bo'rilar o'z ta'qibchilarining barcha hiyla-nayranglariga, yugurib-yelishlariga chap berib, rohat-farog'atda yashadi* [1, 145].

(21) *-Bekor gap, - dedi yo'l boshchi. - Bu ayiq har yili iyul-avgust oylarida keladi, u shu yaqin atrofda yashaydi* [1, 193].

(22) *Har tong uning [shoqol] izlari axlat chelagi oldida paydo bo'ladi, men bu payt bu yerga tun bo'yi qanday jonivorlar kelib-ketganini ko'rgani chiqaman* [1, 334].

(23) *Har qish kelgan sayin Ueb kamuyqu bo'lib qoldi, har bahor kelganda erta uyg'onadigan odat chiqardi* [1, 178].

(24) *Tor bilan Kornni katta xona burchagidagi poxol to'shakda yotar, Tor kechalari o'rtog'ining ingrab, uyoqdan-buyoqqa ag'darilishidan uyg'onib ketardi* [1, 232].

(25) *Torning ko'rgan kunlari ayancli, vahimali kechdi. Ertalablari biroz o'ziga kelib, ham o'ziga, ham qizlarga picha-pichadan yegulik tayyorladi, kechasi bo'ladigan isitmaga hozirlik ko'rib, har bir qizning boshiga bir satildan suv tayyorlab qo'ydi* [1, 234].

III. ko'makchi fe'l:

Tahlil ostiga olingan keyingi misollarda iterativlik ma'nosi ko'makchi fe'l ta'sirida yuzaga kelgan. Chunki, *turmoq* fe'li ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanganda, ish-harakatning takroriylik ma'nosini ifoda etadi. Taqqoslang:

(26) *Shu boisdan ham Juksning tovuqxonasi hamisha tinch bo'lib, Bentonning tovuqxonasidan bo'lsa tovuqlar yo'qolib turadi* [1, 7];

(27) *Adir tevaragidagi butazorda quyon bilan qur ko'p edi. Shu bois daqiqa sayin otishma ovozi eshitilib turardi* [1, 87].

IV. leksik vosita + ko'makchi fe'l:

Keyingi ko'rib chiqiladigan misollarda takroriylik ma'nosi leksik vosita hamda ko'makchi fe'l ta'sirida hosil bo'lgan. Misollarni kuzatamiz:

(28) *Tulkilar onasi sergak, otasi undan ham sergak edi. Bolalari hali ko'zlarini ocholmay, norasida bo'lib, yurgan davrlarida tulkilar otasi inga kirmay, tashqarida poyloqchilik qilib yurdi, shunday bo'lsa-da, muntazam ovqat olib kelib, otalik burchini vijdonan bajarib turdi* [1, 5]. - Gapdagi iterativlik *muntazam* - leksik ko'rsatkichi va ko'makchi fe'l vazifasidagi *turmoq* fe'li ko'magida hosil bo'lgan. *Muntazam* - muayyan ish-harakatning doimiy, uzluksiz tarzda amalga oshishiga ishora qiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, *turmoq* - ko'makchi fe'l sifatida qo'llanganda, harakatning takroriylik ma'nosini bildiradi.

(29) *Oyoq hidlari darrov yo'q bo'lib ketadi, ammo bolalar hadeb kelib, xabar olaverib, oyoq hidlarini yana yangilab turadi* [1, 32]. - Misoldagi *hadeb* - leksik takroriylik vositasi bo'lib, u harakatning davomiy takrorlanishini bildiradi. Bunda xabar olish harakati uzoq vaqt davomida bir necha marotaba takrorlanadi. Shuningdek, jumla tarkibidagi *yana* ko'rsatkichi hamda ko'makchi fe'l vazifasidagi *turmoq* - iterativlikni yanada kuchaytirgan.

(30) *Ammo qari Viksen har kechasi bolasiga yangi tovuq yo boshqa biror nima olib kelib turdi* [1, 140]. - Gapdagi *har kechasi* - harakatning muntazam tarzda har kechasi sodir bo'lishini va *turmoq* ko'makchi fe'li ish-harakatning takroriylikni aks etgan.

(31) *U yerga otda borib bo'lmaydi, u yerda otish ham qiyin. Shu boisdan ham unda ayiqlar ko'p yashaydi. Ovchilar ayiq ovlagani ko'p-ko'p kelib turadi* [1, 195]. - Misoldagi *ko'p-ko'p* leksik vositasi harakatning bir necha marotaba sodir bo'lishini, *kelib turadi* - analitik shakli tarkibidagi *turmoq* - harakatning muntazamlilik bilan takrorlanishini bildiradi.

(32) *Kakliklar odatdagiday don cho'qilashdi, eng o'lkani har zamon-har zamonda qattiq-qattiq ka-kalab turdi, silovsin bunday ka-kalashni o'rmonda ham eshitib edi* [1, 225]. - Bu yerda biz, past chastotali iterativ aspektual vaziyatni kuzatamiz, chunki *har zamon-har zamonda* birligi amalning onda-sonda bajarilishini, tanaffuslar bilan takrorlanishini ifoda etadi. *Kakalab turdi* - shakli ham harakatning takroriylikni ko'rsatgan.

(33) *O'tloqda quyonlar g'uj-g'uj to'lib yotibdi, ular ba'zan shahargayam kelib-ketib turadi* [1, 265]. - Gapda muntazam bo'lmagan, vaqti-vaqti bilan sodir bo'luvchi iterativlik o'z ifodasini topgan, chunki *ba'zan* - harakatning goho-gohida sodir bo'lishini bildirsa, *kelib-ketib* - harakatlar juftligi takroriylikni, *turadi* - ko'makchi fe'li harakatning muntazamliligini ko'rsatadi.

(34) *Bola aytgan "bahaybat davangir" Uchqur Toychoq edi. Ammo Toychoq bola aytganiday, Kalbaning ziroatida yashamasdi, u yerga onda-sonda kirib chiqib turardi* [1, 265]. Biz bu yerda ham muntazam bo'lmagan iterativlikni kuzatamiz, chunki *onda-sonda* vositasi harakatni muayyan oraliq bilan takrorlanishini ifoda etsa, *kirib-chiqib* harakatlar juftligi ham takroriy harakat bo'lib, *turardi* odat bo'lgan, takrorlanib turgan harakatdir.

(35) *Bu kabi poygalar haftada ikki marta bo'lib turdi* [1, 279]. - Misoldagi *haftada ikki marta* - birligi rejali, sistematik takroriylikni bildiradi, chunki amal haftada ikki marta o'tkazilishi allaqachon rajalashirilgan. *Bo'lib turdi* - analitik shakli tarkibidagi *turdi* - odatga aylangan, takroriylikni bildirgan.

(36) *Bizning Arnomiz garchand o'zi pishiqqina bo'lsa-da, bo'yi past bo'lib, unchalik chiroyli ham emasdi. Faqatgina ko'zlari g'alati chaqnab turardi. Buning ustiga, Arno kaptarxonani muhim ishlar vajidan tez-tez tark etib turdi*, ... [1, 296]. - Gapdagi *tez-tez* leksik ko'rsatkichi - harakatni muntazam, ko'p marotaba takrorlanishini ifodalaydi, *tark etib turdi* - takroriy va muayyan vaqt oralig'ida odat tarzida sodir bo'lgan harakatdir.

(37) *Yangi Angliya fermasida ming juftcha tulki yashaydi. Ular har yili nasl beradi, demak, har yili bahorning o'tobli kuni borki, tulki inlari oldida ana shunday voqealar sodir bo'lib turadi* [1, 5]. - Misoldagi *har yili, har bahorning o'tobli kuni* - temporal-leksik iterativ birlik bo'lib, u harakatni an'anaviy va tabiat bilan bog'liq tarzda sodir bo'lishini aks etib, *sodir bo'lib turadi* - analitik shakli har bahor odatga aylangan, takroriy harakatni voqelantirgan.

(38) *Ular [bo'rilar] shuningdek, qo'y go'shtiniyam yemaydi, ammo goho-gohida qo'ylarni ermak uchun bog'izlab turadi* [1, 144]. - Misoldagi *goho-gohida* leksik vositasi - harakatni vaqti-vaqti bilan takroran yuz berishini bildiradi. Ko'makchi fe'l vazifasidagi (*bo'g'izlab*) *turadi* fe'li qisqa muddatli, ammo odat tarzida takroran sodir bo'luvchi harakatni ifoda etgan.

(39) *Vaqti-vaqti bilan Loboning uvillagan ovozi eshitilib turdi* [1, 156]. - Misolda leksik-iterativlik ma'nosi berilgan bo'lib, u *vaqti-vaqti* bilan birligi orqali o'z aksini topgan. Mazkur ko'rsatkich harakatning aniq bo'lmagan vaqt oralig'ida takroran amalga oshishini bildiradi. *Turdi* - yordamchi fe'li harakatning odatiylikni xarakterlaydi.

V. payt ravishi + -ar suffiksi:

Tahlil qilinadigan (40) misolda iterativlik - *tushlarda* payt ravishi hamda *-ar* suffiksi orqali o'z ifodasini topgan. Mazkur payt ravishi takrorlanib turuvchi, odatga aylangan ish-harakatni voqelantirgan. Shuningdek, fe'l o'zagiga qo'shib kelgan *-ar* suffiksi ham takroriylik ma'nosini kuchaytirgan. Taqqoslang:

(40) *Shu sababliyam yo'rg'a yaqin-atrofdagi tushlarda paydo bo'lib, biron xayf-xatar yo'qligiga ishonch hosil qilgachgina buloqqa suv ichgani kelardi* [1, 78].

VI. fe'l semantikasi:

Yuqorida aytib o'tganimizdek, aspektual vaziyat jumla tarkibidagi turli leksik, grammatik, kontekstual va boshqa vositalar ta'sirida yuzaga keladi. Aynan shunday aspektual vaziyat navbatdagi misollarda ifoda etilgan, ya'ni (41), (42)dagi iterativlik - fe'l semantikasi yordamida hosil bo'lgan:

(41) *Kakliklar endi qo'l uzatsa yetguday yaqin qoldi. Och-nahorlik, ov shavqidan silovsinning a'zoyi badani dag'-dag' qaltiradi* [1, 225]. - Misoldagi harakatning takroriylikni *qaltiramoq* fe'lining leksik semantikasidan bilish mumkin, chunki mazkur fe'l ko'p marta yoki ketma-ket takroriy sodir bo'luvchi harakatni bildiradi.

(42) *[Ayiq] Bir panjasini yalab, ikkinchisini idish ichida yurgizdi, shu taxlit idish to fabrikadan chiqqanday top-toza bo'lmaguncha bu jarayonni takrorlayverdi* [1, 315-316]. - Gapda leksik-iterativlikni kuzatish mumkin, chunki ayiq idishni yalab tozalash harakatini ko'p marta, takroriy bajargan va bu harakatlar umumiy tarzda *takrorlamoq* fe'li orqali o'z ifodasini topgan.

VII. leksik vosita + fe'l semantikasi:

So'nggi misolimizdagi iterativlikni yuzaga kelishida leksik vosita hamda fe'l semantikasi xizmat qilgan:

(43) *Bu yerga ko'p kunlar qatnab, tulki bolalarining qanday o'sayotganini kuzatdim* [1, 128]. - Misoldan ko'rinib turibdiki, *ko'p kunlar* - leksik birligi - harakatning bir necha marta uzluksiz takroriylikiga ishora qilgan, jumla tarkibidagi *qatnamoq* fe'li semantikasida subyektning muayyan nuqtaga borib-kelish semasi mavjud, ya'ni bunday harakat odatiylik, takroriylik xarakteriga egadir.

Qisqa qilib aytganda, yuqorida tahlil ostiga olingan barcha misollarda takroriy aspektual ma'noga ega bo'lgan harakat berilgan. Quyida ushbu takroriylik ma'nosini yuzaga keltiruvchi vositalarning umumiy tavsifini keltiramiz.

1-jadval

Iterativlik (takroriylik) ma'nosini ifodalovchi vositalarning leksik-semantik tavsifi

Leksik vosita	So'z turkumi	Aspektual vaziyat turi	Semantik tavsif / Misol
bir necha kun	Ravish birikmasi	Iterativ (epizodik)	Harakat bir necha kunda sodir bo'lgan: <i>Urush bir necha kun davom etdi.</i>
bir necha marta bir necha bor	Ravish birikmasi	Iterativ (ko'p martalik)	Harakat ko'p marta takrorlangan: <i>Bir necha marta yozdim.</i>
har gal	Ravish birikmasi	Iterativ (regulyar, har safar)	Harakat har bir vaziyatda takrorlanadi: <i>U har gal uxlab qoladi.</i>
yana	Ravish	Iterativ (anaphorik)	Harakat avval ham bo'lgan, yana sodir bo'lmoqda: <i>Yana tong otdi.</i>
hamisha	Ravish	Iterativ (doimiy)	Harakat hech to'xtamasdan takrorlanadi: <i>Yozda hamisha havo issiq bo'ladi.</i>
tez-tez	Takror ravish	Iterativ (yuqori chastotali)	Harakat juda ko'p takrorlanadi: <i>Bahorda tez-tez yomg'ir yog'adi.</i>
ko'p	Ravish	Iterativ / intensiv	Harakat kuchli takrorlanadi: <i>G'alabaga erishi sh uchun ko'p kurashdi.</i>
ba'zan	Ravish	Iterativ (noaniq)	Harakat vaqti-vaqti bilan sodir bo'ladi: <i>Ba'zan quyosh chaqnaydi.</i>
qayta-qayta	Takror ravish	Iterativ (intensiv takroriylik)	Juda ko'p marta qayta sodir bo'lgan: <i>U mo'ljalni aniq olish uchun qayta-qayta urindi.</i>

har kuni	Ravish birikmasi	Iterativ (regulyar)	Harakat har kuni sodir bo'ladi: <i>U har kuni sport bilan shug'ullanadi.</i>
ertalab	Ravish	Iterativ / vaqt ko'rsatkichi	Harakat ertalab sodir bo'ladi: <i>U ertalab darsga boradi.</i>
kechqurun	Ravish	Iterativ / vaqt ko'rsatkichi	Harakat kechqurun sodir bo'ladi: <i>Biz kechqurun sayr qilamiz.</i>
kechasi	Ravish	Iterativ / vaqt ko'rsatkichi	Harakat kechasi sodir bo'ladi: <i>Abror kechasi ishlaydi.</i>
har yili	Ravish birikmasi	Iterativ (regulyar)	Harakat har yili takrorlanadi: <i>U har yili sayohatga chiqadi.</i>
kechalari	Ravish	Iterativ (vaqt doirasida)	Harakat kechqurun muntazam sodir bo'ladi: <i>Kechalari chiroqlar yonadi.</i>
oqshomlari	Ravish	Iterativ	Harakat oqshomda takror sodir bo'ladi: <i>Oqshomlari dars tayyorlaydi.</i>
kunduzlari	Ravish	Iterativ	Harakat kunduzda takror sodir bo'ladi: <i>Oyim kunduzlari ishlaydi.</i>
har bahor / qish	Ravish birikmasi	Iterativ (fasliy regulyar)	Harakat har mavsumda sodir bo'ladi: <i>Har qishda ayiqlar uxlaydi.</i>
har tong	Ravish birikmasi	Iterativ (kunlik regulyar)	Harakat har tongda sodir bo'ladi: <i>Har tong osmonga quyosh chiqadi.</i>

Keltirilgan jadvalda o'zbek tilida takroriylik ma'nosini ifodalovchi vositalarni leksik-semantik jihatdan tavsiflash natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Misollar tarkibida tahlil qilingan *bir necha kun, bir necha marta (bor), har gal, tez-tez, qayta-qayta, har kuni, har yili, har bahor, har tong* leksik ko'rsatkichlari - tuzilish jihatidan ravish birikmalarini hosil qiladi.

2. *Yana, hamisha, ba'zan, ertalab, kechqurun, kechasi, kechalari, oqshomlari, kunduzlari* - ravishlari tuzilish nuqtayi nazaridan sodda shakllardir.

3. Biz tahlilga tortgan barcha vositalar shaklan xilma-hil bo'lsa-da, ammo ular ma'no va vazifasiga ko'ra o'xshashdir, chunki ularning barchasi ish-harakatning takroriy bajarilishini bildiradi.

4. Misollar tarkibidagi *turmoq* fe'li ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanganda ish-harakatning takroriylikni ifoda etsa, shuningdek, *qaltiramoq, takrorlamoq* fe'llari o'z leksik-semantikasida muayyan harakatni qayta-qayta takrorlanish ma'nolarini mujassam qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. E. Seton-Tompson. Yovvoyi yo'rg'a (T. Murod tarjimasi). - Toshkent. 2018. - 248 b. (**Seton-Thompson, E.** *Wild Runner*. Translated by T. Murod. Tashkent, 2018. 248 p.)
2. Muminova A. O. Hozirgi zamon nemis va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aspektual semantikasi. Filol. fan. nomz. diss. – Samarqand, 2021. – 151 b. (**Muminova, A. O.** *Aspectual Semantics of Motion Verbs in Modern German and Uzbek Languages*. Candidate of Philological Sciences dissertation. Samarkand, 2021. 151 pages.)
3. Бондарко А. В. Теория значения в системе функциональной грамматики: На материале русского языка. – М.: ИЛИ РАН, 2002. – 736 с. (**Bondarko, A. V.** *The Theory of Meaning in the System of Functional Grammar: Based on the Material of the Russian Language*. Moscow: Institute of Linguistics, Russian Academy of Sciences (ILI RAN), 2002. 736 pages.)
4. Лингвистический энциклопедический словарь Сов. энциклопедия - М.: Директмедиа Пабблишинг, 2008. - 5987 с. (*Linguistic Encyclopedic Dictionary*. Soviet Encyclopedia – Moscow: Directmedia Publishing, 2008. – 5987 p.)

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Furkatova Mahliyo,
Phd doctoral student,
Samarkand State University
Samarkand region, Samarkand city
kumushfurkatova20222@gmail.com

A STUDY OF NOUN GRAMMATICAL CATEGORIES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

ABSTRACT

The grammatical category of nouns represents one of the fundamental components of language structure in both Uzbek and English. This study examines the similarities and differences in the grammatical categories of nouns in these two languages, focusing on aspects such as number, case, possessiveness, and definiteness. While Uzbek, as an agglutinative language, expresses grammatical relations mainly through suffixes, English relies more on word order and auxiliary elements. The comparative analysis reveals that despite certain universal features, the systems differ significantly in their morphological and syntactic realization. Understanding these distinctions contributes to more effective language learning and helps prevent grammatical interference. The findings highlight the importance of integrating comparative approaches in teaching grammar in multilingual contexts.

Keywords: noun, grammatical category, Uzbek language, English language, number, case, possessiveness, comparative analysis.

Фуркатова Махлиё,
докторант (PhD),
Самаркандский государственный университет
Самаркандская область, город Самарканд
kumushfurkatova20222@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Грамматические категории существительного являются важной частью структуры как узбекского, так и английского языков. В данном исследовании проводится сравнительный анализ грамматических категорий существительных в этих языках с акцентом на число, падеж, притяжательность и определённость. Узбекский язык, являясь агглютинативным, выражает грамматические отношения преимущественно с помощью аффиксов, тогда как в английском языке большую роль играют порядок слов и вспомогательные средства. Результаты сравнительного анализа показывают, что при

наличии общих черт системы существенно различаются по морфологическому и синтаксическому выражению. Понимание этих различий способствует более эффективному изучению языков и предотвращению грамматической интерференции.

Ключевые слова: существительное, грамматическая категория, узбекский язык, английский язык, число, падеж, притяжательность, сравнительный анализ.

Furqatova Mahliyo,
tayanch doktoranti
Samarqand davlat universiteti
Samarqand viloyati, Samarqand shahri
kumushfurkatova20222@gmail.com

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OTLARNING GRAMMATIK KATEGORIYALARINI O'RGANISH

ANNOTATSIYA

Otning grammatik kategoriyalari o'zbek va ingliz tillari tuzilishining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu tadqiqot har ikki tilda otlarning grammatik kategoriyalarini qiyosiy tahlil qiladi, xususan, son, kelishik, egalik va aniqlik kabi jihatlarga e'tibor qaratadi. O'zbek tili agglutinativ til sifatida grammatik munosabatlarni asosan qo'shimchalar orqali ifodalasa, ingliz tilida bu jarayon ko'proq so'z tartibi va yordamchi vositalar orqali amalga oshiriladi. Qiyosiy tahlil natijalari umumiy o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, ularning morfologik va sintaktik ifodalanishida sezilarli farqlar borligini ko'rsatadi. Ushbu farqlarni o'rganish til o'rganishni samaraliroq qiladi hamda grammatik interferensiyaning oldini olishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ot, grammatik kategoriya, o'zbek tili, ingliz tili, son, kelishik, egalik, qiyosiy tahlil.

The study of grammatical categories plays a central role in understanding the structural organization of any language. Grammatical categories not only define the forms and functions of words, but also reveal the underlying principles of how languages encode meaning, manage syntactic relations, and convey semantic nuances. Among different parts of speech, the noun holds a particularly important position, as it serves to denote objects, concepts, phenomena, and entities of both the tangible and abstract world. Nouns are essential in sentence construction because they often function as subjects, objects, and complements, making them crucial for communication and comprehension. The grammatical categories of nouns—such as number, case, possession, and definiteness—reflect how languages encode relationships between words, distinguish between singular and plural entities, mark syntactic roles, and indicate ownership or specificity. In modern linguistics, comparative analysis of languages has become an essential method for identifying both universal features shared by many languages and language-specific characteristics that distinguish one language from another. Such analyses are not only theoretical but also have practical applications in language teaching, translation, and computational linguistics. Comparative studies allow linguists to uncover patterns of similarity and difference, identify potential sources of language interference, and develop strategies to enhance second language acquisition. For instance, understanding how nouns function in one

language can help learners predict potential challenges when learning a typologically different language.

Uzbek and English, belonging to different language families and typological groups, demonstrate significant differences in their grammatical systems. Uzbek is a Turkic, agglutinative language, where grammatical meanings are primarily expressed through suffixation. This allows a single word to encode multiple grammatical categories simultaneously, such as number, case, and possession. For example, the Uzbek noun *kitoblarimizdan* ('from our books') contains markers for plural (*-lar*), first-person plural possession (*-imiz*), and ablative case (*-dan*) all in one form. In contrast, English is an Indo-European, analytical language that relies more on word order, auxiliary elements, and prepositions to express grammatical relationships. In English, the equivalent meaning is expressed through multiple separate words: *from our books*. This typological distinction illustrates how language structure influences not only word formation but also syntactic strategies in sentence construction. The comparison of noun grammatical categories in Uzbek and English provides valuable insights into how these languages structure meaning, organize syntactic relations, and communicate semantic information. Such analysis is especially important in the context of foreign language learning, where differences between a learner's native language and the target language often lead to interference, errors, and overgeneralizations. For example, Uzbek learners of English may struggle with the use of articles (*a, an, the*), as Uzbek does not have a formal category of definiteness. Similarly, English speakers learning Uzbek may initially find it challenging to correctly apply multiple case suffixes or possessive markers. By examining similarities and distinctions in noun categories, learners can develop a deeper understanding of both languages, increase their metalinguistic awareness, and improve overall linguistic competence. Comparative analysis also helps teachers design targeted pedagogical interventions, such as contrastive exercises and translation-based tasks, which highlight critical differences and potential areas of difficulty. Furthermore, such studies contribute to the broader field of linguistics by demonstrating how universal linguistic categories are manifested differently across languages and how typological features shape grammatical organization. Therefore, this study aims to systematically analyze the grammatical categories of nouns in Uzbek and English, highlight their similarities and differences, and emphasize the importance of comparative approaches in language teaching and learning. It also seeks to provide practical insights for language educators, curriculum designers, and learners by clarifying how structural variations in noun systems can influence comprehension, production, and acquisition in multilingual contexts. By understanding these differences, learners can minimize negative transfer from their native language and utilize positive transfer to enhance communicative competence, ultimately fostering more accurate and fluent language use.

Scholars have emphasized that nouns, as a core part of speech, carry essential grammatical meanings that are expressed differently across languages. These differences are often linked to the typological classification of languages, particularly the distinction between agglutinative and analytical systems [1, B.15]. In English linguistics, the grammatical categories of nouns—such as number, case, and possession—have been extensively analyzed. Researchers note that the English noun system is relatively simplified compared to many other languages, with limited inflectional morphology and a strong reliance on syntactic structures.

For example, the category of case is mainly expressed through word order and prepositions rather than morphological changes [2, B.48]. The possessive category, typically marked by the apostrophe + "s", is considered one of the few remaining inflectional features in English nouns [3, B.73].

In contrast, Uzbek linguistics highlights the richness of noun morphology due to its agglutinative nature. Uzbek nouns express grammatical relations through a system of suffixes, including categories of number, case, and possession. Studies show that Uzbek has a well-developed case system, where each case ending conveys specific syntactic and semantic relations [4, B.56]. The category of possession is also morphologically marked and varies according to person and number, which makes it more complex than in English [5, B.91]. Comparative linguistic research has focused on identifying similarities and differences between languages to improve language teaching methodologies. Scholars argue that comparing grammatical categories across languages enhances learners' understanding and reduces interference errors [6, B.39]. In the case of Uzbek and English, the main differences lie in the expression of grammatical meanings: Uzbek uses affixation, whereas English relies more on fixed word order and auxiliary elements [7, B.64]. Furthermore, modern approaches to language teaching emphasize the importance of contrastive analysis. This method helps learners recognize both positive and negative transfer between their native language and the target language. Studies confirm that awareness of grammatical differences, particularly in noun categories, significantly improves learners' accuracy and communicative competence [8, B.27]. Overall, the existing literature demonstrates that while the grammatical categories of nouns in Uzbek and English share some universal features, they differ considerably in form and function. These differences underline the importance of comparative analysis in both theoretical linguistics and practical language teaching [9, B.62]. This study employs a qualitative comparative research methodology to analyze the grammatical categories of nouns in Uzbek and English languages. The primary aim is to identify similarities and differences in the expression of grammatical meanings such as number, case, possession, and definiteness, as well as to determine their functional roles in both languages.

The research is based on a descriptive and analytical approach, which involves the systematic examination of linguistic data from both Uzbek and English. Examples of noun usage were selected from academic grammars, textbooks, and authentic language materials to ensure the reliability and relevance of the analysis [1, B.22]. These examples were then categorized according to their grammatical features and compared across the two languages. A contrastive analysis method is applied as the central research tool. This method allows for the identification of structural and functional differences between the two languages, particularly in terms of morphological and syntactic expression. Uzbek noun forms were analyzed with a focus on suffixation and inflectional patterns, while English noun forms were examined in relation to word order, auxiliary elements, and limited inflection [2, B.47]. In addition, the study utilizes elements of structural and functional analysis. The structural aspect focuses on the formal markers of grammatical categories, whereas the functional aspect examines how these categories operate within sentence structures and convey meaning in context [3, B.58]. This dual approach provides a more comprehensive understanding of the noun systems in both languages. The research also incorporates elements of comparative linguistics to interpret the findings in a broader theoretical framework. By comparing two typologically different

languages—Uzbek as an agglutinative language and English as an analytical one—the study highlights how language type influences the realization of grammatical categories [4, B.36]. Overall, the chosen methodology ensures a systematic and in-depth analysis of noun grammatical categories, allowing for clear identification of both universal features and language-specific characteristics, as well as their implications for language learning and teaching [5, B.74].

Grammatical Category	Uzbek	English	Comments / Differences
Number	Plural suffix <i>-lar / -ler</i>	Plural suffix <i>-s / -es</i> , irregular forms	Uzbek plural formation is more regular; English has many irregulars [1, B.33]
Case	Nominative, genitive, dative, accusative, locative, ablative (suffixes)	Mainly pronoun cases; nouns rely on word order and prepositions	Uzbek uses explicit morphological markers; English uses syntactic structures [2, B.51]
Possession	Possessive suffixes agreeing with person/number	Apostrophe + <i>-s</i> , or <i>of</i> construction	Uzbek is morphologically richer; English uses auxiliary structures [3, B.67]
Definiteness	Expressed via context, word order, or lexical means	Articles (<i>a/an, the</i>)	English has a clear grammatical category of definiteness; Uzbek lacks articles [4, B.42]

Table 1. Comparative Analysis of Noun Grammatical Categories in Uzbek and English.

The comparative analysis of noun grammatical categories in Uzbek and English reveals both significant similarities and notable differences in their structure and usage. The findings are organized according to the main grammatical categories: number, case, possession, and definiteness. Firstly, the category of number exists in both languages and is used to distinguish between singular and plural forms. In English, plurality is typically marked by the suffix *-s* or *-es*, with some irregular forms. In Uzbek, the plural form is regularly expressed by the suffix *-lar / -ler*. Although both languages share this category, Uzbek demonstrates greater consistency in plural formation, whereas English includes numerous exceptions and irregularities [1, B.33]. Secondly, the category of case shows a major difference between the two languages. Uzbek has a well-developed case system, including nominative, genitive, dative, accusative, locative, and ablative cases, all expressed through suffixes. These case endings clearly indicate syntactic relationships within a sentence. In contrast, English has a very limited case system, mainly

Mazkur maqolada okkazional frazeologizmlarning lingvistik tabiati, ularning yuzaga kelish omillari hamda matn tarkibida tutgan o'рни tahlil qilinadi. Muallif frazeologik birliklarning an'anaviy va individual (okkazional) ko'rinishlari o'rtasidagi farqlarni ochib berib, okkazional frazeologizmlarning nutq jarayonida muallif uslubini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslaydi. Shuningdek, maqolada bunday birliklarning modifikatsiya usullari – semantik, struktur va stilistik o'zgarishlar orqali yangicha ma'no va ifoda kasb etishi misollar yordamida ko'rsatib beriladi. Tadqiqot davomida okkazional frazeologizmlarning badiiy matn ekspressivligini oshirish, obrazlilikni kuchaytirish va o'quvchi e'tiborini jalb etishdagi vazifalari yoritiladi. Xulosa sifatida, ushbu birliklar tilning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim vosita ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: okkazionallik, frazeologizm, okkazional frazeologizm, modifikatsiya, invariant, uzuallik varianti, okkazional variant, nutq vaziyati, komparativ frazeologizm, denotativ ma'no, konnotativ ma'no.

Kilichboyeva Khurshida,
teacher

Oriental University
Samarkand Campus, Department of Languages 1
xurshida19832183@gmail.com

ON THE NATURE, MODIFICATION, AND TEXTUAL RELATIONS OF OCCASIONAL PHRASEOLOGICAL UNITS

ABSTRACT

This article examines the linguistic nature of occasional phraseological units, identifies the factors contributing to their formation, and determines their functional significance within the structure of a text. Particular attention is paid to distinguishing between traditional and

individual-authorial (occasional) forms of phraseological units. Furthermore, the article demonstrates through examples how such units acquire new meaning and expression through modification techniques - namely semantic, structural, and stylistic transformations. In the course of the research, the functions of occasional phraseological units in enhancing the expressiveness of literary text, intensifying imagery, and attracting the reader's attention are highlighted. In conclusion, it is emphasized that these units constitute an important means of expanding the creative potential of language.

Keywords: occasionality, phraseological unit, occasional phraseological unit, modification, invariant, usual variant, occasional variant, speech situation, comparative phraseological unit, denotative meaning, connotative meaning.

Киличбоева Хуршида,

преподаватель

Восточный университет

Самаркандский кампус, факультет языков 1

khurshida19832183@gmail.com

О ПРИРОДЕ, МОДИФИКАЦИИ И ВЗАИМОСВЯЗИ С ТЕКСТОМ СЛУЧАЙНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается лингвистическая природа окказиональных фразеологических единиц, выявляются факторы их формирования, а также определяется их функциональная значимость в структуре текста. Особое внимание уделяется разграничению узуальных и индивидуально-авторских (окказиональных) форм фразеологизмов. Обосновывается роль окказиональных фразеологических единиц как важного средства формирования авторского стиля в речевой деятельности. На основе анализа примеров показано, что данные единицы приобретают новые семантические и экспрессивные характеристики посредством различных типов модификации — семантической, структурной и стилистической. В ходе исследования раскрывается их функция в усилении экспрессивности художественного текста, повышении образности и активизации читательского восприятия. В заключение делается вывод о том, что окказиональные фразеологизмы выступают как значимый инструмент расширения креативного потенциала языка.

Ключевые слова: окказиональность, фразеологическая единица, окказиональный фразеологизм, модификация, инвариант, узуальный вариант, окказиональный вариант, речевая ситуация, компаративный фразеологизм, денотативное значение, коннотативное значение.

XXI asrning, ayniqsa, keyingi o'n yilliklarda jahon tilshunosligida frazeologizmlarni turli: strukturaviy-semantik, funksional-pragmatik, lingvokulturologik, kognitiv aspektlarda o'rganish jarayoni faollashganligini kuzatish mumkin. Ilmiy qiziqish frazeologizmlarning kelib chiqishi, frazeologik birliklarning so'z-komponentlarining o'zaro bog'liq ma'nolari, barqaror so'z birikmalari va gaplarning semantik tuzilishi va ichki shakli kabi masalalar bilan bog'liq.

Frazeologik birliklarni shakllanilishi masalalariga bo'lgan ilmiy qiziqish, ya'ni, til frazeologizmlarining tuzilishi va semantikasini individual mualliflik frazeologizmlar yaratish jarayonlarida o'zgartirish masalalariga oid ilmiy izlanishlar ko'paymoqda. Ko'rinib turibdiki, tilshunoslikda lisoniy birliklarning nutqiy voqelanishini ilmiy asoslash, til xazinasidan amaliy muloqot faoliyatida foydalanish samaradordorligini oshirish, qo'llanish ko'lamini kengaytirish muammolarini o'rganish zarurati davrning o'zi taqoza etmoqda. Bu esa etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalolingvistika, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya, kompyuter lingvistikasi, korpus tilshunosligi kabi zamonaviy fan paradigmalari rivojlanmoqda. Shu yo'nalishlar tahlil metodologiyasi asosida lisoniy birliklarning amaliy voqelanishi, nutqiy faollashuvi va konseptuallashuvini tadqiq etish amalga oshirilmoqda. Bu esa mavzuning zamonaviy tilshunoslik bilan bog'liqligini belgilaydi.

Tilda frazeologik birliklarni o'zgartirishning bir usulini – frazeologizmlarning qo'llash vosita va usullarini semantik-pragmatik tadqiq etish alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi. Frazeologiyada transformatsiya jarayonlarini tizimli o'rganish zarurati, bu jarayonlar frazeologik tizimning dinamik holatini va tilning rivojlanishini ta'minlaydi. Frazeologik birliklarni okkazional tarzda o'zgartirish usullarining xususiyatlarini (shartlarini, mexanizmlarini, natijalarini) tasvirlash, bir tomondan, okkazional frazeologizmlarning ekspressiv belgi sifatida pragmatik imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi, chunki ular yorqin ifoda vositasi hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, bu jarayon til egalarining kreativ nutq yaratuvchi qobiliyatlarini, ya'ni o'z fikrlarini eng aniq va to'liq ifodalashga intilayotgan til foydalanuvchilarining qobiliyatlarini ko'rsatadi. Bu orqali ular atrof-muhit hodisalariga nisbatan baho va ekspressivlikni maksimal darajada aks ettiradilar.

Okkazional so'z deganda, odatda umumiy til me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan, shaxsiy (individual) tarzda qo'llanilgan birliklar tushunilsa [15:91], u holda okkazional frazeologizm ham – o'ziga xos, g'ayrioddiy, keng omma orasida faol ishlatilmaydigan frazeologik birliklar deb tushuniladi. Okkazional frazeologizmlar o'zining shakl va mazmuni jihatidan odatdagi til birliklaridan farq qiladi. Masalan, quyidagi misolda frazeologik birlikning tarkibi, ma'nosi va obrazlilik jihatidan farqi yaqqol ko'rinadi. Masalan: *gap xaltasi ochilib ketmoq* - bu ibora shaxs haqida ilgari noma'lum bo'lgan, maxfiy ma'lumotlarni ochiqlash, uning asl niyati yoki harakatlari haqida aytishni bildiradi.

Okkazional frazeologizmlarning asosiy xususiyati, ularni frazeologiya tarkibiga kiritishga imkon beradigan, til prototiplariga mustahkam bog'liqlikdir. Okkazional frazeologizm doimo til frazeologizmidan hosil bo'ladi. Okkazional frazeologizm – bu o'zgartirilgan til frazeologizmi. Agar lisoniy frazeologik birlik bilan bog'lanish saqlanmasa, okkazional frazeologizm sifatida tanilmaydi, nutqda (matnda) aniqlanmaydi. Lisoniy frazeologizmlarining belgilari okkazional frazeologizmni aniqlashda muhimdir, chunki ular asosiy til frazeologizmida namoyon bo'ladi; frazeologizmlarning okkazional xususiyati faqat barqaror til birligi asosida seziladi. Shuning uchun, okkazional frazeologizmning lisoniy frazeologik birlik bilan bog'liqligini barqaror, deb aytish mumkin.

Frazeologik transformalarni okkazional tabiati (maqomi)ni belgilovchi eng muhim belgilardan biri – nutq harakati paytida vujudga kelgan yangilanish jarayonidir. Okkazional frazeologik birliklarning nutq mahsuli ekanligini tavsiflashda tabiiy ravishda Ferdinand de Sossyurning til – nutq dixotomiyasi konsepsiyasiga murojaat qilamiz. Agar til – bu shaxslar ongida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan grammatik va leksik birliklar jamlanmasi, ya'ni so'zlar

va frazeologizmlardan iborat va ma'noli ifodalarning yaratilish qoidalari tizimi bo'lsa, unda nutq – bu til imkoniyatlaridan shaxsning fikrlarini ifodalash uchun amalda ishlatish jarayonidir (shu jumladan so'zlash jarayonlari, ifoda aktlari). Shunday qilib, nutq – bu tilning vujudga chiqishidir, va tilda mavjud bo'lgan narsalari nutqda ham mavjud bo'ladi. Til birliklari – bu “til inventariga” kiritilgan birliklar; tildagi frazeologizmlar esa bu jamiyat a'zolari ongida mental xotirada saqlanadigan va turli nutqiy vaziyatlarda odamlar tomonidan qo'llaniladigan turg'un birikmalardir.

Okkazional frazeologizmlar (boshqa okkazional birliklar kabi) til inventariga kirmaydi, til egalarining nutqiy tajribasida avvalgi analogga ega emas, ko'pchilik odamlarda og'zaki yoki yozma nutqda muntazam ravishda ishlatilmaydi. Shunga qaramay, okkazional birliklar til birliklari bilan birga turli diskurslarda namoyon bo'ladi. Bunday noodatiy ifoda okkazional frazeologizmlar nutq birliklariga aylanadi. Ular til fakti emas, balki nutq hodisasi hisoblanadi va shu bois nutqqa xos belgisiga ega bo'ladi. Lisoniy frazeologizmlar jamiyat a'zolari tomonidan tushunarli bo'lgan an'anaviy birlik sifatida zamonaviy frazeologiyaning korpusini tashkil etadi va frazeologik lug'atlarga kiritilgan bo'ladi. Okkazional frazeologizmlar esa til frazeologizmlaridan farqli ravishda, oddiy, an'anaviy birliklar sifatida tan olinmaydi va shuning uchun individual, noodatiy, til birligi bo'lmagan, deb tavsiflanadi. **Nutqiy (yoki okkazional) frazeologizmlar, til birliklari bo'lmagan holda ham, tildagi frazeologik birliklar bilan bog'liq bo'lib, ularning “transformatsiyasi mahsuli” hisoblanadi.** Shu sababli, bunday holatlarda **individual-muallif ijodiy jarayoni** doirasida yuzaga keladigan **frazeologik shakllanish zanjirini** ko'rib chiqish maqsadga muvofiq: **invariant** → **uzuallik varianti** → **okkazional variant** → **okkazional frazeologizm**.

Frazeologik invariant – bu **til frazeologizmi**, ya'ni til egasi tomonidan o'zlashtirilgan milliy lug'atning birligi. Bu – til egalariga **tanish bo'lgan**, ularning **xotirasida mavjud** bo'lgan frazeologik birlik bo'lib, **formal va ma'noviy jihatdan bir butun belgi** sifatida lug'atlarda qayd etilgan. Nutqda biror shaxs yoki hodisani nomlash, tavsiflash yoki baholash uchun tanlab olingan frazeologik invariant, **uzuallik varianti** ko'rinishida amalga oshiriladi (ya'ni, til me'yorlariga mos, o'zgartirilmagan shaklda). Uzuallik varianti o'zining mazmuniy mohiyati va tarkibiy komponentlari jihatidan invariantga aynan mos keladi. Biroq, frazeologik invariant (yoki tildagi frazeologik birlik) nutqda faqat bitta emas, balki bir nechta variantlarda ifodalanishi mumkin. Tildagi frazeologik birliklarning variativligi holatlari ko'plab frazeologlar tomonidan qayd etilgan. Hattoki, A. I. Molotkov nutqdagi frazeologik birliklarning variativligini – ularning kategorial belgilaridan biri deb hisoblaydi [8:10]. Agar invariantda frazeologik birliklarga xos semantik va strukturaviy belgilar majmuasi eng ravshan ifodalangan bo'lsa, variantlarda esa bu elementlarning semantik yoki struktura jihatidan o'zgarishi mumkin.

Modifikatsiyalar frazeologizmlarning fonetik, derivatsion, leksik, sintaktik-struktur, semantik kabi deyarli barcha til xususiyatlarini qamrab olishi mumkin. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, tilshunoslikka doir adabiyotlarda variativlik chegaralari bo'yicha aniq bir umumlashma fikr yo'q. Bu boradagi bahslar asosan: frazeologik birlikdagi leksik komponentlar almashtirilgan holatlarni variant deb hisoblash mumkinmi yoki yo'qmi? masalaga borib taqaladi. Ba'zi tadqiqotlarda frazeologik variativlik juda tor ma'noda tushuniladi. Masalan, N. N. Amosova faqat struktural jihatdan ikkinchi darajali o'zgarishlar: komponentlar o'rinini almashtirish, ularning so'z shakllarini o'zgartirish, yordamchi elementlarni almashtirish, idiomaning to'liq yoki qisqartirilgan shakllarini qo'llash kabi modifikatsiyalarni variantlar, deb

hisoblaydi [8:100]. A. M. Babkin esa leksik komponentlar almashtirilgan hollarda “frazeologik variant” tushunchasini nojoiz deb hisoblaydi[2:84]. Shu fikrni A. I. Fyodorov ham qo‘llab-quvvatlaydi. Unga ko‘ra: “frazeologik birlikning komponentlarini almashtirish, uning obrazli ifodalanishini, baholovchi va uslubiy bo‘yoqlarini o‘zgartiradi”[16:20]. Shu sababli, leksik almashtirish natijasida bitta frazeologizm varianti emas, frazeologik sinonim hosil bo‘ladi. Ammo, V. M. Mokiyenko boshqacha fikr bildiradi: “Frazeologizm komponentlarining leksik jihatdan almashtirilishi har doim ham uning obrazlilik xarakterini o‘zgartirmaydi. Ko‘pincha sinonim so‘zlar almashtiriladi, bu esa obrazli ifodaning barqarorligini saqlab qoladi”[9:51]. Ko‘pincha frazeologik birlik komponentlari mavzuli soha doirasidagi leksika asosida almashtiriladi, bu esa tasviriy ifodaning nisbiy o‘xshashligini ta‘minlaydi. Masalan: “*aqlidan ozmoq*” (yoki: “*jinni bo‘lmoq*”, “*yo‘lidan adashmoq*”). Ko‘pchilik olimlar frazeologik birliklar variativligining keng qamrovini tan oladilar va o‘zgartirilgan frazeologizmlarni variant sifatida shartli ravishda e‘tirof etadilar – agar bu o‘zgarishlar tildagi frazeologik birlik (FB) semantik o‘xshashligi doirasida amalga oshgan bo‘lsa. Biroq, “frazeologik birlikning varianti” tushunchasini aniqlashdagi qiyinchiliklar, eng avvalo, FB variativlik chegaralarining noaniqligi bilan bog‘liq. Shu sababli, variant qachon yangi, mustaqil frazeologizmga aylanishini belgilovchi aniq mezonlar yo‘q.

Frazeolog olimlar til tizimida “o‘tish davriga oid”, “chekka”, ya‘ni variant va sinonim oralig‘idagi frazeologik hududning mavjudligini ta‘kidlaydilar. Bu haqda V. P. Jukov quyidagicha yozadi: “Shubhasiz, frazeologik variantlar va frazeologik sinonimlar orasida oraliq holatlar ham bo‘lishi mumkin. Bejiz emaski, “sinonimik variantlar”, “variant-sinonimlar”, “dublikat frazeologik sinonimlar” kabi atamalar yuzuga kelgan”[4:177]. So‘nggi yillarda bir qator tadqiqotlarda “variant–sinonim” qarama-qarshiligini bartaraf etish va bu ikki hodisani frazeologik belgilarning sinkretik (ya‘ni, bir necha xususiyatni birlashtiruvchi) xossalari sifatida qarash taklif qilinmoqda[3:23]. Aslida, variantlilik va sinonimiyaning farqlanishi muammosi tildagi tipik belgili birliklar (ya‘ni variantlar va sinonimlar) o‘rtasidagi chegarani belgilash masalasiga borib taqaladi.

Til birliklarining uzual (odatdagi) va okkazional (muayyan vaziyatga xos) variantlarini, shuningdek, okkazional frazeologizmlarni ajratib ko‘rsatish masalasi tilning uzual va okkazional variantlilik muammosining asl mohiyatini tashkil etadi.

Lisoniy frazeologik birliklarning okkazional variantlari (LFBOV) – bu frazeologizmlarning til egalariga noma‘lum, lug‘atlarda qayd etilmagan variantlaridir. LFBOV lisoniy frazeologik birliklar variantlar paradigmasining periferiyasida, ya‘ni me‘yordan tashqaridagi hududda joylashgan bo‘ladi. Shunga qaramay, okkazional variantlar til birliklariga o‘xshash bo‘lib, shu sababli til egalariga ular til frazeologizmlaridan kelib chiqqan hosilalar sifatida osonlik bilan tanib olinadi. Masalan, o‘zbek adabiy tilda “kalavanning uchini topmoq” iborasi “jumboqni har qilish yo‘lini topmoq” ma‘nosini bildiradi [18:235]. Yozuvchi Abdulla Qodiriy “Obid ketmon” qissasida ana shu umumtil iborasi negizida “chuvalgan ipning uchini topmoq” okkazional iborasini hosil qiladi: *...Menga qolsa, shu kecha-kunduzlarda tevaragimizdagi qishloqlarda ovozasi eshitilgan bosmachilarning biri yoki birinchisi shu Xolmirzaning kuyovi! Men chuvalgan ipning uchini endi topdim. Siz Xubbiboy, qaynatasidan ikki tanob yer olib dehqonchilik qilgali kelgan, deb laqillamang...*

Shunday qilib, **okkazional frazeologik variantlar (OFV)** – bu **til frazeologizmlarining nutqda ishlatiladigan, lekin me‘yoriy lug‘atlarda qayd etilmagan**

variantlari bo'lib, til egalarining ayrimlari tomonidan muayyan kommunikativ maqsadlarda til frazeologik birliklarini transformatsiya qilish yo'li bilan yaratiladi. Ular umuman olganda frazeologik invariant bilan semantik o'xshashlik doirasidan chiqmaydi, biroq kontekstual ma'no qo'shimchalari, shuningdek, komponent tarkibining qisman o'zgarishi bilan ajralib turadi.

Okkazional frazeologik birliklarning (OF) paydo bo'lishi muallifning ijodiy fikrini amalga oshirishi bilan bog'liq. OFning ma'nosini aniqlash, uni to'g'ri talqin qilish va anglash esa, asosan, kontekstga, ya'ni frazeologik birlikning kontekstual muhiti va u bilan kontekst elementlari o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq. Kontekstual aktualizatorlar (ya'ni, ma'no ochilishini ta'minlovchi kontekst vositalari) okkazional frazeologik birlikning ma'nosini aniqlash, uning mazmunini aniqlashtirish, konnotatsiyasi, obrazlilik va boshqa jihatlarini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik kontekst deb odatda frazeologik birlik qatnashgan matn parchasiga aytiladi, bunda frazeologizm matnning bir elementi sifatida semantik va grammatik jihatdan boshqa birliklar bilan bog'lanadi. Frazeologik birlik va uning kontekstual xususiyatlari frazeolog olimlarni qiziqtirib kelgan. M.T. Tagiyev [13], A.V. Kunin [6], T.Z. Cherdantseva [17], A.M. Melerovich [10] va boshqa tadqiqotchilar o'z ishlarida frazeologik kontekstga oid qarashlarni ilgari surishgan. A.V. Kunin frazeologik birliklarning kontekstdagi qo'llanilishini chuqur o'rganib, bu masalani funksional frazeologiya nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqan. U frazeologizmlarning kontekstda turli semantik qo'shimchalar, assotsiatsiyalar va konnotativ ohanglar hosil qiluvchi aloqalar tizimini tahlil qilgan. Olim frazeologik kontekstni quyidagicha ta'riflaydi: "frazeologik birlik va nutqiy vaziyat (yoki bu nutqiy vaziyat tilshunoslik darajasiga ko'tarilishi mumkin) orqali ajratib olinadigan yoki birlashtiriladigan matn bo'lagi bo'lib, u aktualizator tomonidan uzual yoki okkazional qo'llanilishda belgilab beriladi" [6:171].

Shuningdek, har bir kontekstda frazeologik aktualizator bo'lishi shart – bu so'z, so'z birikmasi, gap yoki gaplar guruhi bo'lib, ular kontekstdagi frazeologizm bilan semantik jihatdan bog'langan va uni uzual yoki okkazional qo'llanishda nutqqa olib kiradi. Frazeologizm va uning aktualizatori birgalikda frazeologik konfiguratsiyani tashkil etadi. Agar bu konfiguratsiya an'anaviy, odatiy bog'lanishlarga asoslangan bo'lsa, u uzual sifatida qaraladi. Ammo agar frazeologizmning tashqi bog'lanishlari buzilib, u yangi struktura va semantik shaklga kirsam yoki kontekst elementlari bilan yangi aloqalar hosil qilsa, bunday konfiguratsiya okkazional [14:162], deb baholanadi.

Frazeologik konfiguratsiyadagi aktualizatorlar ikki asosiy vazifani bajaradi:

- ✓ Frazeologizm ma'nosini aniqlaydi (identifikatsiya qiladi);
- ✓ Frazeologik semantika, konnotatsiya va obrazlilikni yuzaga chiqaradi va kuchaytiradi.

Masalan, quyidagi frazeologik konfiguratsiyada aktualizatorlar aynan mana shu funksiyalarni bajaradi: Har safar xato qilganimda o'zimni o'zim yuragimdagi afsus-nadomat doriga osolmay qiynalaman. Arqoning muncha zaif bo'lmasa, yurakdagi dor?! (Ashurali Jo'rayev)

Bu yerda "xato qilganimda", "o'zimni o'zim" kabi aktualizatorlar "afsus-nadomat doriga osolmay qiynalaman" frazeologizmining qilgan ishidan pushaymonlik va o'zida e'tiborsizlik hissini sezib, bunda vijdoni qiynalish ma'nosida qo'llanilayotganini aniqlashtiradi.

“Arqoning muncha zaif bo‘lmasa, yurakdagi dor?!” esa ushbu ma’noni kuchaytiruvchi, frazeologik ma’no elementlarini jonlantiruvchi aktualizatoridir.

FBlarning okkazional o‘zgarishlari natijasida kontekst nafaqat tilga xos mavjud semalarni, balki frazeologizmlarning ochiq va yashirin semalarini ham kuchaytiradi, ya’ni frazeologizmning ichki imkoniyatlarini ochib beradi. FBlarning boshqa matn birliklari bilan bo‘ladigan aloqalari orqali unga qo‘shimcha konnotativ ma’nolar yuklaydi. Agar frazeologizm struktura va semantik jihatdan sezilarli darajada o‘zgarsa, kontekst uning okkazional shakl sifatidagi identifikator vazifasini ham bajaradi. Bu holda kontekst tinglovchi (nutq adresatiga) okkazional frazeologizm (OF) ma’nosini anglash, uning motivatsion asosini aniqlash va uni uzual frazeologizm (UF) bilan semantik bog‘lash imkonini beradi. A.V. Kuninning ta’kidlashicha, frazeologik birlik (FB) va uning aktualizatorining kontekstual munosabati qamrovi fraza ichidagi, fraza darajasidagi va frazadan yuqori (superfrazeologik) frazeologik kontekstlar farqlanadi. Ushbu kontekstlarning har uchasi ham aniqlovchi va ta’sir kuchini oshiruvchi funksiyalarni bajara oladi [6:171]. Shuni alohida qayd etish lozimki, odatda okkazional tarzda o‘zgartirilgan frazeologizmlarning ma’nosi aynan gap yoki supergap darajasidagi kengroq kontekstlarda ochiladi.

FB va kontekst o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘zaro ikki tomonlama xarakterga ega. Frazeologizmlar kontekstga kiritilganda, kontekstual bog‘lanishlar orqali makrokontekstdan uslubiy “kuch” va butun kontekst davomida ma’no jihatidan muayyan yo‘nalishda rivojlanishda davom etadi. O‘z ma’nosini matnda aniqlashtirgan FB esa, o‘z navbatida, matnning ekspressiv-uslubiy ohangiga ta’sir ko‘rsatadi, uni yanada yorqinroq, hissiyotlarga boyroq qiladi, natijada semantik va konnotativ jihatdan uyg‘un bo‘lgan matnni shakllantiradi [5:29].

Tilshunoslikda frazeologik birliklar (FE) va kontekst masalasi nutqning yuzaga kelishi va amalga oshishida ekstralingvistik omillarga e’tibor qaratgan holda, kommunikativ-pragmatik nuqtayi nazardan ham tadqiq etiladi. Bunda lisoniy frazeologik birliklar (FB) va okkazional frazeologizmlar (OF) turli nutqiy muloqot vaziyatlarida o‘rganiladi. Bu muloqotning asosiy ishtirokchisi – ma’lum bir maqsad bilan nutq yaratadigan til egasidir. Aynan til shaxsi nutqni yaratuvchi sifatida o‘z fikr, his-tuyg‘u va tasavvurlarini ifoda etishda tilning turli birliklarini, jumladan, frazeologik birliklarni tanlash huquqiga egadir. Kontekstni ham aynan u yaratadi, bu an’anaviy stereotipga asoslangan bo‘lishi yoki mutlaqo original shaklda yuzaga kelishi mumkin. Shu asosda kontekstning ikki turi farqlanadi: lisoniy(izual) matn va nutqiy (okkazional)matn.

Kontekst va okkazional so‘z o‘rtasidagi munosabatlar muammosini eng chuqur va izchil tahlil qilgan tadqiqotchi M.S. Maleeva hisoblanadi. U bu masalaga “Leksik va sintaktik bilimning so‘z yasaliş kontekstdagi obyektivlashuvi” nomli monografiyasida [7] keng to‘xtalgan. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilar ekan, M.S. Maleeva bu borada eng aniqlik va chuqurlik bilan yondashilgan ish sifatida L.V. Saxarniyning dissertatsion tadqiqotini ajratib ko‘rsatadi [12] (Saxarnoy, 1980). Ushbu ishda muallif katta hajmdagi matnlar asosida yangi so‘zning tuzilishi bilan butun matn xarakteri o‘rtasidagi bog‘liqlik tipologiyasini aniqlashga muvaffaq bo‘lgan. Shu bilan birga, M.S. Maleeva Saxarniyning pozitsiyasidagi ayrim jihatlar hali ham muhokamali bo‘lib qolayotganini ham qayd etadi. O‘z monografiyasida M.S. Maleeva ayrim kontekstlarda yangi so‘zning yuzaga kelishini tushuntiruvchi maxsus ma’lumotlar

mavjudligini, bunday kontekstlar okkazonal soʻzning maʼnosini aniqlash va uning motivatsiyasini ochib berishdagi ahamiyatini ishonarli tarzda koʻrsatib beradi. Shu bilan birga, M.S. Maleeva, bizningcha ham toʻgʻri tarzda, kontekstga okkazonal birliklarni “yaratuvchi” vazifani yuklashga qarshi chiqadi. Chunki, uning fikricha, “aks holda kontekst yaratuvchi shaxs – insondan ajratiladi va... kontekstning oʻziga goʻyoki ijodkorlik qobiliyati berilgandek boʻladi”. U buni quyidagicha izohlaydi: “Bizningcha, toʻgʻriroq yondashuv – kontekstda shunday hosila maʼno mavjudligini tan olishdirki, bu axborot hosila birlikning yaratilishini, tanlanishini va qabul qilinishini aks ettiradi; u nafaqat muayyan hosila birlikning yuzaga kelganini qayd etadi, balki uning ishlatilishini ham izohlaydi” [7:26]. M.S. Maleeva kontekstlarning alohida bir turi sifatida okkazonal frazeologizmlilik kontekstni ajratib koʻrsatadi. Bu turdagi kontekstning oʻziga xos jihati shundaki, u yangi semantik hosila jarayonini tafsilotlar asosida tiklash, yangi birlikning yaratilish sabablarini yoki uning qoʻllanishidagi oʻziga xoslikni tushuntirish imkonini beruvchi maʼlumotni oʻz ichiga oladi

Kuzatishlarimizga asoslanadigan boʻlsak, okkazonal frazeologik birlikmalar ishlatilgan kontekstlar OFB birlikmalarining maʼnosini tushunishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, gapdagi boshqa soʻzlar frazeologik birlikmaning nimani anglatayotganini aniqlashga yordam beradi. Agar leksik okkazonalizmlar (yaʼni yangi, vaqtincha yaratilgan soʻzlar) odatda kam ishlatiladigan yoki umuman ishlatilmaydigan soʻz yasash modellari asosida, yoki hatto mavjud modellarning qasddan buzilishi orqali yaratilsa, u holda asosiy vosita sifatida morfemalar (soʻz boʻlaklari) ishlatiladi va shu boʻlaklardan yangi soʻzlar «yasaladi». Frazeologik okkazonalizmlarni (yaʼni, yangi, vaqtinchalik iboralarni) yaratishda esa, odatda, hech narsa «yasalmaydi» (yaʼni, bunday iboralar mavjud shakllarni oʻzgartirish yoki birlashtirish yoʻli bilan emas, balki boshqa yoʻllar bilan yuzaga keladi).

Okkazonal frazeologizm (yaʼni vaqtincha yaratilgan ibora) odatda tilimizda allaqachon mavjud boʻlgan frazeologik birlikma asosida paydo boʻladi. Bu yangi ibora mavjud iboraning ichki tuzilmasini (yaʼni soʻz tarkibini) oʻzgartirish orqali hosil qilinadi. Shu sababli, agar kontekstda bu yangi ibora haqida biror maʼlumot boʻlsa ham, u maʼlumot bu ibora qanday yaratilgani yoki nima sababdan yaratilganini tushuntirib bera olmaydi. Okkazonal frazeologizm (OF) yoki lisoniy frazeologik birlik (LFB) qatnashgan kontekstda (yaʼni ibora ishlatilgan gapda) baʼzida ushbu iboraning maʼnosi ochiq tarzda ifodalangan boʻlishi mumkin. Yaʼni, kontekstning oʻzi bu ibora nimani anglatishini tushuntirib beradi. Bu holat nafaqat vaqtinchalik (okkazonal) iboralar uchun, balki odatdagi, umumiy frazeologik birliklar uchun ham xos boʻlishi mumkin. Bizningcha, kontekstni okkazonal birlikni (yaʼni vaqtinchalik yaratilgan iborani) yaratadigan omil hisoblamaslik lozim, chunki okkazonal frazeologik birlik (OF) muallif tomonidan, muayyan kommunikativ vaziyatga, shaxsiy maqsad va niyatlariga qarab ijodiy tarzda yaratiladigan iboradir. Kontekst esa, oʻz-oʻzidan hech narsani “yaratmaydi”, chunki u ijodkor subyekt emas. Faqatgina gapiruvchi (yaʼni muallif yoki adresant) kontekstni shunday tarzda, yaʼni, “OFning maʼnosini tushunishga yordam beradigan axborot boʻlishi” uchun tuzish mumkin. Shuning uchun, bunday holatlarda kontekst “hal qiluvchi” deb aytish notoʻgʻri boʻladi.

Okkazonal frazeologizm (OF) kontekstdagi ayrim elementlar aktualizatorlar bilan chambarchas bogʻliq boʻladi. Aynan shu aktualizatorlar OFning yangi, oʻzgacha maʼnosini anglashga yordam beradi. Koʻplab tadqiqotchilar fikriga koʻra, **OF faqat kontekstda oʻz maʼnosini anglatadi, yaʼni uni faqat kontekst orqali tushunish mumkin.** Biroq bu fikr toʻliq

haqiqat emas, kontekstga bog'liqlik mutlaq emas. OFning yaratilishi va mavjud bo'lishida boshqa omillar ham muhim o'rin tutadi, jumladan: **frazeologik birlikning tarkibiy-semantik (struktur-semantik) modeli**, ya'ni uning tuzilishi va ma'nosi asosida yaratilgan andoza; lisoniy shaxslarning **frazeologik birliklar qanday tuzilishini, ularning variantlarini va ulardan qanday yangilik yasash mumkinligini bilishi** (ya'ni, frazeologik tafakkur va til tajribasi). Til shaxslarining frazeologik birliklarni (FB) **oddiy, tanish vaziyatlarda ishlatishga bo'lgan pragmatik moyilligi** ham katta ahamiyatga ega. Ko'plab **okkazional frazeologizmlar (OF) mavjud FB modellari asosida yaratiladi** va ular **o'z ma'no va obrazini mustaqil ravishda to'liq ifodalay oladigan birliklar** bo'lib shakllanadi. Bunday OFlar, odatda: **barqaror iboralar**, ayniqsa, **maqollar va matallar (paremiyalar)** asosida yaratiladi; ba'zida **idiomatik frazeologizmlar** asosida ham paydo bo'ladi, ammo bu kamroq uchraydi. **Gap shaklidagi OFlar esa, muallifning shaxsiy ijod mahsuli bo'lib, o'zgacha, original fikrni bildiradi.** Bunday iboralar: **mazmunan ham, tuzilishi jihatdan ham to'liq bo'ladi; atrofidagi kontekstga bog'liq bo'lmasdan, mustaqil ravishda biror vaziyatni tasvirlash yoki unga baho berish** imkoniga ega bo'ladi.

Mualliflar tomonidan yaratilgan bunday iboralar ko'pincha **muallif aforizmlari** sifatida qabul qilinadi. Ular o'zida **nasihatga xos ma'no, axloqiy-amaliy falsafani** mujassam etadi va ko'pincha **so'z o'yini (kalamбyp)** orqali **oddiy hayotiy vaziyatlarga baho yoki ta'rif** beradi.

Biroq **shuni ham tan olish kerakki**, kontekstdan butunlay mustaqil bo'lish xususiyati **faqat ayrim OF guruhiga, ya'ni muallif aforizmlariga xosdir.** Bundan tashqari, **bu "mustaqillik" ham nisbiydir.** Chunki, bunday aforizmlar **aniq bir vaziyatga javob** sifatida yuzaga keladi; aynan **shu kontekst orqali vaziyat tasvirlanadi** va aforizm **shu vaziyatga muallifning munosabati sifatida** shakllanadi.

Shunday qilib, badiiy asar kontekstiga kiritilgan okkazional frazeologizmlar (OF) o'z atrofidagi kontekst elementlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu elementlar OFning ma'nosini aniqlovchi (identifikator) va kuchaytiruvchi (intensifikator) vazifasini bajaradi. Aynan shu holat OFning kontekstga bog'liqligini, ya'ni kontekstga shartli ravishda asoslanishini namoyon qiladi.

Iqtiboslar/ Синоски/References

1. Амосова Н.Н. Английская контекстология. - Л. : Изд-во ЛГУ, 1968. - 104с.
(Амосова Н.Н. Английская контекстология. - Л. : Изд-во ЛГУ, 1968. - 104с. Amosova N.N. Angliyskiy kontekstologiya. – L.:nashriyoti LGU, 1968. – 104-b.).
2. Бабкин А. М. Русская фразеология, её развитие и источники. - Л. : Наука, 1970.- 261 с. (Бабкин А. М. Русская фразеология, её развитие и источники. - Л. : Наука, 1970.- 261 с. Babkin A.M.Russkaya frazeologiya, yeyo razvitiye I istochniki. – L.: Nauka, 1970.-261-b.).
3. Диброва Е. И. Синкретизм фразеологического знака (разграничение фразеологической синонимии и вариантности) // Фразеологическая номинация: особенности семантики фразеологизмов : межвуз. сб. науч, трудов. - Ростов н/Д. : Изд-во РГПИ, 1989. - С. 19-27. (Диброва Е. И. Синкретизм фразеологического знака (разграничение фразеологической синонимии и вариантности) // Фразеологическая номинация: особенности семантики фразеологизмов : межвуз. сб. науч, трудов. - Ростов н/Д. : Изд-во РГПИ, 1989. - С. 19-27.
- Dibrova Ye.I.Sinkretizm frazeologicheskogo znaka (razgranichniye frazeologicheskoy sinonimi I variatnosti) // Frazeologicheskaya nominatsiya: osobennosti semantiki frazeologizmov: meyvuz.sb.nauch.trudov. – Rostov n/D.:nashriyoti RGPI, 1989. – 19-27- b.).
4. Жуков А. В. О грамматической деривации фразеологизмов // Фразеологизмы в системе языковых уровней : межвуз. сб. науч, трудов. - Л. : Изд-во ЛГПИ, 1986. - С. 13-23. (Жуков А. В. О грамматической деривации фразеологизмов // Фразеологизмы в системе языковых уровней : межвуз. сб. науч, трудов. - Л. : Изд-во ЛГПИ, 1986. - С. 13-23. Jukov A.V.O grammaticheskoy derivatsii frazeologizmov // Frazeologizmi v sisteme yazykovix urovney : meyvuz.sb.nauch, trudov. L.: nashriyotiLGPI, 1986. – 13-23 b).
5. Кирсанова Н. А. Роль контекста в выявлении значения и реализации структуры фразеологизмов // Вопросы стилистики : межвуз. сб. науч, трудов. - Саратов : Изд-во СГУ, 1972. - С. 28-39. (Кирсанова Н. А. Роль контекста в выявлении значения и реализации структуры фразеологизмов // Вопросы стилистики : межвуз. сб. науч, трудов. - Саратов : Изд-во СГУ, 1972. - С. 28-39 Kirsanova N.A. Rol konteksta v viyavlenii znacheniya I realizatsii strukturi frazeologizmov // Voprosi stilistiki : meyvuz.sb.nauch.trudov. – Saratov: nash-t SGU, 1972. – 28-29- b.).
6. Кунин А. В. Фразеологическая единица и контекст // Иностранный язык в школе. - 1971. -№ 6. - С. 3-15. (Кунин А. В. Фразеологическая единица и контекст // Иностранный язык в школе. - 1971. -№ 6. - С. 3-15. Kunin A.V. Frazeologicheskaya yedinitsa I kontekst // Inostranniy yazik v shkole. – 1971. № 6. 3-15 b.).
7. Малеева М. С. Лексическая и синтаксическая объективация знания в словообразовательном контексте. - Воронеж : Изд-во ВГУ, 1983. - 128 с. (Малеева М. С. Лексическая и синтаксическая объективация знания в словообразовательном контексте. - Воронеж : Изд-во ВГУ, 1983. - 128 с. Maleeva M.S.Leksicheskaya i sintaticheskaya

obyektivatsiya znaniya v slovoobrazovatelnom kontekste. – Voronej : nash-ti VGU, 1983. 128-b.).

8. Молотков А. И. Фразеологизмы русского языка и принципы их лексикографического описания : вступительная статья // Фразеологический словарь русского языка. - М. : Русский язык, 1986. - С. 7-23. (Молотков А. И. Фразеологизмы русского языка и принципы их лексикографического описания : вступительная статья // Фразеологический словарь русского языка. - М. : Русский язык, 1986. - С. 7-23. Molotkov A.I. Frazеologizmi russkogo yazika I prinsipi ix leksikograficheskogo opisaniya: vstupitelnaya statya // Frazеologicheskii slovar russkogo yazika. – М.: Russkiy yazik, 1986. 7-23 b.).

9. Мокиенко В. М. О собственном имени в составе фразеологии // Перспективы развития славянской ономастики. - М. : Наука, 1980. - С.57-67. (Мокиенко В. М. О собственном имени в составе фразеологии // Перспективы развития славянской ономастики. - М. : Наука, 1980. - С.57-67. Mokiyenko V.M. O sobsvennom imeni v sostave frazeologii // Perspektive razvitiya slavyanskoy onomastiki. – М.: Nauka, 1980. 57-67- b.).

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Xolikulova Shoxista

Mustaqil izlanuvchi

Samarqand davlat pedagogika instituti Samarqand, O'zbekiston
shohistaxolikulova71@gmail.com

SOTSIATIV NUTQ AKTLARINING SEMANTIK KRISTALLASHUVI VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola sotsiativ nutq aktlarining semantik kristallashuvi hamda lingvopragmatik xususiyatlarini tizimli tahlil qilishga bag'ishlangan. Nutqiy aktlarni o'rganish hozirgi zamon ilmiy paradigmasida alohida fanlararo muammo sifatida e'tirof etilib, u tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, madaniyatshunoslik, ijtimoiy antropologiya, pragmatik tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika va amaliy tilshunoslik kabi qator gumanitar yo'nalishlar kesishmasida tadqiq etilmoqda. Jamiyatda ijtimoiy uyg'unlik va muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi, aksiologik xarakterga ega bo'lgan minnatdorchilik bildirish, tilak izhor etish hamda tabriklash singari ekspressiv nutqiy aktlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda mazkur nutqiy aktlarning lisoniy vositalar orqali ifodalanish mexanizmlari, ularning funksional-semantik xususiyatlari atroflicha yoritiladi. Shuningdek, nutq jarayonida sotsiativ aktlarning namoyon bo'lishi, so'zlovchi va adresat o'rtasidagi emotsional-pragmatik munosabatlarning shakllanishi kabi masalalar tahlil qilinadi. Maqolada sotsiativ nutqiy aktlarning turli kommunikativ sharoitlarda, muayyan tamoyillar asosida va xilma-xil vaziyatlarda turli maqsadlar bilan qo'llanishi, ularning semantik hamda pragmatik xususiyatlari ilmiy asosda umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: lingvopragmatika, lokutiv nutqiy akt, illokutiv nutqiy akt, perlokutiv akt, kommunikativ akt, nutq vaziyati, baho, perceptor, predikat, operator, eksperienser, propozitsiya.

Kholikulova Shokhista,

Independent researcher

Samarkand State Pedagogical Institute

Samarkand, Uzbekistan

shohistakholikulova71@gmail.com

SEMANTIC CRYSTALLIZATION AND LINGUOPRAGMATIC CHARACTERISTICS OF SOCIATIVE SPEECH ACTS

ABSTRACT

This article is devoted to the systematic analysis of the semantic crystallization and linguopragmatic characteristics of sociative speech acts. The study of speech acts is recognized as a distinct interdisciplinary problem within the contemporary scientific paradigm, being investigated at the intersection of numerous humanities disciplines including linguistics, sociology, psychology, ethnography, cultural studies, social anthropology, pragmatic linguistics, sociolinguistics, psycholinguistics, and applied linguistics. Expressive speech acts, such as expressing gratitude, expressing wishes and congratulating, which serve to ensure social harmony and balance in society and have an axiological character, are of particular importance. This research provides a comprehensive account of the mechanisms through which such speech acts are expressed via linguistic means, as well as their functional-semantic characteristics. Additionally, the article examines the manifestation of sociative acts in the course of speech and the formation of emotional-pragmatic relations between the speaker and the addressee. The article offers a scientifically grounded generalization of the use of sociative speech acts across various communicative contexts, on the basis of specific principles, and in diverse situations for different purposes, along with their semantic and pragmatic characteristics.

Keywords: linguopragmatics, locutionary speech act, illocutionary speech act, perlocutionary act, communicative act, speech situation, evaluation, perceptor, predicate, operator, experiencer, proposition.

Холикулова Шохиста,

Независимый исследователь

Самаркандский государственный педагогический институт

Самарканд, Узбекистан

shohistakholikulova71@gmail.com

СЕМАНТИЧЕСКАЯ КРИСТАЛЛИЗАЦИЯ И ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СОЦИАТИВНЫХ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

Данная статья посвящена систематическому анализу семантической кристаллизации и лингвистопрагматических свойств социативных речевых актов. Изучение речевых актов признано отдельной междисциплинарной проблемой в современной научной парадигме и проводится на стыке ряда гуманитарных направлений, таких как лингвистика, социология, психология, этнография, культурология, социальная антропология, прагматическая лингвистика, социолингвистика, психолингвистика и прикладная лингвистика. Особое значение имеют экспрессивные речевые акты, такие как выражение благодарности, пожеланий и поздравлений, которые служат обеспечению социальной гармонии и равновесия в обществе и имеют аксиологический характер. В данной работе всесторонне рассматриваются механизмы выражения этих речевых актов лингвистическими

средствами, их функционально-семантические свойства. Также анализируются такие вопросы, как проявление социативных актов в процессе речи и формирование эмоционально-прагматических отношений между говорящим и адресатом. В статье обобщается использование социально приемлемых речевых актов в различных коммуникативных контекстах, основываясь на определенных принципах и для различных целей в различных ситуациях, а также рассматриваются их семантические и прагматические свойства на научной основе.

Ключевые слова: лингвопрагматика, локативный речевой акт, иллокутивный речевой акт, перлокутивный акт, коммуникативный акт, речевая ситуация, оценка, перцептор, предикат, оператор, субъект опыта, пропозиция.

Muloqot jarayonida nutqning faoliyat sifatidagi asosiy vazifasi fikrni ifodalash hisoblanadi. Inson chuqur uyquni hisobga olmaganda doimo fikrlaydi. Mana shunday hollarda fikr nafaqat shakllanadi, balki to'liq va tugallangan holda vujudga keladi. Nutq tafakkurdan ajralmasdir. L.S. Vigotskiy fikriga ko'ra, "nutq tafakkurning so'zga aylanishi, materiallashish jarayonidir" [1, 144].

Nutq faoliyati – shakli, hajmi va tuzilishi jihatidan turlicha bo'lgan, juda katta hajmdagi gaplar majmuasidir. "Nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida ifoda etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi ifoda qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan "boyitilishi", idrok etilishi natijasidir" [2, 72-73]. Bu gaplar so'zlovchining emotsiyalari bilan boyitilgan bo'lib, uning niyatlari, motivlari va illokutiv komponentlari bilan belgilanadi. Nutq faoliyatini o'rganishning muhim yo'nalishlaridan biri – unda qo'llaniladigan nutq harakatlarining tarkibi va xususiyatlarini tahlil qilishdir. Shu asosda mazkur ishning vazifasi ekspressiv nutq harakatlarining bir kichik turi, ya'ni, sotsiativlarni tavsiflashdan iborat.

Sotsiativlar – bu ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan, muloqotni qo'llab-quvvatlash va jamiyatda muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi nutq harakatlari bo'lib, ularga *salomlashish, so'rashish, uzr so'rash, tabrik, hamdardlik bildirish, afsuslanish, minnatdorchilik bildirish* kabi ma'lum standart vaziyatlarda ijtimoiy guruh vakili sifatida tan olinishini ifodalovchi nutqiy aktlar kiradi. Bunday nutq harakatlari semantik tarkibida "hurmat" komponenti mavjud bo'lib, uning yordamida adresatga muntazam ravishda unga yoki u vakili bo'lgan ijtimoiy institutga nisbatan hurmat ifodalanadi [3, 55-66]. Ularning bu maqomi me'yor hisoblanadi, chunki ular kommunikantga o'z xatti-harakatlarining ramziy (ya'ni yashirin ma'noli) jihatlariga e'tibor qaratish imkonini beradi. Bu nutqiy harakatlar har bir jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga mos keladi. Ushbu qoidalar tinglovchining yoki so'zlovchining bajarishi lozim bo'lgan majburiyatlarini belgilaydi. Har bir jamiyatda bu qoidalar tartibga solingan bo'lib, ular etiketni tashkil etadi. Hurmat ifodasi – bu shunchaki odob emas, balki so'zlovchining adresatga nisbatan alohida e'tibor va ijobiy bahosini bildiruvchi hissiy munosabatdir. Ko'pincha bu hurmat adresatni har tomonlama qadrlashni ham o'z ichiga oladi. Nutq orqali etiket harakatini bajarish – bu suhbatdoshga ma'lum bir ijtimoiy "e'tibor belgisi" (ya'ni ijobiy munosabat signali) yuborishdir. [4, 65]. Masalan, salomlashish, uzr so'rash, rahmat aytish, tabriklash kabi.

Biz so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan quyida minnatdorchilik, tilak bildirish va tabriklash kabi nutq aktlariga harakatiga qisqacha tavsif berishga harakat qilamiz. Ushbu maqola uchun material sifatida og'zaki so'zlashuv nutqi, shuningdek, badiiy asarlardan tanlab olingan

dialogik matnlardan foydalanildi. Badiiy matnlarga murojaat qilish bejiz emas, chunki nutq harakatlarining mazmuni, kompozitsion va uslubiy xususiyatlari badiiy asarlarda yetarli darajada to'liq va aniq ifodalanadi.

Minnatdorchilik nutqiy akti. Nutq faoliyati insonning ijtimoiy hayotidagi eng muhim vositalardan biri bo'lib, u orqali shaxs o'z fikrini, his-tuyg'ularini va niyatlarini boshqalar bilan bo'lishadi. Shuningdek, nutq faoliyati turli illokutsion komponentlar, individual niyatlar va ijtimoiy kontekstlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p qirrali tizimdir. Shu munosabat bilan nutq aktlarini o'rganishning muhim yo'nalishlaridan biri – unda amalga oshiriladigan ijtimoiy-ma'nodor harakatlar, xususan, ekspressiv va sotsiativ nutq aktlarini tahlil qilishdir.

Minnatdorchilik nutq akti – shunday sotsiativ nutq harakatidirki, u kommunikantning o'zaro ijtimoiy munosabatlarda hurmat va e'tiborni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu nutq akti orqali so'zlovchi o'z minnatdorchiligini bildiradi, shuningdek, jamiyatda uyg'un muvozanatni saqlashga hissa qo'shadi. Minnatdorchilikning samarali amalga oshirilishi, avvalo, uning samimiyligi va so'zlovchining haqiqiy minnatdorlik hissiga ega bo'lishiga bog'liqdir.

“Minnatdorchilik” nutq ifodasining umumiy maqomi quyidagicha tavsiflanishi mumkin: gapiruvchi tinglovchining harakati o'zi uchun foydali (benefaktiv) bo'lganiga ishonar ekan va bu harakat bajarilgani uchun minnatdorlik hissini saqlab turar ekan, u shu bajarilgan harakat uchun tinglovchiga minnatdorchilik bildirishi mumkin[5,46].

Minnatdorchilikning illokutiv kuchini ifodalovchi eksplisit ko'rsatkich to'g'ridan-to'g'ri nutqiy aktlar orqali amalga oshadi. Ular ifodalarning performativ paradigmasini tashkil etadi va ushbu paradigma tarkibiga bevosita performativ hamda shartli-performativ ifodalar kiradi. Asl (sof) performativ ifodalarning informativ formulasi kengaytirilgan shaklda quyidagicha ifodalanishi mumkin: *Men senga / Sizga ... uchun minnatdorchilik bildiraman.*

Shartli-performativ gaplarning predikati esa grammatik jihatdan turli xil kesim turlari orqali ifodalanishi mumkin:

- **fe'l kesimlar orqali:** *Bu voqea mening hayotim davomida sodir bo'layotgani meni minnatdorlik tuyg'usiga to'ldiradi;*
- **ot kesimlar orqali,** bunda predikativ pozitsiyada “minnatdor” sifati qo'llanadi: *Sizdan nihoyatda minnatdorman;*
- shuningdek, **partitsiplar orqali:** *Bu samimiy so'zlar uchun minnatdor bo'l.*

Shu tariqa, shartli-performativ ifodalarda minnatdorchilik turli grammatik vositalar orqali ifodalanadi.

Minnatdorchilik nutqiy aktlarini amalga oshirish usullarining xilma-xilligi, ularning ham illokutiv, ham propozitsional komponentlarining ifodalanishidagi o'zgaruvchanlik bilan belgilanadi[6,63]. Ularning har biri nutq aktining kommunikativ maqsadini va ijtimoiy vazifasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Birinchi o'rinda bu nutq aktini tahlil qilishda illokutsion va propozitsion komponentlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

Illokutsion komponent – minnatdorchilik nutq aktining asosiy kommunikativ kuchi bo'lib, so'zlovchi tomonidan tinglovchiga minnatdorlik bildirilishini amalga oshiradi. Ushbu komponent minnatdorchilikning samimiyligini, ijtimoiy e'tibor va hurmatni namoyon etadi. Illokutsion kuch nutq aktining performativligi bilan bog'liq bo'lib, uni haqiqiy performativ yoki shartli performativ shakllarda ifodalash mumkin. Masalan, *“Sizdan yordamingiz uchun*

minnatdorman” shaklidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri minnatdorchilik bayonoti illokutsion kuchni ochiq tarzda ko‘rsatadi.

Propozitsion komponent nutq aktining mazmunini tashkil qiluvchi asosiy qismidir. Bu komponent tinglovchi tomonidan bajarilgan harakatning so‘zlovchi uchun foydali ekanligini va u tomonidan qabul qilinishini ifodalaydi. Shu bilan birga, propozitsion komponentda eng muhim jihat so‘zlovchining ushbu harakatning foydaliligi haqidagi subyektiv ishonchidir, ya‘ni obyektiv foydalilikdan ko‘ra, so‘zlovchining shaxsiy qarashi asosiy hisoblanadi.

Minnatdorchilik nutq aktida antropokomponentlar, ya‘ni so‘zlovchi (adresant) va tinglovchi (adresat) muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu komponentlar nutq aktida kimning minnatdorlik bildirayotganini va kim qabul qilayotganini ko‘rsatadi.

Antropokomponentlar ochiq (eksplitsit) yoki shartli (implisit) tarzda ifodalanishi mumkin: **eksplitsit ifoda** so‘zlovchi va tinglovchi ochiq ko‘rsatiladi. Illokutiv qismning qanchalik to‘liq ifodalanganiga qarab quyidagi turdagi gaplar farqlanadi[7,115]: a) muloqot vaziyatidagi har ikkala ishtirokchi ochiq (eksplitsit) ifodalangan gaplar. Masalan: *Sizga yana bir bor chin dildan rahmat aytaman*; b) adresant yoki adresat ochiq ifodalanmagan gaplar. Masalan: *Minnatdor bo‘lishimiz kerak*. Bu gapda biz (adresant) ochiq ifodalangan, lekin kimga minnatdorlik bildirilyotgani (adresat) ochiq aytilmagan.

Antropokomponentlarning implisit tarzda ifodalanish imkoniyati ko‘p jihatdan gap kesimining qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanish xususiyatlari bilan belgilanadi. Masalan, illokutiv qismning predikati “*minnatdor bo‘lmoq*” kabi ot-kesim orqali ifodalanganda, muloqot ishtirokchilarini ko‘rsatish zarurati “*minnatdor*” sifatining sintagmatik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu sifat kesim vazifasida qo‘llanganda, u bilan valent bog‘langan aktantni talab qiladi: *Sizdan nihoyatda minnatdorman*.

Har ikkala antropokomponentning implisit tarzda ifodalanishi esa nominallashtirilgan (otlashgan) tuzilmalarda kuzatiladi. Bunday tuzilmalar murojaat qiluvchi va murojaat qilingan shaxsni ochiq ifodalashga imkon bermaydi: *Qimmatli tashrifingiz uchun katta rahmat*. Bu gapda so‘zlovchi va tinglovchi kontekst orqali tushuniladi. Antropokomponentlarning to‘g‘ri ifodalanganligi minnatdorchilik nutq aktining ijtimoiy samaradorligi va tinglovchida kutilgan ijobiy emotsional ta‘sirni yaratishda muhimdir.

Minnatdorchilik mazmunli gaplarning propozitsiyasi, odatda, o‘tgan zamondagi fe‘l orqali ifodalanadi. Kelasi zamonga yo‘naltirilgan, shunga o‘xshash fe‘llarni o‘z ichiga olgan gaplar esa illokutiv sinkretizm bilan tavsiflanadi, chunki bunday holatda minnatdorchilik bildirish iltimos ifodasi bilan uyg‘unlashib ketishi mumkin. Masalan: *Agar izohlaringizni keyinroq qoldirsangiz, sizdan minnatdor bo‘lardim*. Bu holatda propozitsiya kelajakdagi harakatni ifodalovchi fe‘l orqali berilgan bo‘lib, minnatdorchilik ifodasi boshqa, kelajakda bajariladigan harakatga nisbatan keyin yuzaga keladi. Ushbu harakat bajarilgandan so‘ng minnatdorchilik bildiriladi, ya‘ni gapning propozitsion qismida ifodalangan minnatdorchilik aslida o‘sha harakatning bajarilishiga bog‘liq shart hisoblanadi: *Agar siz izohlaringizni keyinroq qoldirsangiz, men sizga minnatdorchilik bildiraman* yoki, *Iltimos, izohlaringizni keyinroq qoldiring, shunda men sizga minnatdorchilik bildiraman*.

Muayyan kontekstlarda minnatdorchilik bildiruvchi gaplar bir vaqtning o‘zida minnatdorchilik va rozilik (yoki rad etish) illokutiv kuchlarini ham ifodalashi mumkin. Masalan:

- *Men hozir choy ichmoqchi edim. Siz ham qo‘shilasizmi?*

– *Katta rahmat.*

Bu yerda minnatdorchilik ma'nosi so'zlovchining psixologik holatini ifodalaydi va u adresat bajarishi taklif etilgan harakatning ijobiy baholanishi bilan implikativ bog'liq bo'ladi: *Choy yaxshi fikr, men mamnuniyat bilan bir piyola ichaman, taklif uchun rahmat.*

Ijobiy bahoni ifodalovchi hukm bir tomondan minnatdorchilik illokutiv kuchini amalga oshiruvchi va subyektning emotsional-baholovchi faoliyati natijasini aks ettiruvchi gap bilan, boshqa tomondan esa ushbu bahoning amaliy tomonini ko'rsatuvchi, rozilik ma'nosini bildiruvchi gap bilan implikativ bog'langan bo'ladi. Shu sababli bu ma'nolar o'rtasidagi munosabatni kauzativ (sabab-natija) munosabat sifatida talqin qilish mumkin.

Minnatdorchilik va rad etish illokutsiyalari birgalikda ifodalanganda, gapning propozitsion mazmuni rad etish sababini ham o'z ichiga oladi. Bunda adresat rad etayotgan harakat ijobiy ham, salbiy ham baholanishi mumkin. Masalan: –

– *Ha, bu xatosini to'g'rilaydi.*

– *Rahmat, Xurshida. Ammo meni taklif qilishlariga umuman qiziqmayman.*

Bu holatda so'zlovchi taklifni rad etadi, ya'ni tantanali kechaga taklif olish uchun qandaydir keskin choralar ko'rish fikrini qabul qilmaydi. Shu bilan birga, u vaziyatni to'g'rilash istagi uchun minnatdorchilik bildiradi.

Rad etish sababi sifatida u tadbirda ishtirok etishni istamasligini ko'rsatadi, chunki u ushbu tadbirni subyektiv ravishda salbiy baholaydi.

Minnatdorchilik bildiruvchi gaplarning illokutiv kuchi, ya'ni ularning emotsional-ekspressiv ifodaliligi leksik vositalar (yuklamalar, sifatlar, ravishlar) yordamida kuchaytirilishi yoki susaytirilishi mumkin. Masalan: *katta rahmat – juda katta rahmat – kattakon rahmat; juda minnatdorman – behad minnatdorman – juda ham minnatdorman – cheksiz minnatdorman – nihoyatda minnatdorman.*

Pragmatik ma'noning o'zgarishi ba'zan kesimning miqdoriy ko'rsatkichlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Masalan: *Juda ajoyib oqshom edi. Ming rahmat.*

Minnatdorchilik nutq aktining samarali amalga oshishi uning samimiyligi bilan chambarchas bog'liqdir. So'zlovchi haqiqatan minnatdor bo'lganida va bu his-tuyg'uni nutq orqali ifoda etganda, nutq akti tinglovchi tomonidan ijtimoiy jihatdan to'g'ri va samimiy qabul qilinadi. Emotsional komponent minnatdorchilikning hissiy jihatini tashkil qiladi. U so'zlovchining ichki holati va his-tuyg'ularini ifodalaydi hamda tinglovchida mos emotsional reaksiyani uyg'otadi. Shu komponent orqali minnatdorchilik nafaqat so'z orqali, balki hissiy ta'sir orqali ham yetkaziladi. Nutq aktining samimiyligi va emotsional boyligi shuningdek tinglovchining kutilgan e'tibor belgilarini, masalan, salomlashish, uzr so'rash, tabriklash yoki minnatdorchilikni qabul qilishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu komponentlarning uyg'unligi minnatdorchilik nutq aktini ijtimoiy jihatdan samarali va mazmunli qiladi hamda jamiyatdagi hurmat va e'tibor muvozanatini mustahkamlaydi.

“Tilak” nutqiy akti. “Tilak” akti mazmunining o'ziga xosligi va uni lingvistik ifodalash usullari, albatta, tilak bildirishning kognitiv asoslari va uning kontseptual xususiyatlari bilan belgilanadi. Bir tomondan, tilak konsepti strukturasidagi mazmuniy o'zaro bog'liq lingvistik va nolingvistik vositalar qonuniyatlarini hamda turli lingvistik talqinlarni aniqlash va tushunish muhim ko'rinadi. Ikkinchidan, ushbu hodisaning kognitiv tabiati va mentallikka ko'ra o'ziga xos farq qiluvchi jihatlarini, istak mazmunidagi lisoniy birliklarni kontseptuallashuvi va tasniflanish mexanizmlarini ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Shuni inobatga

olish kerakki, til birliklari va kategoriyalari asosida singdirilgan mazmun nafaqat obyektiv voqelik haqidagi munosabatlarning o'zaro bog'liq jihatlarini, balki o'z ona tilida so'zlashuvchilarning ham o'ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. Boshqa tomondan, V. Gumbolt tomonidan e'lon qilingan "borliq – til – inson" klassik uchligida birinchi o'ringa chiqadi: birinchidan til (shaxsi) olam manzarasining lisoniy tarjimoni, ikkinchidan til (shaxsi) me'moridir. Shuning uchun ham zamonaviy fan oldida o'zaro bog'liq murakkab konseptlarni o'rganishda inson omilining ahamiyati lisoniy tahlilning eng muhim sharti sifatida e'tirof etilishi bilan ajralib turishi bejiz emas. [8, 195]

Ma'no bilan bog'liq holda, istak "subyektini biluvchi" deb tushunilgan lingvistik "men" ga murojaat qilmasdan, so'zlovchining gapning yaratuvchisi sifatidagi shaxsiga, ma'no tarjimoni sifatida qabul qiluvchining shaxsiyatiga murojaat qilishni anglatadi. Aytilganlarning ichida shaxsning xohish-istaklarini va ularning obyektivlashuvini tilda yetarli darajada ifodalab bo'lmaydi.

Aslida, har qanday muloqot jarayoni istak bilan boshlanadi: so'zlovchining ma'lumotni qabul qiluvchiga yetkazish istagi har qanday so'z uchun turtki bo'lib xizmat qiladi va aloqa harakatining asosini tashkil qiladi. Mohiyatan, istakni kommunikativ harakatning paydo bo'lishi va mavjud bo'lishining sharti sifatida ko'rib chiqish mumkin. Umuman olganda, muloqotda tilak mazmuni ma'lum bir kommunikativ faoliyatda tegishli lingvistik dizayn(ko'rinish)ni oladi. So'zlovchi kimgadir biror narsa aytish istagini amalga oshiradi (kimdandir biror narsa haqida so'rash), rag'batlantirish orqali (kimnidir biror narsa qilishga undashni xohlaydi), lekin kerakli yoki optativ jumlar orqali (biror narsaga bo'lgan xohishini bildirishni xohlaydi). Boshqacha qilib aytganda, til shaxsining ma'lum bir ma'lumotni xabar, so'roq, buyruq yoki istak shaklida yetkazish istagi har qanday kommunikativ vaziyatning asosini tashkil etadi, axborot uchun turtki vazifasini bajaradi va muloqot jarayonining umumiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Bunday gaplar so'zlovchining istak-xohishini ifodalashga xizmat qiladi. Til sathida o'zining alohida modeli mavjudligi va nutqda konnotativ ma'no ma'lum axborot berish bilan birga, so'zlovchining pragmatik istagi, xohishining ifodalanishiga ega bo'ladi: Masalan:

– *Agar hayot bo'lganida edi, kaftimda ko'tarib yurardim, – keyingi kunlarda Safol odamlar orasiga qo'shildi deguncha u gapni takrorlaydigan bo'lib qolgandi. Shunday derdida, mahzun, horg'in, yoshlangan ko'zlarini oyog'i tagiga tikkancha o'zicha g'oldirardi. – Lekin qo'ldan ketdi... Eh, agar u bo'lganda... "Kim biladi?". Sovuq va shubha yaltillagan nigohlar Safolning ko'zlariga qadaladi. Qariya og'ir bir "oh" tortib, qoracha, dag'al barmoqlarini qaltirayotgan boshiga qo'yadi va hasratlangancha qayta-qayta deydi: – Qaniydi, tirilib kelsa... (Abdulhamid Samad. Qaniydi.)*

Tilak mazmunidagi gaplar so'zlovchining istagini ifodalaganligi uchun ham u kelgusida bo'lishi orzu qilinayotgan voqea-hodisa, belgi-xususiyat haqida axborot beradi. Shu bilan birga, "tilak" tushunchasi gapning maxsus turi – optativ(istak)ning asosiy kontseptual mazmunini tashkil qiladi. Ularda tushuncha o'zining lingvistik ifodasini oladi: *"Topganing to'ylarga buyursin"* deya halol mehnat bilan topgan daromadlarini faqat yaxshi to'ylarga xizmat qilishini niyat qilini. *"Uvali-juvali bo'lg'in", "serfarzand, serdavlat bolgin", "o'zingdan ko'payib yurgin"* va *boshqalar*. Bu istak mazmunli lisoniy birliklarda o'zbek milliy madaniyatining eng asosiy jihatini ko'rish mumkin.

“Tilak” nutqiy aktining umumlashtirilgan mazmuni sifatida birinchi navbatda mos keladigan modal semantika, xohish-istak semantikasi bilan bog‘liq. Tilak bildirish subyektning keng ma’noda qandaydir harakatni amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyojining emotsional-ixtiyoriy ko‘rinishi bo‘lib, u muayyan vaziyatda u yoki bu lisoniy ifoda orqali namoyon bo‘lishi bilan boshqalaridan farqlanadi. Tilakni keng ma’noda muloqot uchun omil sifatida va optativlik kategoriyani asosini tashkil etuvchi konsept sifatida farqlash kerak.

Kommunikativ harakatning umumiy sharti sifatida tilak til tizimidan tashqarida, shaxsning mantiqiy-psixologik jarayonlari doirasida joylashadi, lekin bo‘g‘indir. O‘zaro “Men” va “men emas” dunyosi.

Kognitiv-lingvistik tushuncha sifatida tilakning semantik qobig‘i kategoriyalashish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bizning ongimizda istak lingvistik-konseptuallashuvning asosiy mazmuni - optativlikni tashkil qiladi. Anglashiladiki, birinchi navbatda, optativlikni o‘ziga xos kategorial birlik sifatida ko‘rib chiqish kerak, uning mazmun rejasi modal subyektning u yoki bu potentsial harakatga / holatga bo‘lgan munosabati (universal kontseptual o‘zgarmas / istalgan holat). Ushbu birlikni ifodalash rejasi sintaktik, morfologik, leksik, so‘z yasaliish va prosodik vositalar majmuasi, shuningdek, optativ semantikani belgilovchi kontekst elementlari to‘plamidir. Ushbu vositalarni birlashtirgan maxsus lingvistik kategoriyani aniqlashning qonuniyligi, so‘zlovchining kommunikativ niyatlaridan biri sifatida potentsial harakatning maqsadga muvofiqligining kontseptual mazmunini ifodalash uchun nutqdagi o‘zaro ta’sir holati bilan belgilanadi.

Demak, “tilak” konsept sifatida umumiy kommunikativ va lisoniy hodisa hisoblanadi. Bu barcha etnik guruhlar uchun akt va shaxslararo munosabatlarni saqlash va rivojlantirishning muhim vositasi. Odamlar bir-birlarini maktublar, SMS-xabarlar bilan tabriklaydilar va o‘zlarining yaxshi tilaklarini bildiradilar. Bu istaklar, bir tomondan, odamlarning his-tuyg‘ularini yetkazishga imkon beradi, ikkinchi tomondan, buni o‘rnatilgan odob-axloq an’analari doirasida amalga oshirishga imkon beradi.

Tabrik nutqiy akti. Tabrik - bu baxt, omad, ezgulik tilash va qutlash mazmunidagi nutqiy ifodadir [9,570]. U odatda muhim sana, bayram yoki erishilgan yutuq munosabati bilan bildiriladi. Tabrik nutq harakatining asosiy vazifasi – hurmat ko‘rsatish, xushmuomalalik va odobni ifodalashdir. Kimnidir tabriklash orqali so‘zlovchi: unga e’tibor qaratadi, o‘zining ijobiy hissiyotlari va munosabatini bildiradi, suhbatdoshga yaqinligini ko‘rsatadi, unda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, hurmat va ehtiromini namoyon etadi. Shu sababli, tabrik nutq harakati asosan adresatda ijobiy emotsiyalar uyg‘otishga xizmat qiladi. Demak, bu nutq harakatining asosiy vazifaviy yuki J. Syorl terminologiyasi bo‘yicha “ekspressiv vazifa” dir [7, 165].

Tabrik nutqiy akti adresatga ma’lum bir xabarni yetkazadi: bayram nomi, kunlar nomi, tabrikni nomlash sababi. Shuning uchun tabrik orqali bir nomdagi nutqiy jamlanmada amalga oshiriladigan ikkinchi vazifa – bu informativlik. Bundan tashqari, bu etiketli formulani implitsit tarzda rasmiylashtirish usullari adresant haqidagi turli ijtimoiy xabarlarining mavjudligini ko‘rsatadi.

Tabrik nutqiy akti o‘zining mohiyatini ifodalovchi bir qator vaziyatga bog‘liq holda yuzaga keluvchi ta’sirchanlik holatlariga ega: u so‘zlovchining his-tuyg‘ulari va munosabatini ifodalab adresatda oxir-oqibatda ijobiy ta’sir uyg‘otishga yo‘naltiriladi. Tabiiyki, tabrik jarayonida adresant va adresat, tabrik uchun kommunikativ vaziyatning bo‘lishi shart bo‘lgan elementlar hisoblanadi. Agar ulardan birortasi mavjud bo‘lmas ekan, mazkur nutqiy akt sodir

bo'lmaydi. Ushbu nutqiy harakatning maqsadi o'zaro samimiy munosabatni kerakli mezonda ushlab turishni ta'minlash, adresat bilan o'zi o'rtasidagi do'stona munosabatlarni saqlab qolish hisoblanadi. Shu ma'noda, ta'kidlash mumkinki, tabrik muloqotchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga solib turuvchi harakatdir, u bundan tashqari boshqa sotsiativlarni ham – muloqot jarayonida maxsus xushmuomalalik, yaxshi istaklar bildirish muhitini yuzaga keltirish vazifasini ham bajaradi.

Tabrikning bunday asosiy xususiyatlarini Y.N. Marinin mazkur nutqiy aktda ifodaning asosiy «belgilovchi mezonlari» sifatida qaraydi [10,10-12]. Muallifning fikricha, bular ichida asosiylari illokutiv kuchning umumiyliigi (hissiyotni ifodalash) va perllokutiv maqsad (javob emotsional ta'sirga erishish)dir. Bu adresatda ijobiy emotsional kayfiyat uyg'otish va ifodalanishining kommunikativ vazifasidir. Bu tabrik nutqiy aktida eksplitsit ifodalanishi shart bo'lmagan propozitsiyalarda o'z aksini topishi mumkin. Bunda adresant tomonidan adresatning hayotidagi ijobiy baholashga arziydigan voqea-hodisalarni qamrab oladi. Tabrik nutqiy aktida vaziyat ijtimoiy xarakter kasb etadi, adresatga hurmat, u bilan aloqani saqlab qolish maqsadida o'z samimiy hurmatini ifodalovchi leksik birliklarning qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, tabriklarning asosiy o'ziga xos xususiyatlari ularning takroriy, stereotip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan ifodalarga boyligi hisoblanadi. Masalan, kishilar o'rtasidagi tug'ilgan kun, milliy bayramlar, tarixiy sanalar bilan bog'liq tabriklarda asosan adresatning sog'ligi, ishi, oilasiga aloqador tilak, istak bildiruvchi so'zlar va jumlar ishlatiladi hamda ular hayotning maishiy tomonlarini qamrab oladi. Jamiyatda ma'lum bir ijtimoiy mavqega ega bo'lgan yirik allomalar, davlat arboblari bilan bog'liq tabriklar ma'no ko'lamining kengligiga ko'ra oddiy tabriklardan farq qilsa, davlatlar rahbarlari o'rtasidagi tabriklar esa siyosiy xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun ularda rasmiy uslubga xos nutqiy shtamplar, siyosiy terminologiya yetakchilik qiladi va ular tabrik nutqiy akti pragmatik mazmunini belgilab beradi.

Tabrik nutqiy aktining umumiy tavsifi quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Tabrik nutqiy akti o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bir qator ijtimoiy ekspressivlarni qamrab oladi: u so'zlovchining adresatga (nutq qaratilgan shaxsga) ijobiy munosabatini va tabrik nutqi amalga oshishi jarayonida yuz beradigan his-tuyg'ularni o'zida aks ettiradi. Tabiiyki, tabrik yo'llovchi va adresat, kommunikativ vaziyatning mavjud bo'lishi tabrik aktining amalga oshishi uchun shart bo'lgan elementlar hisoblanadi. Agar ulardan birortasi mavjud bo'lmasa, mazkur nutqiy akt yuzaga chiqmaydi. Mazkur nutqiy harakat maqsadi aloqani kerakli mezonda ushlab turishni ta'minlash, adresat bilan o'zi o'rtasidagi do'stona munosabatlarni saqlab qolish va bunda o'ziga tegishli bo'lgan hissiyotlarni, emotsional holatlarni ifodalashdan iborat. Shu ma'noda, ta'kidlash mumkinki, tabrik muloqotchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga solib turuvchi harakatdir. U bundan tashqari boshqa sotsiativlarni ham – muloqot jarayonida maxsus xushmuomalalik, yaxshi istaklar bildirish muhitini yuzaga keltirish vazifasini ham bajaradi.

Tabrik **ijtimoiy-madaniy tajriba** asosida shakllangan (masalan, to'yda, tug'ilgan kunda, bayramda aytiladigan iboralar), **barqaror til vositalarida ifodalanadi** (*tabriklayman, muborak bo'lsin, bayramingiz bilan*, va h.k.), **emotsional va fatik funksiyalarga ega** (odamlar orasidagi iliqlik, samimiyatni ifodalaydi), **milliy mentalitetni aks ettiradi** (o'zbeklarda duo, tilaklar, diniy iboralar bilan bog'liq), **kommunikativ maqsadli birlik**: tabrik faqat axborot yetkazmaydi, balki ijtimoiy munosabatni mustahkamlaydi. Shunday ekan, **tabrik – bu o'zbek madaniyatida konseptual birlik** sifatida mavjud bo'lib, til, tafakkur va madaniyat

kesishmasida joylashadi. U axborot emas, balki **ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatuvchi kommunikativ hodisa** sifatida qaraladi.

Nima uchun "tabrik" konsept bo'la oladi? Tabriklash harakati madaniy jihatdan ahamiyatli: Har bir xalqda tabriklashga doir an'analar, nutqiy andozalar, marosimiy nutqlar mavjud. Masalan, o'zbek tilida: "Tabriklayman!", "Yutuqlaringiz bardavom bo'lsin!", "Baxtli bo'ling!" kabi formulalar mavjud. Tabriklash bilan bog'liq emotsional va kognitiv mazmunlar bor: Bu so'z quvonch, samimiyat, hurmat, ijobiy baho kabi ma'nolarni o'zida mujassam etadi. Tabrikda insonlar orasidagi ijtimoiy yaqinlik, sodir bo'lgan voqeaning ijobiyliги ifodalanadi.

Tabrik – ijtimoiy-institutsional nutq aktidir: U marosimlar, an'analar, kasbiy va shaxsiy kontekstlarda qo'llaniladi (masalan, bitiruv marosimi, tug'ilgan kun, lavozimga tayinlanish). Shu sababli, konseptual struktura shakllangan: kim, kimni, qanday holatda, qanday iboralar bilan va qanday maqsadda tabriklaydi.

"Tabrik" – konsept bo'la oladi, chunki u: madaniy va emotsional jihatdan boy, aniq ijtimoiy vazifani bajaradi, til va madaniyat o'rtasidagi farqlarni aks ettiradi, muayyan nutqiy andozaga ega [11, 68-82].

Umuman olganda shuni aytish kerakki, sotsiativ nutqiy aktlar muloqotning dominant milliy xususiyatlarini aks ettiradi. Bu xususiyatlar mazkur xalq vakillarida barcha yoki aksariyat kommunikativ vaziyatlarda namoyon bo'ladi.

Iqtiboslar/Sиноски/References

1. Выготский Л.С. Мышление и речь: Психологические исследования. -М.: Лабиринт, 1996. -С.415.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Тошкент: ЎМЭ..2008. -Б.72-73.
3. Goffman E. Interaktionsrituale. Über Verhalten in direkter Kommunikation. Frankfurt a. M., 1971. S. 55, 66.
4. Goffman E. Interaktionsrituale. Über Verhalten in direkter Kommunikation. Frankfurt a. M., 1971. S. 65 и сл.
5. Sander T. Expressive (Rede-)Handlungen // Divinatio. Studia culturologica series. Vol. 18. 2003. S. 46.
6. Searle J. R. Speech Acts. An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge, 1969. P. 63.
7. Серль Дж. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17: Теория речевых актов. М., 1986. С. 184.
8. Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. М.: Прогресс, 1984.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. -Тошкент: ЎМЭ, 2006.-Б.570.
10. Маринин Ю.Н. Поздравление в системе речевого этикета // Функционирование языковых единиц в разных речевых сферах: факторы, тенденции, модели. - Волгоград, 1995. - С. 29 - 30.
11. Pardayev Z. Tabrik nutqiy akti va baho. Buyuk ipak yo'li xabarchisi. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy, nazariy-uslubiy jurnal. №3. -Samarqand, 2022. -B. 68-82. www.silk-road.samdu.uz

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

TA'LIMSHUNOSLIK

Muxitdinova Badia,

professor,

filologiya fanlari doktori

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

badeamuhitdinova1978@gmail.com

Karimova Farangiz,

2-bosqich magistranti

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

anoramir4548@gmail.com

XALQ ERTAKLARIDA MAQOLLARNING IFODALANISHI VA LINGVISTIK TAHLILI

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo'lgan xalq ertaklarida maqollarning qo'llanish xususiyatlari, ularning badiiy, g'oyaviy va tarbiyaviy vazifalari keng tahlil qilinadi. Ertak va maqol janrlarining o'zaro uzviy bog'liqligi, maqollarning syujet rivoji, obrazlar tizimi va ertak tilidagi o'rni folklorshunoslik nuqtayi nazaridan yoritiladi. Maqolaning ilmiy yangiligi ertaklardagi maqollar tahlil qilinib, ularning ertakdagi ahamiyati, o'rni, vazifasi keng ochib berilgan. Ertak janrida maqollarning qo'llanilish o'rni qahramon ruhiyati, hayotiy-axloqiy ruhiyat nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan. Shuningdek, tadqiqotchilar va olimlarning xalq maqollari, ularning folklorshunoslikdagi o'rni haqidagi qimmatbaho fikrlar berilib, maqollarning badiiy-estetik mohiyati tahlil qilingan. Maqollar ertak mazmunidagi g'oyani umumlashtirib, uni aniq va ta'sirchan shaklda ifodalashi misol va namunalar asosida maqolada berilgan. Mazkur maqolada ertaklardagi maqollarning qo'llanilish o'rni va lingvistik tahlilini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, ertak, maqol, folklor, badiiy tafakkur, tarbiya, janrlararo aloqadorlik.

Mukhitdinova Badiya,

Professor,
doctor of philological sciences
Samarkand State University named after Sharof Rashidov
Samarkand, Uzbekistan
badeamuhitdinova1978@gmail.com

Karimova Farangiz,

2st year master's student
Samarkand State University named after Sharof Rashidov
Samarkand, Uzbekistan
anoramir4548@gmail.com

THE REPRESENTATION AND LINGUISTIC ANALYSIS OF PROVERBS IN FOLK TALES

ABSTRACT

This scientific article extensively analyzes the features of the use of proverbs in folk tales, one of the important genres of Uzbek oral folk literature, their artistic, ideological and educational functions. The study highlights the close interrelationship between the genres of folktales and proverbs, as well as the role of proverbs in plot development, the system of characters, and the language of folktales from a folkloristic perspective. The scientific novelty of the article lies in its comprehensive analysis of proverbs found in folk tales and in revealing their significance, functions, and place within the narrative structure of the tales. The use of proverbs in the folktale genre is investigated from the perspective of the characters' psychological states and moral-ethical values. In addition, the article presents valuable views of scholars and researchers on folk proverbs and their place in folklore studies, while also analyzing their artistic and aesthetic essence. The study demonstrates, through examples and illustrations, how proverbs summarize the central ideas of folktales and express them in a concise, vivid, and influential manner. The article therefore explores both the functions of proverbs in folk tales and their linguistic characteristics.

Keywords: oral folk literature, folktale, proverb, folklore, artistic thinking, education, intergeneric relations.

Мухитдинова Бадия,

профессор,
доктор филологических наук
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова
Самарканд, Узбекистан
badeamuhitdinova1978@gmail.com

Каримова Фарангиз,

студентка 2-го курса магистратуры
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова
Самарканд, Узбекистан
anoramir4548@gmail.com

**ВЫРАЖЕНИЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИТЕЛЬСТВ В
НАРОДНЫХ СКАЗКАХ****АННОТАЦИЯ**

В данной научной статье подробно анализируются особенности использования пословиц в народных сказках, одном из важных жанров узбекского устного фольклора, их художественные, идеологические и воспитательные функции. Взаимосвязь жанров сказки и пословицы, развитие сюжета пословиц, система образов и их место в языке сказок рассматриваются с точки зрения фольклоризма. Научная новизна статьи заключается в том, что пословицы в сказках анализируются, а их значение, место и функция в сказке раскрываются в полной мере. Место использования пословиц в жанре сказки изучается с точки зрения психики героя, витальной и нравственной психики. Также приводятся ценные мнения исследователей и ученых о народных пословицах и их месте в фольклоре, анализируется художественно-эстетическая сущность пословиц. В статье на примерах и образцах показано, как пословицы обобщают идею содержания сказки и выражают её в ясной и впечатляющей форме. В этой статье мы рассмотрим использование и лингвистический анализ пословиц в сказках.

Ключевые слова: народный устный фольклор, сказка, пословица, фольклор, художественное мышление, воспитание, межжанровая связь.

Xalq og'zaki ijodi milliy madaniyatning eng qadimiy va barqaror qatlamlaridan biri bo'lib, u xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etadi. Og'zaki ijod janrlari orasida xalq ertaklari va maqollar alohida o'rin tutadi. Bu ikki janr xalq tafakkurining mahsuli sifatida bir-biri bilan uzviy aloqada rivojlangan [1. 23-b]. Ayniqsa, o'zbek xalq ertaklarini maqollarsiz tasavvur qilish qiyin. Xususan, maqollar otalar so'zi, pandnoma, nasihat ruhida bo'lsa, ertaklar ham xalq hayotidan, turmush tarzidan olingan bo'ladi.

Xalq ertaklari orqali xalqning orzu-umidlari, adolat haqidagi tasavvurlari, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash badiiy shaklda ifodalanadi. Maqollar esa ana shu tushunchalarni ixcham, lo'nda va umumlashtirilgan shaklda ifodalovchi donishmandlik namunalari [2. 45-b]. Shu sababli ertak matnlarida maqollarning qo'llanishi tasodifiy hodisa emas, balki folklor tafakkurining tabiiy mahsulidir.

Mazkur maqolaning maqsadi xalq ertaklarida maqollarning berilish shakllari, ularning funksional xususiyatlari va badiiy-estetik ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Xalq ertaklari va maqollarning nazariy asoslari va xalq ertaklarining janr xususiyatlari serqirra bo'lib, dolzarb masalalardan bo'lib kelmoqda. Xalq ertaklari og'zaki ijodning eng ommabop janrlaridan biri bo'lib, ular asosan fantastik, hayotiy va maishiy syujetlarga asoslanadi [3. 104-b]. Ertaklarning asosiy vazifasi tinglovchini qiziqtirish bilan birga, uni ma'naviy jihatdan tarbiyalashdir. Shu bois ertaklarda yaxshilik doimo yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi.

Ertaklarda badiiy bo'rttirish, ramziy obrazlar, takrorlar va xalqona iboralar keng qo'llanadi. Maqollar ana shu xalqona ifoda vositalarining muhim qismi hisoblanadi. Bu usullar nafaqat ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, balki bolalarni milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashga o'rgatadi. Bolalarga tanish ertaklarni yangi syujet bilan to'ldirish yoki boshqa yakun o'ylab topishni taklif qilish ularning tasavvuri va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Masalan,

ertak qahramonining o'rnida bo'lsalar, qanday qaror qabul qilishlarini muhokama qilish ijodkorlikni rag'batlantiradi.

Bolalar ertaklari va xalq maqollari milliy madaniyatimizning boy merosi hisoblanadi. Ular nafaqat bolalarga axloqiy saboq beradi, balki ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ham bebaha manba vazifasini bajaradi. Zamonaviy, rivojlangan ta'limda bolalar ertaklari va xalq maqollarini innovatsion yondashuvlar bilan birlashtirish orqali o'quv jarayonini yanada qiziqarli va amarali qilish mumkin. Ertaklarda xalq orzu-istaklari, ming yillik donoligi, tajribasi ifodalangan. Adolat va haqiqat ulug'langan. Siz ertaklardan ko'plab insoniy fazilatlarni o'rganasiz. U sizni yaxshilikka yetaklaydi.

Xalq ertaklarida maqollar qahramonlar xarakterini ochish, hikoyatning axloqiy xulosasini berish, hayotiy saboq o'rgatish va syujetni rivojlantirish uchun muhim vosita bo'lib, ular orqali xalq donishmandligi, qadriyatlari va dunyoqarashi ifodalanadi. yodda tutishi kerak, degan ma'no ifodalanmoqda.

Tilshunoslik sohasida lisoniy birikmalarning o'zaro leksik semantik munosabatlari turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ular bir nechta tarmoqlarga bo'lib o'rganiladi, xususan, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya, ko'p ma'nolilik, bir ma'nolilik, uyadoshlik va boshqa bir qancha jabhalarga ko'ra tahlilga tortilib tasnif qilinadi. Mazkur maqolada ertaklardagi maqollarning qo'llanilish o'rni va lingvistik tahlilini ko'rib chiqamiz.

Ertaklar xalq ijodining eng keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lib, ular axloqiy-me'yoriy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish vositasi hisoblanadi. Maqollar esa ushbu qadriyatlarni qisqa va lo'nda shaklda ifodalaydi. Ertaklarning ko'plab turlarida maqollar hikmatli so'z sifatida ishlatiladi.

O'xshashliklar:

- Ikkalasi ham tarbiyaviy mazmunga ega. -Ikkalasi ham xalq donishmandligini aks ettiradi.
- Ertaklarda ko'pincha qahramonlar maqollar orqali donishmandlik namoyon qiladi.

Farqlar:

- Ertaklar odatda uzoq hikoya shaklida bo'lsa, maqollar ixcham va qisqa bo'ladi.
- Ertaklar fantastik yoki sarguzasht voqealarni o'z ichiga oladi, maqollar esa aniq hayotiy tajribaga asoslanadi.

Maqollarning o'rni:

• **Axloqiy saboq:** Ertaklar ko'pincha yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik kabi mavzularni yoritadi, ularning xulosasi maqollar orqali beriladi. Masalan, "*Yaxshilik qilsang, yaxshilik ko'rasan*", "*Yolg'on gapirgan o'lmas, yolg'onchi o'lmas*" kabi maqollar.

• **Qahramon xarakteri:** Maqollar orqali qahramonning fazilatlari (sabr-toqat, topqirlik, qat'iyat) yoki kamchiliklari (yolg'onchilik, haddan tashqari havadorglik) ko'rsatiladi. Masalan, "*Itining fe'li egasiga ma'lum*" [4.174-b] degan maqol "Orzijon bilan Qambarjon" ertagida qo'llangan bo'lib, mazkur maqolni ishlatishdan maqsad qahramon xarakterini ochib berishdir. Mazkur maqolda qo'llanilgan *fe'li* so'zi xarakteri so'zining sinonimi bo'lib, unda majoziy ma'no qo'llanilgan, ya'ni *itining fe'li* jumlasini orqali qahramon xarakteri nazarda tutilgan. Ushbu maqolning yana bir varianti esa "*Otning fe'li egasiga ma'lum*" tarzida ham uchraydi.

• **Hayotiy saboq:** "O'zbek xalq ertaklarida", "Xalq maqollarida" ayol obrazi, "xalq dunyoqarashi" kabi tushunchalar orqali hayotiy tajribalar, vaziyatlarni tahlil qilishga o'rgatiladi. "Oyjamol" ertaklari turkumida "Yaxshi niyat – yarim davlat" deb ataluvchi

ertakning epigrafiga “*Til tig‘dan o‘tkir*” nomli maqol berilgan bo‘lib, bu orqali ertakni hayotiy saboq bilan boshlagan va ertak mazmunini ochib berishga harakat qilgan [5. 2-b]. Bundan tashqari ertakning maqol bilan nomlanishi ham ertakning badiiy qiymatini yanada oshirgan. Maqoldagi o‘tkir so‘zi ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan bo‘lib, unga ekvivalent sifatida “*Til tig‘i qilich tig‘idan o‘tkir*”, “*O‘rinli so‘z o‘qdan o‘tkir*”, “*To‘g‘ri so‘z qilichdan o‘tkir*” kabi maqollarni ko‘rishimiz mumkin. *O‘tkir* so‘zining o‘z ma‘nosida esa “*O‘tmas Tesha o‘tkir bo‘lsa, Bolta dastasini qirqar*” maqolidan foydalansak bo‘ladi.

• **Kengaytma va tasvir:** Maqollar syujetni to‘ldiradi, uni chuqurlashtiradi va tasvirni jonlantiradi, tinglovchiga ertakdagi voqealar mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. “*To‘lg‘onoy*” ertagida “*Bedananing uyi yo‘q qayerga borsa pitpildi*” deb qahramon yo‘lga ravona bo‘ladi [5. 21-b]. Ushbu maqol orqali obraz yo‘lga chiqishini kengaytirib, izohlab beryapti.

- **Misollar:** “*Oltin olma, g‘irrom olma*” (ishonch, poklikka urg‘u berish)
- “*Qush uyasida ko‘rganini qilar*” (bolaning tarbiyasi ota-onasiga bog‘liqligi)
- “*Yaxshi do‘st – jon qadrdoni*” (do‘stlik qadr-qimmati).

Ertaklar o‘qish orqali bolalar nafaqat o‘yin-kulgi, balki xalq maqollaridan hayotiy saboqlar olishni ham o‘rganadilar. “Halol mehnat” ertagi tarkibida qo‘llanilgan bir qancha maqollar tahlili ham yorqin namuna bo‘la oladi: “*Bobo: “Bolam ajal yetmay chirkay o‘lmas*”, - debdi. Ushbu maqolning ertak tarkibida qo‘llanilishi bola ongida ezgulikka bo‘lgan intilishning oshib borishiga xizmat qiladi. Sababi ajali yetmasa oddiy hasharot ham o‘lmaydi, ya‘ni u ajal kelgunga qadar ehtimol inson yuzlab yaxshiliklarni qilishga qodir ekanligini anglab yetadi.

“Duradgor bilan tikuvchi” ertagida Sovchi ichida „*Bermas qizning qalini ko‘p*” degandek, *bermas ekan -da*,— deb podshoh huzuridan chiqib, o‘z eliga qarab jo‘nabdi. Ushbu jumlar orqali podshohning ichki kechinmalari ochib berilgan. Maqolda qo‘llanilgan *qalin* so‘zi omonim so‘zlarga mansub bo‘lib, I-ma‘nosi qalin – sifat so‘z turkumi, ko‘lami, me‘yoridan ortiq, II-ma‘nosi kelin uchun kuyov tomon beradigan pul yoki mol-mulk. Yuqoridagi ertakda II ma‘nosida qo‘llanilib kelgan. O‘zbek xalq maqollari to‘plamida mazkur so‘zga oid bir qancha maqollar bor

- I. *Gupping qalin bo‘lsa ham qishdan qo‘rq,*
Do‘pping qalin bo‘lsa ham mushtdan qo‘rq.
Toqqa qalin qor tushgani –
Yerning qonib suv ichgani
Yoli qalin eshakdan
Yag‘ir bo‘lsa ham ot yaxshi.
Qayrag‘och qalin bo‘lsa, yomg‘ir o‘tmas,
Og‘a-ini totuv bo‘lsa, xo‘rlik yetmas.
Betimning qalini – jonimning huzuri.
Telbaning terisi qalin.
- II. *Qiz qalinsiz bo‘lsa ham,*
Qa‘dasiz bo‘lmas
Qiz qalini – qirq yilda.
Qalin bergandan keyin
O‘lik kuyov ham tobutda yotmas.

*Sakson biya, sakkiz tuya –
 Sepli qizning qalini.
 Qiz desa, qiziqasan,
 Hay-hay uning qalini.*

“Susambil” ertagida voqealar xo‘jayinidan aziyat chekkan qahramonlardan boshlanadi. Ertakning boshlanish qismlarida “*Boyagi-boyagi, boyxo‘janing tayog‘i*” maqoli qo‘llanilgan bo‘lib, bu orqali eshak obrazining kunlik ovqatiga nisbatan kuchaytiruv ma‘nosini ifodalab kelgan.

O‘zbek xalq ertaklaridan biri bo‘lgan “Uch yolg‘onda qirq yolg‘on” ertagida “*Ko‘r ko‘rni qorong‘ida topar*” maqoli qo‘llanilgan, bunda uch og‘a-ini botirlarning bir-biriga o‘xshashi, o‘xshatmasdan uchratmas deganlaridek, ular bir-birini yaxshi bilmasa ham, ammo o‘xshashligi maqol orqali kengroq tasvirlangan.

“Meros” o‘zbek xalq ertagi qisqa bo‘lishiga qaramay, o‘zida chuqur ma‘no anglatgan. “*Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar*” maqoli orqali Qambar ota obrazi farzandlarini birdamlikka, ahilikka chorlaydi.

“*Nima eksang, shuni olasan*” naqli bilan nomlanuvchi ertakda o‘zbek xalqining qadriyatlarini, kattalarga hurmatda bo‘lish kabi tushunchalarni yoritib bergan bo‘lib, ertakning ham maqol bilan nomlanishi bejiz emas. Ertak so‘ngida ota o‘z farzandiga “*Nima eksang, shuni olasan*” degan maqolni aytadi.

“Yaxshisi ham, yomoni ham til” ertagida bosh mavzu til bo‘lib, ertak har bir insonni fikrlashga, mulohaza qilishga undaydi. Ertakning yakunlanma qismida “*Tish qilning qal‘asi, til boshning balosi*” maqolini ishlatadi va ertak yakunlanadi. Bundan maqsad ertakning asosiy mazmunini ertak so‘ngida maqol bilan chuqur va teran ochib berishdir. O‘zbek xalq maqollarining katta qismi ko‘xhma va majoziy ma‘noda yozilgan bo‘lib, so‘z tagida ham so‘z bo‘ladi.

O‘zbek xalq ertaklarida maqol bilan nomlanish hodisasi ko‘p uchraydi. Maqollar xalqning boshidan kechirganlari namunasi hisoblanadi, ertaklarning nomlanishida ham hayotiylik yotganini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Xususan, “*Tansihatlik – tuman boylik*” ertagida sog‘likning hamma narsadan ustun ekanligi ochib berilgan. Mazkur maqolda *tuman* so‘zi omonim so‘z vazifasida kelgan, shuningdek maqolda ko‘chma ma‘noda ham qo‘llanilgan, ya‘ni ko‘p degan ma‘no kelib chiqadi. O‘z ma‘nosida esa “*Tog‘ boshi tumansiz bo‘lmas*” maqolini ko‘rsak bo‘ladi.

“*Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur*” maqolini og‘zaki nutqimizda ko‘p bora ishlatamiz, mazkur maqol hech narsa bejiz bo‘lmasligini, har qanday g‘ayritabiiy vaqea, narsa yoki kutilmagan narsalarning ortida albatta biror bir sir yashirilgan degan ma‘noni anglatadi. “Bo‘ri bilan mergan” ertagida ham xuddi shu ma‘noda qo‘llanilgan bo‘lib, uni “Shamol bo‘lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi” iborasi bilan almashtirib ham qo‘llasak bo‘ladi. Ertakda maqoldagi “*quyruq*” so‘zi ko‘chma ma‘nosida qo‘llanilib kelgan, u tuzoq vazifasini bajargan. “Men ham bir gap aytay, sen ham tushungin. Bir odam bozorga borgandir, go‘sht-yog‘ olgandir, otini minib lo‘killatib chopgandir, bir parcha yog‘i shu yerda tushib qolgandir, yeyman, — debdi” [4. 22-b]. Bu nutq parchasi bo‘ri va tulki suhbatidan olingan bo‘lib, ertakda bo‘rining laqma, ishonuvchan obraz ekanligini ko‘rsatib bergan. “*Yiroqdagi quyruqdan, yaqindagi o‘pka yaxshi*” maqolida esa quyruq so‘zi o‘z ma‘nosida qo‘llanilib kelgan.

O'zbek xalq ertaklarida hayvonlar haqidagi ertaklar anchagina qismni tashkil qiladi. Xususan, ular majoziy ma'noga asoslangan hisoblanadi. "Botir echki" ertagi ham xuddi shunday ertaklar turkumiga mansub bo'lib, "O'zingni bil, o'zgani qo'y" maqoli og'zaki nutqda ko'p qo'llaniluvchi maqollar turkumiga mansub bo'lib, uning ekvivalneti sifatida esa "O'zingni bil, o'zgaga tupur" maqoli ham qo'llaniladi. Mazkur maqoldagi qo'y so'zi omonim so'z bo'lib, fe'l so'z turkumidagi harakatni ifodalamoqda, ammo uning ot so'z turkumidagi variant ham mavjud. Uni quyida bir nechta maqollarda ko'rishimiz mumkin.

Ot boylovda semirar,

Qo'y – yaylovda.

Qutli qo'noq kelsa, qo'y egiz tug'ar,

Qutsiz qo'noq kelsa, qo'yga qashqir chopar.

Oq qo'yni ham o'z oyog'idan osarlar,

Qora qo'yni ham.

"Malikayi Husnobod" o'zbek xalq ertagi hayotiy-maishiy ertaklar turkumiga mansub hisoblanib, unda "Erni bor qiladigan ham xotin, yo'q qiladigan ham xotin" maqoli ishlatilgan. Mazkur maqol ham kundalik hayotdan olingan bo'lib, ayol kishining erkak kishi hayotidagi o'rni naqadar ulkan ekanligini ochib bergan. Shuningdek, "Sirli tush" ertagida ham yuqoridagi maqolning boshqacha varianti, ya'ni, "Yaxshi xotin gadoni shoh qiladi, Yomon xotin erini gado qiladi" maqoli qo'llanilgan. Har ikki ertakda ham ayol kishining muhimligi ta'kidlangan. Xuddi shu ertakda "Bo'lmaganga bo'lishma" maqolini ham uchramiz. Ushbu maqol qahramonning mehnati zoye ketganini, uning xizmatini xohlashmayotganini ifodalash maqsadida ishlatilgan.

"Botir echki" ertagida "Oldin o'zingga boq, keyin nog'ora qoq", "O'zingni bil, o'zgani qo'y" maqollari qo'llanilgan bo'lib, ma'noviy jihatdan ushbu maqollar bir ma'noni bildirgan sinonim maqollar turkumiga kirib, ushbu maqollar echki obrazi tilidan hikoya qilinadi.

Maqollarning folklordagi o'rni. Maqollar xalq donishmandligining eng ixcham va mazmunli shaklidir. Ular asrlar davomida xalq hayotida sinovdan o'tib, umumlashgan hayotiy xulosalarni [6. 160-b] ifodalaydi. Maqollar axloqiy me'yorlarni belgilash, hayotiy vaziyatlarga baho berish vazifasini bajaradi.

Folklorshunos K.Imomov ta'kidlaganidek, maqollar xalq tafakkurining "kristallashgan" shaklidir [7. 41-b]. Shu sababli ular ertaklarda umumlashtiruvchi xulosa vazifasini bajaradi. Xalq ertaklarida maqollar funksional vazifa bajarib keladi. Maqollarning syujet rivojida roli. Ertaklarda maqollar ko'pincha syujetning muhim nuqtalarida paydo bo'ladi. Voqea yakunida yoki muhim burilish pallalarida keltirilgan maqol ertak mazmunini umumlashtiradi. Masalan, mehnat mavzusidagi ertaklar oxirida mehnatning qadri maqol orqali mustahkamlanadi. Bu hol maqollarning didaktik vazifasini yaqqol namoyon etadi. Sarimsoqovning fikricha, maqol ertak syujetining mantiqiy yakunini belgilaydi [8. 156-b]. O'zbek xalq ertaklarining aksariyat qismining yakunida maqollar bilan tugallanish hodisasi uchraydi.

Maqollarning obrazlar xarakterini ochishdagi ahamiyati. Ertak qahramonlarining nutqida qo'llanilgan maqollar ularning xarakterini ochishga xizmat qiladi. Dono qariyalar, podshohlar yoki oqil qahramonlar ko'pincha maqol orqali nasihat qiladi. Bu esa ularning tajribali va dono obraz ekanini ko'rsatadi. Aksincha, maqollarga quloq solmagan qahramonlar xatoga yo'l qo'yadi va jazolanadi. Bu orqali xalq maqolga amal qilish zarurligini badiiy yo'l bilan targ'ib etadi.

Maqollarning g'oyaviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, axloqiy qadriyatlarning ifodalanishi. Xalq ertaklarida maqollar orqali halollik, sabr, adolat, vafodorlik kabi axloqiy fazilatlar targ'ib qilinadi [9. 67-b]. Maqollar ertak mazmunidagi g'oyani umumlashtirib, uni aniq va ta'sirchan shaklda ifodalaydi. Masalan, sabr haqidagi ertaklarda "*Sabr tagi — sariq oltin*" mazmunidagi maqollar ertak g'oyasini mustahkamlaydi. Yosh avlod tarbiyasida maqollarning o'rni beqiyos. Xususan, ertaklar bolalar tarbiyasida muhim vosita hisoblanadi. Ulardagi maqollar bolalarda hayotiy xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi [10. 86-b]. Maqol orqali berilgan xulosa bolalar xotirasida uzoq saqlanib qoladi.

Maqollarning badiiy-estetik vazifasi. Maqollar ertak tilining obrazlilikini kuchaytiradi. Ularning qisqa va ohangdor bo'lishi ertak matniga musiqiylik bag'ishlaydi. Qayumov ta'kidlaganidek, maqollar folklor matnining estetik quvvatini oshiruvchi asosiy unsurlardan biridir [11. 180-b].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalq ertaklarida maqollarning berilishi folklor janrlarining o'zaro uzviy bog'liqligini yaqqol ko'rsatadi. Maqollar ertak mazmunini umumlashtirib, uning g'oyaviy, tarbiyaviy va badiiy ahamiyatini oshiradi. Ular xalq donishmandligini avloddan avlodga yetkazuvchi muhim vosita sifatida folklorda alohida o'rin egallaydi. Demak, o'zbek xalq ertaklarida qo'llanilgan o'xshatish, maqollar xalqning hayoti, milliy-madaniy qarashlari bilan bevosita bog'liq bo'lib qolmasdan, balki obrazlarning xarakteri, muomala madaniyati, shuningdek, ma'naviy qiyofasini ochib berish, belgilashda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu esa ertaklar tilida mavjud lingvomadaniy birlik (o'xshatish, metafora, maqol) larni tahlil qilish zarurati borligini ko'rsatdi.

Iqtiboslar/Sinopski/References

1. Imomov K. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, O'qituvchi, 1990. – 256 b.
2. Sarimsoqov B. O'zbek folklori. – Toshkent: Fan, 1980. – 104 b.
3. O'zbek xalq ertaklari. Jild 1/ Tuzuvchilar: M. Afzalov, X. Rasulov, Z. Husainova; mas'ul muharrir M. Mahmudov. 2-nashri. T.: O'qituvchi NMIU, 2012. — 384 b.
4. M.I.Afzalov., Z.Husainova., N.S.Soburov, Oujamol. Hayotiy ertaklar. Ikkinchi kitob. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti 1969. – 173 b.
5. Yo'ldoshev J. Xalq pedagogikasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – 160 b.
6. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani . – Toshkent, 2001.
7. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Нега шундай деймиз?. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988./Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Nega shunday deymiz? O'zbek maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent: G'. G 'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. – 64 b.
8. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990. 140 / Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Hikmatnoma. – Toshkent, 1990. -140 b.
9. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 230 b.

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Muxitdinova Badia,

professor,

filologiya fanlari doktori

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

badeamuhitdinova1978@gmail.com

Shukurova Anora,

1-bosqich magistranti

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

anoramir4548@gmail.com

**QADIMGI TURKIY YOZMA YODGORLIKLARDA KOSMOGONIK MIFLAR
OBRAZLARI: GENEZIS, SEMANTIKA VA FOLKLOR TRANSFORMATSIYASI**

ANNOTTATSIYA

Mazkur maqolada qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda aks etgan kosmogonik mif obrazlari, ularning semantik mohiyati hamda keyingi folklor janrlariga ko'chish jarayoni ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda turkiy mifologiyaning asosiy komponentlari – Ko'k Tangri e'tiqodi, samoviy kultlar, uch olam konsepsiyasi va ular bilan bog'liq mifologik personajlar tizimi yoritilib, ularning genezisi va funksional xususiyatlari aniqlanadi. Maqolada mifologik tafakkurning sinkretik tabiati, uning tarixiy evolyutsiya jarayonida badiiy tafakkur bilan uzviy bog'liqligi hamda yozma va og'zaki an'analar o'rtasidagi o'zaro ta'siri asoslab beriladi. Shuningdek, kosmogonik miflarning afsona, rivoyat, ertak va doston kabi epik janrlarga transformatsiyasi, mifologik kodning ijtimoiy-estetik kodga aylanish jarayoni ilmiy konsepsiyalar asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar: kosmogonik mif, turkiy mifologiya, Ko'k Tangri, samoviy kultlar, mifologik obraz, folklor, sinkretizm, mifopoetik tafakkur, uch olam konsepsiyasi, Umay, quyosh kulti, mifologik motiv, badiiy tafakkur, genetik asos, tipologik tahlil.

Mukhitdinova Badia,

Professor,

doctor of philological sciences

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

badeamuhitdinova1978@gmail.com

Shukurova Anora,

1st year master's student

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

anoramir4548@gmail.com

COSMOGONIC MYTH IMAGES IN ANCIENT TURKIC WRITTEN MONUMENTS: GENESIS, SEMANTICS, AND FOLKLORIC TRANSFORMATION

ABSTRACT

This article provides a scientific and theoretical analysis of cosmogonic myth images reflected in ancient Turkic written monuments, their semantic essence, and the process of their transition into subsequent folklore genres. The study examines the main components of Turkic mythology - the belief in the Blue God, celestial cults, the concept of the Three Worlds and the system of mythological characters associated with them, and identifies their genesis and functional characteristics. The article substantiates the syncretic nature of mythological thought, its inextricable connection with artistic thought in the process of historical evolution, and the interaction between written and oral traditions. Also, the transformation of cosmogonic myths into epic genres such as myth, narrative, fairy tale and epic, and the process of the transformation of the mythological code into a socio-aesthetic code are explained on the basis of scientific concepts.

Keywords: cosmogonic myth, Turkic mythology, Blue God, celestial cults, mythological image, folklore, syncretism, mythopoetic thought, concept of three worlds, Umay, solar cult, mythological motif, artistic thought, genetic basis, typological analysis.

Мухитдинова Бадия,

профессор,

доктор филологических наук

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

badeamuhitdinova1978@gmail.com

Шукурова Анора,

студентка 1-го курса магистратуры

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

anoramir4548@gmail.com

ОБРАЗЫ КОСМОГОНИЧЕСКИХ МИФОВ В ДРЕВНИХ ТУРЕЦКИХ ПИСЬМЕННЫХ ПАМЯТНИКАХ: БЫТИЕ, СЕМАНТИКА И ФОЛЬКЛОРНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на научно-теоретической основе анализируются образы космогонических мифов, отраженные в древнетюркских письменных памятниках, их смысловая сущность и процесс их переноса в последующие фольклорные жанры. Исследование освещает основные компоненты тюркской мифологии - веру в Голубого Бога, культы небесных тел, концепцию Трех Миров и систему мифологических персонажей, связанных с ними, а также определяет их генезис и функциональные характеристики. В статье обосновывается синкретический характер мифологической мысли, ее неразрывная связь с художественной мыслью в процессе исторической эволюции и взаимодействие письменных и устных традиций. Также на основе научных концепций объясняется трансформация космогонических мифов в эпические жанры, такие как миф, повествование, сказка и эпос, а также процесс трансформации мифологического кода в социально-эстетический код.

Ключевые слова: космогонический миф, тюркская мифология, Синий Бог, небесные культы, мифологический образ, фольклор, синкретизм, мифопоэтическая мысль, концепция трех миров, Умай, солнечный культ, мифологический мотив, художественная мысль, генетическая основа, типологический анализ.

Mavzuning dolzarbligi qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda uchraydigan kosmogonik mif obrazlarining kelib chiqishi, semantik tabiati va folklor janrlaridagi badiiy transformatsiyasi masalalarining kompleks tarzda yetarlicha tadqiq etilmaganligi bilan belgilanadi. Xususan, mazkur obrazlarning mifologik asoslari, ramziy-funksional mohiyati hamda keyingi folklor an'analarida qayta shakllanish jarayonlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish zamonaviy folklorshunoslikning muhim nazariy masalalaridan biridir.

Mavzuning o'rganilish ahamiyati shundaki, kosmogonik mif obrazlarini genезis va semantik taraqqiyotda tadqiq etish turkiy mifologik tafakkur evolyutsiyasini yoritish, yozma yodgorlik va og'zaki an'ana munosabatlarini ochib berish, folklordagi mifologik qatlamlarning tarixiy ildizlarini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan tadqiqot turkiy mifologiya, folklor poetikasi hamda qadimgi yozma manbalarni yangicha ilmiy talqin qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada turkiy mifologiyadagi quyosh, osmon, yer, daraxt va hayvon obrazlarining ramziy-ma'naviy yuklamasi ochib berilib, ularning boshqa xalqlar mifologiyasi bilan tipologik o'xshashliklari qiyosiy tahlil qilinadi. Ayniqsa, Ko'k Tangri, Umay, Erlik kabi mifologik obrazlarning folklordagi badiiy talqini va ularning estetik funksiyasi alohida e'tiborga olinadi. Qadimgi turkiy yodgorliklarda kosmogonik mif obrazlari va syujetlari aksariyat sinkretik holatda bo'lgani kuzatiladi. Bu - tarixiy jarayon va badiiy tafakkurning sinkretikligi, mifologik dunyoqarashning qadimiyligi, turkiy adabiyotning genезisida alohida o'rin tutganligi bilan izohlanadi [12. 10-b]. Shuning uchun ham yozma manbalarda o'sha davr uchun xarakterli bo'lgan barcha diniy-mifologik obrazlar va syujetlar mavjud. Bularning ko'pchiligi vaqtlar o'tishi bilan bir-birini to'ldirib, sinkret holatni yuzaga keltirgan. Qadimgi turkiy yodgorliklarda asosan, Ko'k Tangri, shomonlik, buddaviylik, moniylik oqimlariga oid syujetlar asosiy o'rin egallaydi.

Ko'k Tangri e'tiqodi (ayrim adabiyotlarda tangrichilik) - turk-mo'g'ul xalqlarining qadimgi diniy e'tiqodi obyekti bo'lib, buddaviylik, xristianlikdan avvalgi e'tiqoddir. Tangrichilikning asosini kosmogonik kulti bo'lgan Ko'k Tangri tashkil etadi. Ko'k Tangri e'tiqodi miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarga borib taqaladi va bosh xudo bo'lgan Tangri barcha turk-mo'g'ul qavmlarida alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Buni fransuz sharqshunosi Jan Polyu Ru "tengriizm" deb atagan. Shundan so'ng "tengrizm", "tengrianstvo" atamaları ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanila boshladi.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarga asoslansak, "Tangri" termini Ko'k (osmon) ma'nosini anglatishi ayon bo'ladi. Uning "xudo", "hukmdor", "ruh egasi" kabi dunyo qurilishi bilan bog'liq ma'nolari ham mavjud. Bundan tashqari, Tangri so'zi ikkita so'z "taḥ+ra" dan iborat bo'lib, turkiycha "Tong" (Kun chiqishi) va qadimgi diniy tushunchalar bilan bog'liq "Ra" "quyosh nomidan kelib chiqqan" degan talqinlar ham bor. Shunday qilib, Taḥra so'zi "Chiqayotgan quyosh" degan ma'noni ham bildirganini e'tiborga olish lozim. Ayrim olimlar turkiycha "Teng" (barcha uning uchun tengdir), yoqut tilidagi "Tangar" (yasovchi, bor qiluvchi) so'zlaridan olingan deb ham hisoblaydi [4. 7-b]. Shunday bo'lsa ham, bu so'zning aniq etimologik ma'nosi bugunga qadar to'liq ma'lum emas.

Tangrichilikni qadimgi yozma yodgorliklar va etnografik ma'lumotlar asosida o'rgangan ayrim olimlar XII-XIII asrlarga kelib bu e'tiqod ontologiyaga (yakka xudo aqidasi o'rganish), mifologiyaga (kosmogonik uch olam konsepsiyasi), demonologiyaga (ajdodlar ruhi va tabiat ruhlarining alohidaligi) asoslanib, har biri vaqt o'tishi bilan badiiy adabiyotda mustaqil obrazga aylanganini aytishmoqda.

Masalan, Alisher Navoiy asarlaridagi mifologik obrazlar va ularning folklor asarlaridagi mushtarak jihatlari, mifologik zamon va makon, kosmogonik dunyoqarash hamda samoviy timsollar kabi tushunchalar tadqiqotchilar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Xususan, Akramov "Hayrat ul-abror" dostonidagi maqolat va hikoyatlar tarkibidagi ijobiy qahramonlar, garchi mifologik va epik zamon bilan bog'liq holda tasvirlangan bo'lsa-da, ularning badiiy-mifologik mohiyati mifning umumbashariy g'oyalari negizida shakllanganini ta'kidlaydi [1. 78-b]. Mazkur qarashlar Navoiy asarlarida mifopoetik tafakkur, folklor an'analari va kosmogonik tasavvurlar o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'lishini ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Turkiy miflarda Ko'k Tangri tanho yaratuvchiligi bilan ajralib turadi. Bunday holat Bibliya kosmogoniyasida ham kuzatiladi. Unda ham yaratuvchi yagona Xudo Yahvedir. Hind miflarida ("Rigveda") esa o'rdak va toshbaqaning tuxumlaridan dunyo yaratilganligi aytiladi. Moniylik, mazdakiylik kosmogonik mifologiyasida yaratuvchi ikkita: biri - dono, aqlli, yaxshi narsalar yaratuvchisi; ikkinchisi - yovuzlik yaratuvchisidir.

Turkiy mifologiyada samoviy kultlar haqida so'z borar ekan, aytish mumkinki, unda, yuqorida ta'kidlaganimiz - Tengri (Ko'k Tangri) eng oliy kosmogonik mif sifatida e'tirof etiladi. Zotan, manbalardan ma'lumki, ilk turkiy xalqlarning dastlabki xudolaridan edi. Tengri - ezgulik xudosi Erlik, ya'ni, yerosti dunyosining yovuz xudosiga zid tarzda ifodalangan. Uchmaq, ya'ni jannat egasi bo'lgan Tengri barcha insonlar taqdirini boshqaradi va erkin harakat qiladi. Uning irodasi odamlarning farovonligini belgilaydi. U adolatli, chunki u mukofotlaydi va jazolaydi.

Tengrining xudo bo'lgan uchta o'g'li bor. O'd Tengri - vaqt hukmdori yoki xudosi. Tengrining boshqa mashhur bo'lmagan o'g'li Bo'z Tengri - dasht va erlarning xudosi.

Tengrining uchinchi o'g'li Kayra - Xudoning Ruhi. U yuqori havo, eng baland osmon, kosmos, yorug'lik va atmosferaning asosiy xudosi sanaladi. Bularning barchasi samoviy kultlar sifatida davrlar o'tishi bilan turkiy xalqlar e'tiqodi, ijtimoiy hayot tarzi bo'lgan muayyan marosimlarning asosiy qismiga aylanib ulgurgan. Kayraning uchta o'g'li bor. Ulgen - yaxshilik xudosi. U Oltoy va Turkiy mifologiyasidagi barcha Arug' (Ari) yoki yaxshi ruhlarni boshqaradi. Ular osmondan yer yuziga tushib, u yerda ezgu ishlar qiladilar. Ulgenning ukasi Mergen - aql xudosi. Osmonning yettinchi qavatida o'tirgan, u hamma narsani biladi va bunga qodir deb ishoniladi. Uning tepasida osmonda ikki qavat o'tirgan - Mergenning ukasi, Qizag'on, urush bilan bog'liq xudo hisoblanadi. U kuchli, qudratli va yosh sifatida tasvirlangan, nayzali qizil ot mingan holda istifoda etiladi. Boshqa xudolarga turkiy xalqlarning dastlabki yaratuvchisi-ma'budasi Ak Ana yoki Oq ona kiradi.

Bizning hududimizdagi olamning ibtidosi va intihosi to'g'risidagi afsonalar qadimgi turk mifologiyasining tarkibiy qismi bo'lib, ular samoviy tasavvurlar va kosmogonik qarashlarning semantik rivoji sifatida shakllangan. Bu badiiy silsilada shumer, saklar, arab, fors, hind, mo'g'ul-buryat folkloriga tegishli bo'lgan miflar syujetlarining izlari, shuningdek, O'rta Osiyoda qadimda yashagan ajdodlarimizning osmon jismlari bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari ham o'z ifodasini topgan. O'zbek xalq samoviy afsonalarida olamning yaratilishi, birlamchi samoviy ummon tubidan olib chiqilgan loydan yerning bino etilishi, osmon bilan zaminning bir-biridan ajralishi, olamning gorizental va vertikal yo'nalishiga ko'ra tuzilishi tavsifi, oxir zamon, ya'ni qiyomat-qoyim haqidagi mavzular o'zining mukammal badiiy talqiniga ega. Ammo bizgacha bu afsonalarning to'liq matni saqlanib qolmagan bo'lib, qadimiy samoviy miflar motivlari turli xarakterdagi afsonalar, marosim folklor namunalari hamda xalq qarashlariga singib ketgan mifologik e'tiqodlar tarzida, ya'ni, samoviy mif qoldiqlari holida yetib kelgan. Kosmogonik mifologiya - o'zbek xalq samoviy afsonalari vujudga kelishi uchun birlamchi epik zamin vazifasini o'tagan. O'zbek afsonalari syujet tuzilishining shakllanishi va tarixiy evolyusiyasida salmoqli o'rin tutgan. Uning miflarni afsona uchun asos sifatida qarashi e'tiborni tortadi. Mif - folklor janrlarining tadrijiy o'sib borishi uchun haqiqatdir, shu bilan birga, afsonalar tarkibidagi mifologik obrazlar estetik tafakkurdan dalolat hamdir.

Mifologik simvol diffuziya natijasida ertakda poetik ko'chimga aylanadi. Qadimgi turkiy mifologiyadagi asosiy kult - quyosh obrazi «Kenja botir» ertagidagi obrazlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Bu borada B.Sarimsoqov turkiylarning dunyoni bo'lingan holda tasavvur qilishlari haqida ham qisman to'xtalib o'tgan. Shuningdek, xalq ertak va dostonlaridagi parining ko'k kaptar qiyofasida tasvirlanishida "Ko'k" atamasini qadimgi turkiylar xudosi - "Ko'k Tangri" haqidagi mifologik qarashlar bilan bog'laydi. Olim bu o'rinda "Mifologiya inson tafakkurining quyi bosqichlarida yuzaga kelgan ekan, uning estetik tafakkur uchun ham ma'lum darajada zamin yaratganligi shubhasizdir", deb ta'kidlaydi. Shuningdek, "Afsona, rivoyat, ertak va doston kabi folklorning epik janrlari tabiatidagi mifologik motiv, obraz yoki tushunchalarni tahlil etganda, arxaik hamda klassik miflarning semantik tabiati, ularning funksional xossalari va subyektlariga murojaat qilish ko'proq kutilgan natijalarga olib keladi", degan xulosaga keladi [13. 5-b].

Insonning tartibsizlikdan tartibli kosmosga o'tishi sabablari miflarning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Bu, ayniqsa, hayvonlar va tabiatga oid mifologik syujetlarda ham aniq ko'rinadi. Vaqtlar o'tib, jamiyat shakllanib borgan sari va madaniyatning ilk ko'rinishlari paydo bo'lishi bilan mifopoetik va kosmogonik tushunchalar yanada aniqlashib, mukammallik

kasb eta bordi. Bu jarayon natijasida yangi obrazlar va dunyoning qurilishi modeli paydo bo'ldi. Bunday miflar boshqa turdagi miflar va ko'plab o'xshash folklor janrlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Keyinroq paydo bo'lgan kalendar mif bilan (*turkiy muchal haqidagi afsonalar*) bog'liq marosim va kosmogonik mif klassifikatorlariga, ya'ni *ota - osmon (ko'k)*, *ona - yer, quyosh, oy* kabi obrazlarga o'tdi. Shu tariqa dunyoning paydo bo'lishi haqida yangicha tasavvurlar paydo bo'la boshlagan.

Kosmogonik miflar qatorida *Umay* alohida ta'rifga ega. U bokiralik va unumdorlik ma'budasi. Uning ismi uning kuchlaridan dalolat beradi - turkiy tilda "umay" turkiy ildizi dastlab "*yo'ldosh, tug'ilish*" degan ma'noni anglatadi. Umay boshqa dinlardagi er yoki ona ma'budalariga o'xshaydi. Qadimgi turkiy xalqlar mifologiyasida samoviy kultlar silsilasida Umay mifi katta ko'lamni tashkil etishi bilan alohida ahamiyatlidir. Qolaversa, mazkur mifologik tushuncha turli nomlar bilan atalsa-da, mohiyatan Umay atrofida birlashadi. Buni izohlashdan avval, "uch qavatli olam" nazariyasini esga olishimiz zarur. Qadimgi turkiy miflarga ko'ra, yuqori olamda butun dunyoni (ya'ni, uch olamni) boshqarib turuvchi va uni yaratgan, insonlar umrini belgilovchi, xoqonlarga davlat va kuch beruvchi, adolatli, dono, Ko'k Tangri (falakday xudo) yashagan. "Tangri" so'zi qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda "Xudo" va Osmon (Ko'k) ma'nosida barobar qo'llanavergan. Qadimgi turkiy tilning grammatik ma'no xususiyatlariga asoslanib, mazkur so'z birikmasini "falakday xudo" deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Ko'k Tangri samoviy otda yurgan, degan mifologik tasavvur barcha turkiy qavmlarning ibtidoiy dunyoqarashlarida shakllangan. Masalan, aynan shunday tasavvurni Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit-turk" yodgorligidagi qadimgi qo'shiqlar, savlarda ham uchratishimiz mumkin." [10. 350-b]. Unda keltirilishicha, qadimgi turkiylar, faqat Ko'k Tangrining xohishi bilangina barcha yaxshilik yoki jazolar keladi, deb ishonishgan.

Ko'k Tangri har doim adolatli hukm chiqargan. Shuning uchun ham qadimgi turkiy adabiy yodgorliklar - bitiktoshlarda ham "*Tangri yorlaqasin*" degan ibora uchraydi va Tangriga qurbonliklar qilishgani alohida ta'kidlanadi. Odatda, bu qurbonliklar muqaddas hisoblangan tog'lar cho'qqisida amalga oshirilgan. Oltoy xalqida qurbonlik qayin (Boy qayin) daraxti atrofida o'tkazilgan. Agar qurbonlik qilinadigan joyda qayin daraxti yo'q bo'lsa, qayin tomiri bilan ko'chirib kelingan [11. 264-b]. O'sha yerdagi daraxtlar, toshlar muqaddas hisoblanib, ularga hech kim tegishga jur'at qilmagan. Yana ularning e'tiqodicha, daraxtlarning ham o'z shomon - daraxtlari bo'lgan. Ular bu daraxtlarni "*qam-ag'ash*" deb atashgan [2. 68-b]. Bundan tashqari, xoqonlar qaror chiqarishdan avval Ko'k Tangriga murojaat qilishib, uning roziligini olishga harakat qilganlar [7. 131-b]. "*Kishi o'g'illari*" (bitiktoshdagi ushbu jumla butun insoniyat, ya'ni barcha odamlar degan tushunchani beradi) esa o'zlarini Tangrining quli sifati ko'rishgan va katta qoyalarga, toshlarga matn bitganlaridan so'ng, uni yozgan inson odatda matnni "Tangri quli bitdim" [8. 123-125-b], deb nihoyalagani bejiz emasdir. Ko'proq hollarda, qisqa yozilgan qoyatosh bitiklari shunday matnlar bilan tugagan. Bunday tog' bitiklar geografiyasi juda keng bo'lib, u barcha yerdagi turkiy qavmlar uchun xarakterlidir. Bu singari tosh bitiklar Mo'g'ulistonning O'rxun daryosi bo'ylaridan boshlab, Xitoy (Sharqiy Turkiston), Qirg'iziston, Qozog'iston hamda Rossiyaning turkiy tilli respublikalarida hozirgacha saqlanib qolgan.

Qadimgi turkiy qavmlar ishonchiga ko'ra, tog' cho'qqilari Ko'k Tangriga eng yaqin hudud va Tangri bilan inson o'rtasida ruhiy ma'naviy aloqa joyi hisoblanib, *yerning kindigi* [9.

161-b] deb atalgan. Adolatli, ko'ngli toza, to'g'ri so'z, vataniga sodiq bo'lganlarga Ko'k Tangri yo'ldosh bo'lishiga, vafot etganlaridan so'ng ularni osmon yuqori olamiga olib ketishiga ishonganlar. Ko'k Tangrining timsoli quyosh, uning ustida uchib yuruvchi *burgut* qudratining ramziy timsoli bo'lgan. Umuman olganda, bunday o'xshash syujetlar va ishonchlar boshqa xalqlarda ham mavjud [3. 244-b].

“Irq bitigi”da quyosh kulti alohida ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash joizki, mazkur folnomaning birinchi qismiyoq, quyosh ta'biri bilan boshlanadi. Asarda bayon qilinishicha, agar odam tushda quyoshni ko'rsa, fazoda o'zgarishlar bo'ladi, er yuzida muvaffaqiyat, shod-xurramlik hukm suradi; tushida quyoshni ko'rgan odam ulug' mansablarga, xoqon yoki bekklik lavozimiga ko'tariladi. Darvoqe, bu yodgorlik faqat maishiy hayotdan yoki taqdiridan bayon qiladigan kitobgina emas, balki fazoviy yoki boshqa detallar orqali hayotning ko'p masalalarini qamrab oladi.

Birgina quyosh timsoli ham fikrimizni tasdiqlaydi. Zaminning gullab-yashnashi, yer yuzida ezgulikning tantana qilishi, odamlarning farovon hayoti va boshqa qator masalalar tushda quyosh ko'rishga bog'liq qilib qo'yiladi. Bu ta'bir odamlarning fazoviy jismlarni tushunishdan o'zligidan yoki samoviy kultlar haqidagi tasavvurlari zaifligidan emas, balki fazoviy jismlarni har tomonlama bilishga va bu jismlar bilan o'zlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni topishga intilishidan paydo bo'lgan.

Qadimgi turklarda shomonlik mifologiyasiga ko'ra, ham quyosh ezgulik ramzi sifatida talqin qilingan. Shu sababdan “Irq bitigi”da aytilishicha, quyosh nurlari porlagach, zaminning tuprog'i yosharadi, ko'rk ochadi, oq bulut paydo bo'lib, yomg'ir sochiladi, quyosh nurlarini to'sib turgan chang-to'zon yo'qoladi, oppoq bulutlar ko'tarilib, zamin uzra yomg'ir yog'adi.

Quyosh timsoli Sharq xalqlari mifologiyasida chuqur ildizga ega. Jumladan, shumer kosmogonik mifologiyasida quyosh xudosi Utu, Sibir xalqlaridagi ayol quyosh xudosi, evenklardagi yorug'lik xo'jayini quyosh timsoli bilan qadimgi turk davridagi shomonlik mifologiyasiga asoslangan quyosh kulti o'rtasida hamohanglik kuzatiladi. Turk-mo'g'ul mifologiyasida quyoshning ezgulik ramzi sifatida talqin qilinishi tasodifiy o'xshashlik bilan emas, balki tasavvur-tushunchalarning bir ildizga egaligi bilan izohlanadi.

Quyosh ta'biri, ta'burchining talqiniga ko'ra, inson hayotida ko'p muammolarning hal qiladi. Kimdir faqat bekklik yoki xoqonlik martabasigagina erishib qolmasdan, uning orzu-istaklari ham bajo bo'ladi. Quyidagi parchalar yuqorida keltirilgan fikrlarga dalil bo'la oladi:

Hech kim bilmagan noming yuksaladi,

Kichik noming obro' topadi,

O'g'il bola istasang toparsan,

Mol-dunyo istasang, qo'lga kiritasan,

Yo'lingdagi to'siqlar tuguni yechiladi,

So'zing, amring tinglanadi.

Ko'k Tangrining ramziy rang obrazi *ko'kdir*. Shu o'rinda Tangri, ya'ni osmon (quyosh-kun ham shunga kiradi) bilan bog'liq mifologik tasavvurlar Markaziy Osiyo va Janubiy Sibir xalqlarida eramizdan avvalgi birinchi mingyilliklarda paydo bo'lganligini aytib o'tish zarur [5. 3-b]. Bundan tashqari, Gerodot o'zining “Tarix” asarida qadimgi turkiy xalqlar ajdodlari bo'lgan skiflar va massagetlar quyoshga topinishlari haqida aytib o'tgan. [6. 188-190-b]. Moniy

aqidalariga asoslangan qadimgi turkiy adabiyot namunalaridan biri "Xaustuanift"da ham Kun Tangri obrazi mavjud. Xususan, mazkur kitobning ikkinchi, oltinchi, o'ninchi, o'n uchinchi bo'limlarida Kun Tangriga alohida to'xtalinadi. Moniylik oqimidagi she'rlarda ham Kun Tangri obrazi alohida o'rin tutadi [14. 28-37-b].

Yuqorida qayd etilganidek, o'zbek xalq samoviy afsonalarining shakllanishida kosmogonik mifologiya birlamchi epik asos vazifasini bajargan. Olamning yaratilishi, osmon va yerning ajralishi, dunyoning vertikal va gorizontal tuzilishi haqidagi qadimgi mifologik tasavvurlar keyinchalik afsona va rivoyatlar tarkibida mustaqil syujet sifatida yashab qolgan. Bu holat mifning dastlabki semantik yadrosi saqlangan holda uning janriy transformatsiyaga uchraganini ko'rsatadi.

Ertak janriga o'tish jarayonida esa mifologik obraz va motivlar yanada murakkab badiiy qayta ishlovdan o'tadi. Buni "Kenja botir" ertagi misolida kuzatish mumkin. Unda quyosh kultiga oid mifologik qarashlar bevosita diniy yoki kosmogonik mazmundan ajralib, qahramonlik va sarguzasht kontekstida poetik obraz sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonda mifologik kod o'z o'rnini ijtimoiy-estetik kodga bo'shatadi, biroq uning ratsional mag'zi, ya'ni asosiy semantik mohiyati saqlanib qoladi.

Shuningdek, mifologik obrazlarning ramziy transformatsiyasini ham aniq misollar orqali ko'rib chiqamiz. Masalan, "Ko'k Tangri" bilan bog'liq samoviy tasavvurlar ertak va dostonlarda ko'k rang, qush, xususan, kaptar timsoli orqali ifodalanadi. Bu esa mifologik ramzlarning badiiy obrazga aylanish jarayonini ko'rsatadi. Natijada, dastlab ilohiy va kosmik mazmunga ega bo'lgan tushunchalar folklorda estetik va obrazli ifoda vositasiga aylanadi.

Bundan tashqari, mifologik qarashlarning marosim folkloriga ko'chishi ham muhim transformatsiya shakli sifatida yoritilgan. Tog' cho'qqilarida qurbonlik qilish, muqaddas daraxtlarga sig'inish, tabiat unsurlarini ruhiy kuch sifatida qabul qilish kabi holatlar mifologik e'tiqodlarning amaliy va marosimiy shaklga o'tganini ko'rsatadi. Bu yerda mif endi faqat tasavvur emas, balki ijtimoiy-amaliy faoliyatning bir qismiga aylanadi.

Quyosh kulti bilan bog'liq talqinlar ham folklarga o'tishning yana bir muhim ko'rinishi sifatida tahlil qilinadi. "Irq bitigi"dagi tush ta'birlarida quyoshning ezgulik, farovonlik va hokimiyat ramzi sifatida talqin qilinishi kosmogonik mifologiyaning xalq e'tiqodi va kundalik tafakkuriga chuqur singib ketganidan dalolat beradi. Bu jarayonda mifologik tushuncha individual va ijtimoiy hayotni izohlovchi vositaga aylanadi.

Umuman olganda, maqoladagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kosmogonik miflar o'zining dastlabki diniy va kosmik mazmunini yo'qotmasdan, balki uni yangi shakllarda davom ettirgan holda folklor janrlarining shakllanishi va rivojida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan. Transformatsiya jarayoni uzluksiz va ko'p bosqichli xarakterga ega bo'lib, unda mifologik obrazlar va motivlar afsona, rivoyat, ertak, doston hamda marosim folklori tarkibida yangi semantik va estetik vazifalarni bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda aks etgan kosmogonik miflar nafaqat diniy-e'tiqodiy qarashlarning mahsuli, balki turkiy xalqlarning dastlabki badiiy tafakkuri va dunyoqarash tizimining konseptual asosini tashkil etadi. Ushbu miflar o'zining sinkretik tabiati bilan ajralib turib, unda diniy, falsafiy, estetik va ijtimoiy qarashlar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, Ko'k Tangri, Umay, Erlik kabi asosiy mifologik obrazlar hamda quyosh, osmon, yer kabi samoviy va tabiiy kultlar turkiy mifologik tizimning markaziy

komponentlari hisoblanadi. Ular nafaqat kosmogonik tasavvurlarni ifodalaydi, balki keyingi davrlarda folklor janrlarida badiiy transformatsiyaga uchrab, yangi estetik mazmun kasb etadi. Ayniqsa, mifologik obrazlarning afsona, rivoyat va ertaklar tarkibida saqlanib qolishi ularning semantik yadrosi barqarorligini tasdiqlaydi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Акрамов Г. “Хамса”да мифологик замон ва макон талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1997. №2. – Б.78-81.(Akramov G. “Xamsa” da mifologik zamon va makon talqini// O‘zbek tili va adabiyoti).
2. Алексеев Н.А. Ранние формы религии тюркоязычных народов Сибири. – Новосибирск: Наука, 1980. – С.68.(Alekseev N.A. Ranniye formi religii tyurkoyazichnix narodov Sibiri. – Novosibirsk: Nauka, 1980. – S.68.)
3. Кудаева З.Ж. К символике «верха» в адыгской мифопоэтической традиции // Эпический текст: проблемы и перспективы изучения: Материалы I Международной научной конференции. Ч. I. – Пятигорск: ПГЛУ, 2006. – С.244.
4. Безертинов Р.Н. Тенгрианство – религия тюрков и монголов. – Казань: Слово, 2004. – С.7.
5. Габышев Е.С. Культ солнца в мифологии якутов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – СПб., 1999. – С.3.
6. Геродот. История: в девяти книгах. – М.: 1993. – С.188-190.
7. Кляшторный С.Г. Мифологические сюжеты в древнетюркских памятниках // Тюркологический сборник. – М.: 1981. – С.131.
8. Кляшторный С.Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – СПб.: Наука, 2006. – С.123-125.
9. Каруновская Л.Э. Представления алтайцев о вселенной (Материалы к алтайскому шаманству) // Советская этнография. – 1935. №4-5. – С. 61.
10. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. II том. – Тошкент: 1961. – Б.350.
11. Потапов Л.П. Алтайский шаманизм. – Л.: Наука, 1991. – С.264.
12. Рахмонов Н.А. Поэтика памятника Кюль Тигина: Дисс.,...канд. филол. наук. – Т.: 1983. – С.10.
13. Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi // O‘zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent: Fan, 1981. – B.5.
14. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. I жилд / Тузувчи: Рахмонов Н. – Т.: Fan, 2005. – Б.28-37.

ТЇЛ, ТА’ЛИМ, ТАЇЖИМА ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Xujanova Gulchexra,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi ademik litsey
Toshkent, O‘zbekiston

ALISHER NAVOIYNING “HIBAT UL-HAQOYIQ” ASARIDA SHE’RIY SAN’ATLARNING QO‘LLANILISHI

ANNOTATSIYA

“Hibat ul-haqoyiq” (XI–XII asrlar) Ahmad Yugnakiyga mansub didaktik-badiiy asar bo‘lib, unda axloqiy, ijtimoiy va ma‘rifiy g‘oyalar she‘riy shaklda ifodalangan. Asar turkiy adabiyotda didaktik janrning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Asarda tashbeh, isti‘ora, tazod va takror san‘atlari keng qo‘llanilib, muallifning axloqiy-falsafiy g‘oyalari ta‘sirchan va esda qolarli tarzda ifodalanadi. Tashbeh va isti‘ora murakkab tushunchalarni sodda obrazlar orqali yetkazsa, tazod insonni axloqiy qarorlar chiqarishga undaydi. Takror san‘ati esa asosiy nasihatlarini mustahkamlash va o‘quvchi e‘tiborini markaziy g‘oyaga qaratishga xizmat qiladi. Asarda diniy tushunchalar va tarixiy shaxslar bilan bog‘liq talmehlar mavjud bo‘lib, asarning ma‘naviy mazmunini boyitadi.

Kalit so‘zlar: tashbeh, isti‘ora, she‘riy san‘atlar, she‘riy shakl, badiiy yuksaklik, ma‘rifiy g‘oyalar.

Хужанова Гульчехра,
кандидат филологических наук, доцент
Академический лицей им. М.С. Восиковой при Ташкентском государственном
университете
Ташкент, Узбекистан

АЛИШЕРА НАВОИ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОЭЗИИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ХИБАТ УЛЬ-ХАКОЙИК»

АННОТАЦИЯ

«Хибат ул-хакаик» (XI–XII века) — дидактическое художественное произведение Ахмада Югнакийя, в котором нравственные, социальные и образовательные идеи выражены в стихотворной форме. Произведение занимает важное место в истории тюркской литературы, особенно в дидактическом жанре. В тексте широко используются художественные приёмы: сравнение, метафора, антитеза и повторение. Сравнения и метафоры помогают раскрыть сложные нравственные идеи

через наглядные образы; антитеза позволяет читателю различать добро и зло; повторение усиливает воздействие наставлений и фокусирует внимание на основной мысли. Упоминания религиозных понятий и исторических личностей связывают произведение с исламской образовательной традицией, обогащая его духовное содержание.

Ключевые слова: метафора, сравнение, поэтическое искусство, поэтическая форма, художественное совершенство, просветительские идеи.

Xujanova Gulchexra,
Candidate of Philological Sciences,
Associate Professor
Academic Lyceum named after
M.S. Vasigova under TSLU
Tashkent, Uzbekistan

ALISHER NAVOI'S THE USE OF POETIC DEVICES IN THE WORK “HIBAT UL-HAQOYIQ”

ABSTRACT

“Hibat ul-haqoyiq” (11th–12th centuries) by Ahmad Yugnakiy is a didactic literary work in which moral, social, and enlightenment ideas are expressed in poetic form. The work holds an important place in the history of Turkic literature, particularly in the didactic genre. Simile, metaphor, antithesis, and repetition are widely employed throughout the work, allowing the author’s moral and philosophical ideas to be conveyed in an expressive and memorable manner. Similes and metaphors convey complex moral concepts through simple imagery; antithesis encourages readers to discern between right and wrong; repetition reinforces key teachings and draws attention to central ideas. References to religious concepts and historical figures connect the work to the Islamic educational tradition, enriching its spiritual and moral content.

Keywords: metaphor, simile, poetic devices, poetic form, artistic excellence, enlightenment ideas.

“Hibat ul-haqoyiq” (XI–XII asrlar) — Ahmad Yugnakiy qalamiga mansub didaktik-badiiy asar bo‘lib, unda axloqiy, ijtimoiy va ma’rifiy g‘oyalar she’riy shaklda ifodalangan. Asarning ta’sirchanligi va badiiy yuksakligi, avvalo, she’riy san’atlarning mahorat bilan qo‘llanishi bilan belgilanadi.

Turkiy adabiyot tarixida didaktik asarlar muhim o‘rin egallaydi. Bunday asarlar jamiyat axloqi, inson kamoloti, ilm va ma’rifat masalalarini badiiy shaklda ifodalashga xizmat qilgan. Shu jihatdan Ahmad Yugnakiy tomonidan yaratilgan “Hibat ul-haqoyiq” asari nafaqat mazmunan, balki badiiy jihatdan ham yuksak adabiy yodgorlik hisoblanadi. Asarning ta’sirchanligi unda qo‘llangan she’riy san’atlar bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu maqolada asardagi asosiy she’riy san’atlarning badiiy va g‘oyaviy vazifasi tahlil qilinadi.

Quyida asarda uchraydigan asosiy she’riy san’atlar va ularning vazifasi yoritiladi:

“Hibat ul-haqoyiq” asarida tashbeh va istioraning qo’llanilishi

Ahmad Yugnakiyning “**Hibat ul-haqoyiq**” asari badiiy san’atlarga boyligi bilan ajralib turadi. Asarda didaktik va falsafiy g’oyalarni chuqurroq ochib berishda **tashbeh** va **isti’ora** muhim o’rin egallaydi. Ushbu san’atlar orqali muallif murakkab axloqiy tushunchalarni sodda, ammo ta’sirchan obrazlar yordamida ifodalaydi.

Asarda **tashbeh** eng ko’p uchraydigan badiiy vositalardan biridir. Xususan, ilmning nurga, jaholatning zulmatga qiyoslanishi muallifning asosiy g’oyasini yaqqol namoyon etadi. Nur insonni to’g’ri yo’lga boshlovchi kuch sifatida tasvirlansa, zulmat adashish va bilimsizlik ramzi sifatida beriladi. Bu tashbehlar o’quvchiga ilmning hayotdagi o’rni va ahamiyatini aniq anglashga yordam beradi.

Istiora esa asarda yanada chuqurroq ramziy ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Quyidagi bayt bunga yaqqol misoldir:

*Tiling bekta tutg’il tishing sinmasun,
 Qoli chiqsa bekta tishingni siyur.*

Mazkur baytda tilning “tishni sindirishi” isti’ora sifatida qo’llanilgan. Bu yerda til bevosita jismoniy kuch sifatida emas, balki inson taqdiriga, obro’siga va hayotiga zarar yetkazuvchi qudratli vosita sifatida talqin qilinadi. So’zini tiyolmagan insonning tilidan chiqadigan gaplar unga kulfat keltirishi mumkinligi ramziy tarzda ifodalanadi. Ushbu isti’ora so’z mas’uliyati g’oyasini kuchli badiiy ifoda bilan ochib beradi. Shuningdek, dunyo tasviri orqali ham tashbeh va isti’ora uyg’unlashadi:

*Ochun kulcherar boz elin qoshchetar,
 Bir elkin tutib shahd biri zahar qotar.*

*Dunyo kulib boqadi yana qosh va manglayi bilan ho’mrayadi;
 Bir qo’li bilan bol tutsa, ikkinchi qo’li bilan zahar qo’shadi.*

Bu misralarda dunyo inson sifatida gavdalantirilib, uning ikkiyuzlamachi tabiati tasvirlanadi. “Bol” va “zahar” obrazlari orqali dunyoning bir paytning o’zida lazzat va balo keltirishi ramziy ma’noda ifodalanadi. Bu holat kuchli isti’ora bo’lib, dunyo ne’matlarining o’tkinchi va aldovchi ekanini anglatadi. Shu bilan birga, bolning shirinlikka, zaharning halokatga qiyoslanishi tashbeh unsurlarini ham o’zida mujassam etadi. Asarida tashbeh va isti’ora muallifning axloqiy-falsafiy qarashlarini chuqur va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Bu san’atlar orqali asar mazmuni boyib, o’quvchi ongida hayot, so’z mas’uliyati va dunyoning mohiyati haqidagi mushohadalar yanada chuqurlashadi.

Tazod san’ati va axloqiy qarama-qarshilik

“Hibat ul-haqoyiq”da **yaxshi va yomon, to’g’ri va yolg’on, ilm va jaholat, adolat va zulm, chin so’z va yolg’on so’z** kabi zid tushunchalar tazod asosida beriladi. Bu qarama-qarshiliklar asarning didaktik mazmunini kuchaytirib, muayyan axloqiy g’oyani aniq va ta’sirli ochishga xizmat qiladi. Quyidagi baytda tazod san’ati yaqqol namoyon bo’ladi:

*Ko’ni so’z asal tek bu yalg’on basal,
 Basal yeb achitma ag’iz ye asal.*

Bu baytda *to’g’ri so’z* asalga, *yolg’on so’z* esa sarimsoq piyozga qiyoslanadi. Asal shirin va foydali bo’lsa, sarimsoq piyoz og’izni achitadi. Shu orqali muallif to’g’ri so’zning qadrini ulug’laydi, yolg’on so’zning zararini esa keskin tanqid qiladi. “To’g’ri” va “yolg’on”

so'zlari antonimlik munosabatida kelib, kuchli tazodni hosil qilgan. Yana bir baytda bu fikr davom ettiriladi:

Yo yolg'on so'z yigtek ko'ni so'z shifo,

Bu bir so'z o'zag'i urulmish masal.

Bu yerda *yolg'on so'z* kasallikka, *chin so'z* esa shifoga qiyoslanadi. "Kasallik" va "shifo", "yolg'on" va "chin" tushunchalari o'zaro zid ma'nolarni ifodalab, tazod san'atining yorqin namunasi bo'lib xizmat qiladi. Natijada chin so'zning inson hayotidagi ijobiy ahamiyati, yolg'onning esa zararli oqibatlari ochib beriladi.

"Hibat ul-haqoyiq" asarida tazod san'ati muallifning asosiy g'oyalarini ochishda muhim badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Qarama-qarshi tushunchalar orqali o'quvchi yaxshilik va yomonlikni farqlashga, axloqiy jihatdan to'g'ri xulosa chiqarishga undaladi. Shu sababli tazod san'ati asarning tarbiyaviy va badiiy qiymatini yanada oshiradi.

Takrorning ta'sirchanlikdagi roli

Adabiyotda va tarbiyaviy matnlarda takror san'ati muhim o'rin tutadi. Takror yordamida muallif asosiy fikrni yanada mustahkamlash, o'quvchi e'tiborini muhim g'oyaga qaratish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, takror san'ati o'quvchini xabardor qilish, nasihatlarini chuqurroq anglatish va ta'sirchanlikni oshirish vazifasini bajaradi.

Ilm-fan va odob haqida yozilgan asarlarda tez-tez ilmning foydasi yoki jaholatning zarari mubolag'a yo'li bilan bo'rttirib tasvirlanadi. Bu bo'rttirishlar tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi, chunki ular o'quvchining ongida kuchli taassurot qoldiradi va to'g'ri xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan, xalqimizning maqol va nasihatlarida takror san'ati aniq ko'zga tashlanadi:

"Ko'ni bo'l, ko'ni qil, otin ko'ni,

Ko'ni teyu bilsun xaloyiq seni."

Bu jumla o'quvchiga oddiy, lekin muhim hayotiy nasihatni yetkazadi: to'g'ri bo'lish, to'g'ri ish qilish va shu bilan boshqalarning hurmatini qozonish zarurligini. Takror orqali ushbu g'oya yanada ta'sirli va esda qolarli bo'ladi.

Shunday qilib, takror san'ati nafaqat adabiy go'zallikni oshiradi, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lib, o'quvchida muhim xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi.

Asarda Qur'on oyatlari, diniy tushunchalar va tarixiy shaxslar bilan bog'liq ishoralar (talmeh) uchraydi. Bu hol "Hibat ul-haqoyiq"ni islomiy-ma'rifiy an'ana bilan bog'lab, uning ma'naviy mazmunini yanada boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, "Hibat ul-haqoyiq" asarida qo'llangan she'riy san'atlar badiiy bezak vazifasidan tashqari, muhim g'oyaviy-ma'rifiy vazifani ham bajaradi. Ahmad Yugnakiy she'riy san'atlar yordamida axloqiy nasihatlarini ta'sirchan, ravon va tushunarli shaklda ifodalashga erishgan. Ushbu jihatlar asarni turkiy didaktik adabiyotning yuksak namunasi sifatida baholashga asos bo'ladi.

Iqtiboslar/ Snoski/ References

1. Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. - G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent-1971. – B.85.
2. G.Xujanova. “Hibat ul-haoyiq haqiqatlari”. - G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent-2001. – B.105.
3. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. -Toshkent, 1976. – B. 90.
4. Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari haqida. - Toshkent, 1972. – B. 123.

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Djurakulova Elmira

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey
Toshkent, O'zbekiston

SHOYIM BO'TAYEVNING "QO'RG'ONLANGAN OY" ROMANIDA SHAHAR XRONOTOPINI O'QITISH METODIKASI

ANNOTATSIYA

"Shox" romanida uchrashuv, yo'l ayniqsa, shahar xronotopi Hotam va uning manfur rejalarini ro'yobga chiqarish vositasi sifatida keltiriladi. Qulmahmudning nafs ketidan tubsiz chohga yiqilish va bedavo dardga muhtalolik adib konsepsiyasining mag'zini tayin etadi. Zero, ushbu xronotop shakllari sujet va kompozitsion yaxlitlik sintezini maromiga yetishida kalit vazifasini o'taydi.

Global dunyo hasratlaridan so'z yuritgan yozuvchi Sh.Bo'tayev bundan yigirma yillar ilgari hayot konsepsiyasini chamalashga kirishadi. Odamlar ruhiyatidagi ajib o'zgarishlar, maslak yo'sinidagi qirg'inbarotlar, urushlar va to'qnashuvlarning asl basharasi – iqtisodiy qaram bo'lgan xalqlarni o'z girdobiga tortish, ularni janob Ximer kabi boshqarish geosiyosiy ixtiloflarni boshlash shular jumlasidandir. Yozuvchi buyuk davlatlarning kuch va qudrati – iqtisodiy yuksalikda deb, biladi. Ana shu mezon yozuvchining olomonchilik kayfiyati tufayli qaram va mute bo'lib qolish, qudratli mamlakatlarning qaramog'iga o'tish, ular tomonidan boshqarilish mexnizmlariga tobelik kayfiyati bir dam tinch qo'ymagan adibni. Bu yerda boshqa yana o'nlab sabab va oqibatlar borki, insoniyat ruhiyati tanazzuli, ong va uni rivojlantirish dasturlarining yuz yillik oldingi rejaları haqida ham batafsil ramziy-majoziy talqinda namoyon qilganligi ayni haqiqatdir.

Kalit so'zlar: xronotop, shahar, yozuvchi konsepsiya, vaqt, zamon, makon.

Dzhurakulova Elmira

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Academic Lyceum named after M.S.Vosikova under TSUL
Tashkent, Uzbekistan

METHODOLOGY OF TEACHING THE URBAN CHRONOTOPE IN THE NOVEL "FORCED MOON" BY SHOYIM BUTAEV

ABSTRACT

In the novel "Shokh", the chronotopes of meeting, road, and especially the city are presented as a means of realizing Hotam and his sinister plans. Kulmahmud's fall into a bottomless pit of desire and his affliction with an incurable illness determine the essence of the author's conception. Indeed, these chronotope forms play a key role in achieving the synthesis of plot and compositional integrity.

Writing about the sorrows of the global world, the author Sh. Butayev began formulating his conception of life some twenty years ago. Among the subjects he addresses are the remarkable shifts in human psychology, the devastating clashes of conviction, the true face of wars and conflicts - drawing economically dependent peoples into their vortex and governing them like Mr. Khimer - and the initiation of geopolitical disputes. The writer understands the strength and power of great states to lie in economic prosperity. This very criterion never let the author rest, preoccupied as he was with the mood of becoming subjugated and submissive through mob mentality, falling under the dominion of powerful states, and being subject to the mechanisms by which they are governed. There are dozens of other causes and consequences at play here, and it is entirely true that he has also rendered, in detailed symbolic and allegorical interpretation, the decline of the human spirit and the century-old plans for developing consciousness and its advancement programs.

Keywords: chronotope, city, author's conception, time, era, space.

Джуракулова Эльмира

Доктор философии (PhD) по филологии

Академический лицей имени М.С.Восикова при ТДЮ

Ташкент, Узбекистан

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ГОРОДСКОГО ХРОНОТОПА В РОМАНЕ ШОЙИМА БОТАЕВА «ЗАКРЫТАЯ ЛУНА»

АННОТАЦИЯ

В романе «Шох» встреча, дорога и особенно городской хронотоп представлены как средство реализации коварных планов Хотамы. Падение в бездонную яму и страдание от неизлечимой болезни из-за погони за похотью определяют суть концепции писателя. Ведь именно эти формы хронотопа играют ключевую роль в достижении синтеза сюжетной и композиционной целостности.

Писатель Ш. Бутаев, говоря о томлениях глобального мира, двадцать лет назад начал формулировать концепцию жизни. К ним относятся странные изменения в человеческой психике, истинная природа войн и конфликтов, заманивание в ловушку экономически зависимых стран, манипулирование ими, как мистер Химера, и инициирование геополитических конфликтов. Писатель знает, что сила и могущество великих стран заключается в их экономическом превосходстве. Критерием этим является склонность писателя становиться зависимым и немым из-за своего стадного

менталитета, попадать в зависимость от могущественных стран и подчиняться их контрольным механизмам, которые не оставляли ему ни минуты покоя. Здесь есть десятки других причин и следствий, которые являются той же истиной, что деградация человеческого духа, сознания и программ его развития, также раскрыты в подробной символично-образной интерпретации, еще столетие назад.

Ключевые слова: хронотоп, город, писательская концепция, время, пространство.

Taniqli yozuvchi Sh.Boʻtayevo poetik izlanishlarida shu narsa yanada yaqqol namoyon boʻlmoqdaki, “Shox” romanida makon va zamonning – shahar tipidan ham mahorat bilan foydalanilgan. Adib ushbu romanni yozishda shahar xronotopi orqali janob Ximer va Larisa Ziganshina xarakterlarini keng qamrovli tarzda tavsiflaydi. Romandagi aksariyat asosiy voqealar qishloq va shahar oraligʻida (yoʻl uchrashuvida) kechadi. Qishloq – bir maqsadni amalga oshirish vositasi boʻlsa, shahar roman poetikasida yozuvchining asosiy ijodiy kredosini belgilab beradi. Mana shu jihatdan olib qaralganda, yozuvchining shahar xronotopiga ramziy-majoziy tus berishi ham bejiz emas. Janob Ximer singari hayot boshqaruvini oʻz qoʻliga olgan, odamlarning ruhiyatini teran idrok qila oladigan, har qanday razil niyatlarini amalga oshirishda olomonning maslak-intilishlarini oldindan sezadigan, yoʻldan ozdiradigan darajada firib odamning asl niyatini bilish qiyin emas.

Global dunyo hasratlaridan soʻz yuritgan yozuvchi Sh.Boʻtayevo bundan yigirma yillar ilgari hayot konsepsiyasini chamalashga kirishadi. Odamlar ruhiyatidagi ajib oʻzgarishlar, maslak yoʻsinidagi qirgʻinbarotlar, urushlar va toʻqnashuvlarning asl basharasi – iqtisodiy qaram boʻlgan xalqlarni oʻz girdobiga tortish, ularni janob Ximer kabi boshqarish geosiyosiy ixtiloflarni boshlash shular jumlasidandir. Yozuvchi buyuk davlatlarning kuch va qudrati – iqtisodiy yuksalikda deb, biladi. Ana shu mezon yozuvchining olomonchilik kayfiyati tufayli qaram va mute boʻlib qolish, qudratli mamlakatlarning qaramogʻiga oʻtish, ular tomonidan boshqarilish mexnizmlariga tobelik kayfiyati bir dam tinch qoʻymagan adibni. Bu yerda boshqa yana oʻnlab sabab va oqibatlar borki, insoniyat ruhiyati tanazzuli, ong va uni rivojlantirish dasturlarining yuz yillik oldingi rejalari haqida ham batafsil ramziy-majoziy talqinda namoyon qilganligi ayni haqiqatdir.

Yozuvchi N.Eshonqulning fikricha: “Yozuvchi qaysi shaklda fikrini ayta olsa, oʻsha janrdir. Prust xuddi shaxtyorga oʻxshaydi. Farqi shuki, shaxtyor yer ostini tobora chuqurroq kavlab boradi. Prust esa inson qalbini oʻz asboblari – psixoanalitik uslub bilan chuqurroq kavlaydi. Prust inson qalbini kavlashtirishda bitta shaxtyor vazifasini oʻtamaydi. Bir necha shaxtyor sifatida ish koʻrib inson tafakkurining qoʻrongʻu burchaklaridagi “ashyo”larni qazib oladi. “Zavol topgan vaqt izidan” – romani agar yetti kitobdan iborat faqat kechinmalar va hislar, kayfiyat, mayllar va xotiralarga qurilgan asarni roman deyish mumkin boʻlsa – jahon adabiyotini yana bir pogʻona yuqori koʻtardi; uning tasvir imkoniyatlarini kengaytirdi. Prust adabiyotni inson hayoti va faoliyati inʼikosi degan qarashni adabiyot inson mayllarini, kechinmalarini oʻrganuvchi fan va bu fan inson haqida eng toʻgʻri xulosa bera oladi degan tushuncha bilan boyitdi. Uning asarlarida ruhshunoslik adabiyot bilan jozibali tarzda uygʻunlashib ketdi” [1]. Darhaqiqat, Marsel Prustning ijodiy konsepsiyasida bahra olgan yozuvchi Sh.Boʻtayevo ham har ikki romanida inson qalbi, ruhiyatining teran bilimdoni sifatida namoyon boʻladi.

Ayniqsa, Murtazo va Hotam, Qulmahmud va janob Ximer ruhiyatidagi uzil-kesil o'zgarishlarni teran idroklab bergan qator lavhalarda buning guvohi bo'lamiz. Yozuvchi jamiyat va inson ruhiyatini ichdan turib tasvirlaydi. Shu tariqa o'tgan zamon va bugungi hayot, ertangi taqdirlararo kechmishlarga o'z shaxsiy munosabatini xilma-xil epizodlar yordamida bildirishga kuch topa biladi. Yozuvchi romanlaridagi shahar xronotopini aniqlashda odamlarning ruhiyatidagi – nafsoniy va shahvoniy istaklarini anglaganligini, ularning mutassil fojeli sari odimlashini butun-murakkabligicha, ro'y-rost idroklay olgani uchun qo'llagan usullari samarasi deb qarash lozim. Chunki shahardagi olomonchilik kayfiyati asar qahramonlari intilishlarida yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Shuni alohida qayd etish lozimki, shahar xronotopi yozuvchiga benihoya tahlil maydoni bo'lib xizmat qilgan: "Oltin shox" shou dasturi o'tkaziladigan saroyda bir hafta burun mashq-repetitsiya boshlab yuborildi. Kapalaknusxa bo'yinbog' taqqan, ko'zlari kosasidan sachrab chiqqudek bir yigit saroy eshigida nomzodlarni repetitsiya uchun belgilangan vaqtda kutib olar edi. Kim keldi, kim kelmadi, deb ularni bir-bir tekshirib chiqar edi. Bir tomondan ikkinchi tomonga o'tkazib sanab ko'rar ekan. Hamma yetib kelganidan keyin ortidan ergashtirib, zalga boshlab kirar edi. Bu yigit "Oltin shox" shou dasturining rejissyori ekan. Kimning qayerda o'tirishini, nomi aytib chaqirilganda qanday harakat qilishi kerakligini o'rgatar edi. Hamma smoking kiyib kelishi shart, dedi u. Yozuvchi nomzodlardan biri smokingsiz bo'lmas ekanmi, deb po'ng'illagan edi, rejissor buni eshitib qolib, smokingsiz sira bo'lmaydi, chunki, bu shou dasturni butun dunyo ko'radi, shuning uchun gapni ko'paytirmay aytganimni qilishga majbursizlar, dedi. Nomzodlardan biri, bunaqada hammamiz artist bo'lib ketamizku, deya luqma tashlagan edi, bu ibora rejissyorni nihoyatda quvontirib yubordi, dik-dik sakragancha, ha-a, ana endi to'g'ri topdingiz, hammalaringiz artist bo'lishlaringiz kerak, jilla qursa, o'zlaringizni shunday deb, men men emas, men meni rolini ijro etayotgan artistman, deb o'ylashlaringiz kerak, dedi"[2].

Mana shu parchada shaharda ro'y berishi mumkin bo'lgan asosiy voqelik xronotopi qalamga olinadi. Yozuvchi "Oltin shox" shou dasturi tashkilotchisi va g'oya muallifi janob Ximerning shaytoniy qiyofasini olomonlarni boshqarish usulida teran idroklaydi. Janob Ximer asarda ko'p qirrali shayton obrazi bo'lishiga qaramay, u bir vaqtning o'zida ham diplomat, ham siyosatshunos, ham rahbar, ham biznesmen, ham ruhshunos, ham firibgar inson qiyofasida gavdalanadi. Bir-biriga tutashgan segmentlarda yozuvchining kreativ fikrlashga moslashtirilgan janob Ximer bu dunyoda aql va yo'ldan ozdiruvchi qiyofa sohibi deya isbotlaydi. Aslida, janob Ximer insonning intellektual kapitalga, bozorga moslashuvchanlik kayfiyatida yashayotgan olomon ruhiyatini yaxshi bilganligini idroklash orqali shunga o'xshagan odamlarni haqqoniy asl niyatini o'qirmanga tanishtirishdan iborat ekanligini dalolatlashdir.

Yozuvchining janob Ximer kabi odamlardan hech qachon yaxshilik chiqmasligini, yaxshilik chiqsa ham o'z manfaati yo'lida ro'parasidagi hamkorni qurbon qilib yuborishini ko'rsatishi zamirida – dunyo qiyofasining hozirgi ravishini anglatishdan muhim narsa yo'q deb biladi. Romantika davri o'tganligi, endilikda dunyoni aql va manfaatdor shaxslar boshqaruvga olganini idroklashi bu ayni haqiqatdir. Negaki, insoniyat ruhiy tanazzul jarligi yoqasida turgan bir pallada, vaqtning g'izillab o'tishi, inson qadri qiymatsizlanib borishi, odam savdosi, har xil mayda-mayda urushlar, geosiyosiy maydonning ich-ichidan nurab borishini ommaga tanishtirish ekanligi ayonlashadi. OITS, giyohvandlik, vabo singari ofatlar katta gegemon davlatlarning ishi ekanligi romanda janob Ximer va shahar ichkarisida bo'layotgan talato'plar

misolida bilish qiyin emas. Aynan milliy qadriyatlarning darz ketishi, o'zaro mehr-shafqat tushunchasining anqoning urug'idek oradan ko'tarilishi, iymon-e'tiqodning sinishi kabilar shular jumlasidandir.

Sh.Bo'tayev sayg'oq shoxi va uning organzim uchun foydali va zararli xususiyatlarini aniqlash tibbiyotning ilgari ketishi, yurak, jigar, buyrak translatsiyasi, kamqonlik, rak va boshqa o'tkir bedavo kasalliklarning bilimdoni doktor Rabinovich singari zakiy professorlarning ham pul va manfaat yo'lida odamni tajriba vositasi sifatida ko'rishi roman konsepsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, bu yerda faqat tabiatning "Qizil kitob"iga kiritilgan sayg'oqning bir juft shoxi orqali ko'plab hayotiy haqiqatlarni fosh qilinishi real mohiyatga evrilgan. Ramziy-majoziy talqin janob Ximer kabi razil kimsalar tiynatida yanada qabarib ko'rinadi. Masalaning mohiyatiga zimdan nazar tashlaydigan bo'lsak, romanda shahar xronotopiga alohida nuqtayi nazar bilan yondashilganligini his qilamiz. Zino va fahsh, ichkilik va qimorbozlik kabi yaramas illatlarning chegara bilmas ko'payib ketishi, shayton yo'rig'ida kun kechirishga odatlanib qolgan inson botiniy olami va yashash tarzining nihoyatda og'riqli manzarasi Hotam, Qulmahmud, Lariza Ziganshina, Nadya kabi xarakter talqinida yanada aniqroq namoyon bo'lgan. Shuni qayd etish lozim, Sh.Bo'tayev umuminsoniy muammolarni ikki savdogar yigit timsolida kechgan turfa xil voqealar fonida ko'rsatishga erishgan.

Prof. H.Umurov talqinicha: "Yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi va yangidan ta'sirli va jonli, tabiiy va go'zal tipik va yaxlit narsa yaratadi. Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit sujetni yuzaga keltirishda ham sodir bo'ladi. Adabiyotda hatto birgina obrazning portreti ham bir necha yoki o'nlab real kishilarning tashqi ko'rinishlarini jamlashdan, yoki hayotda ko'rgan, bilgan kishilarning o'z xotirasida qoldirgan ko'rinishlarini o'z xotirasiga keltirishdan; ularning qiyofalaridan keragini tanlashdan va konkret qahramonda mujassamlashtirishdan yaratiladi"[3]. Ko'rinadiki, yozuvchi hayot bilan badiiy va to'qima hayotni uyg'unlashtirmas ekan, sujetda mantiqiy izchillik saqlanmaydi. Kompozitsion yaxlitlik ko'zga ko'rinmaydi.

Alohida kishilar ruhiyatini bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarini saralashi, ularning asarda ishtirok etish maydoni, vazifasi singari komponentlar yig'indisi bir butunlik kasb etib, roman poetikasini yuzaga keltiradi.

Sh.Bo'tayev asardagi o'tmish va bugun orasida kechgan mislsiz jarayonlarning ildizi – Odam ato va Momo havodan kelayotgan gunohning bir ko'rinishi deb, tavsiflaydi. Ta'qiqlangan meva asorati va shaytonga hay bermaslik oqibatida butun insoniyatga – tavba qo'llarini, eshiklarini ochib berilishi va unga amal qilmaslikning natijasi deya talqin qilgan.

Demak, Qulmahmud ana shunday kishilarning bittasigina xolos. Unga o'xshagan nafs ammora qiyofasida umr kechirayotgan millionlab jonlar bor. Yozuvchi tavba va tazarru qilman odam pok hamda ozoda yashash tarziga o'tmaguncha murodga yetish yo'q degan konsepsiyani ilgari surmoqda. Mana shu tasvirlangan lavhada shaytonning kirdikorlari fosh qilinadi: "Siynasi-yu, andomiga har xil gullar taqib olgan allaqanday yalang'och ishq ilohasi yugurib borib odamchani o'simlik shoxidan ko'tarib oldi va uni larsillagan ikki siynasi orasiga joylab qo'ydi. Qo'llarida nayza bilan chiqib kelishgan, hammayog'ini jun bosib ketgan odamsimon pakana maxluqlar – ya'juj-ma'jujlar sahnani to'ldirib yuborishdi. Ular orasidan oltin nayza tutgan bittasi ajralib chiqib, nayzasini boshi uzra ko'targancha xitob qildi: – Biz ota urug'idan tuproqda unganmiz. Yer yuzining egalari shu sababdan biz bo'lamiz. Onaning issiq andomida

urchiganlar o'sha ungan joylarini egallab yotishaversin. Onadan tug'ilgan mal'unlar bizning qonuniy yerlarimizni bosib olishgandi. Endi ularga o'rin yo'q. Ota urug'idan boshqasi bekor! Ya'juj-ma'jujlar nayzalarini boshlari uzra ko'targancha qichqirishar edi:

– Boshqasi bekor!

– Boshqasi bekor!

– Boshqasi bekor!

Shu mahal qo'lida shox bilan janob Ximer kirib keldi. Shoxdan tevarak –atrofga ko'kish shul'alar to'kilib turardi. Janob Ximer shoxni baland ko'tardi. Shoxdan jaranglagan sado chiqib, shundan so'ng ma'nili so'zlarga aylandi: – Yeru ko'kning zavqi-shavqi mening ichimda joylashgan. Menga egilinglar! [4]

Romandagi shahar xronotopining eng muhim kategoriyalaridan biri shoxning katta shouda olomon ko'z o'ngida namoyish qilingan dasturi bo'ladi. Shu yerda yozuvchining butun asar davomida aytiladigan qimmatli mulohazalari janob Ximer va uning gumashtalari tilidan bayon qilinadi. Alloh taolo shaytonga “Odamga sajda qil!” degan birgina so'ziga itoat qilmay, jannatdan quvilishi, va abadiy la'natlangan farishta butun insoniyatni yo'ldan uruvchi sifatida talqin qilinadi. Mifopoetik talqin ustuvorligi hamda adibning o'ziga xos usuli negizida janob Ximer shaytoniy istaklarni bajo keltiruvchi homiy sifatida bo'y ko'rsatadi. Shuni qayd etish lozimki, janob Ximer tabiatidagi o'ziga o'xshagan odamlarni ergashtirib oluvchi xarakteri jamiyatda yo'q deb o'ylaysizmi? Undaylar soni son-sanoqsiz. Iymon-e'tiqodi-yu, tirikchiligining tayini yo'q, nima qilib yurgani o'zi bilmaydigan shayton izmida kun kechirayotgan tartibsiz olomon tabiati ana shu maslakni davomchilaridir. Bundan tozarishning yo'li – tavba! Yozuvchi har qanday insonni aqldan ozdiruvchi va o'z yo'rig'iga tamomila mute qilib qo'yishni eng oliy maqsad qilgan janob Ximer kabilar dunyo boshqaruvini, iqtisodiy-siyosiy o'yinlar homiysi sifatida baholaydi. Mana shu qiyofalarning hozirgi dunyoning pragmatik alohqalarini janob Ximerlar qo'lida ekanligidan taajubga tushadi.

“Shoyim Bo'tayevning «Shox» romanida Hotam bilan janob Van Tu o'rtasida kechgan muloqot tasviri mavjud. Bir qarashda, xitoylik tabobat vakili asar badiiy voqeligiga singishmagandek taassurot uyg'otadi. Biroq ushbu obraz ijodkor falsafasiga yashiringan mohiyatni ochishga xizmat qiladi. Muallif vujudi va ruhini shaytoniy qudrat egallagan yigit hamda o'zligini saqlab qolgan odamzod borlig'ini bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Mavjud ziddiyat vositasida adib, hatto iblis fitnalari ham inson ustidan to'la hukmronlik qilishiga imkon bermasligiga ishora qiladi. Janob Ximerning aqliy salohiyati shu darajadaki, u ulug'vor maqsadlar yo'lida yashayotgan Janob Szi La, janob Mao Da, janob Van Tularni oliyjanob g'oyalar yo'lida xizmat qilayotganliklariga ishontiradi. Aslida esa kishilik jamiyatini ichdan yemirishga yo'naltirilgan maslak yovuzlikka tutashadi. Vaholanki, hayot mantig'ini to'ldiradigan tafsilotlar uyg'unligi ifodada yaxlitlik hosil qilishi badiiy ehtiyoj sanaladi” [5], - deya yozadi X.To'liboyev.

Yozuvchi romanga olib kirgan ellikdan ziyod qahramonlarning zimmasiga o'z vazifalarini real yuklay olgan. Hamma masala savdo va sotiq atrofida sodir bo'lar ekan, undan ham katta muammolar bolalab kelayotganiga ishora qilinadi. Hayotning murakkab qatlamlarida odamzodning yashashga bo'lgan ishtiyoqining so'nishi, ertangi kuni qayerda buguniga ishonch susaygan odamlar doimo bexotirjam umr kechirishadi. Inson qadri hech narsaga arziyas bo'lib borayotgan global dunyoda – kuchlilar va ojizlar orasida kechayotgan mangu jangni yodimizga soladi. Mana shu murakkab vaziyatda inson o'laroq yashash muhimligi qalamga olinadi.

Ayniqsa, jamiyatning ichdan yemirilishi, soʻz va ruh ziddiyati, kechmishlarning gʻoyat boshqacha tusga oʻtishi, mehr-muhabbatning darz ketishi natijasida ruh ekologiyasi vujudga kelayotganiga katta ishora mavjud. Binobarin, adib ana shu koʻp qiyofali dunyoda yashashayotgan odamlar ruhiyatidagi fojeaviylik koʻplab kasalliklarni keltirib chiqarishga doyalik qilayotganini achchiq alam bilan idroklaydi.

“Inson, jismoniy jihatdan baquvvat boʻlsa-da, doimiy charchoq sezadi. Ongida parishonlik, chalkashlik kuchayadi; inson oʻzi yashayotgan joyda emas, boshqa bir joyda emas, boshqa bir joyda yashayotgandek his qiladi. Siqilishlar, ogʻriqlar koʻpayadi. Sababsiz ruhiy tushkunlikka tushishlar, muammolarga oʻralashib qolishlar paydo boʻladi. Ayollarning yigʻi-sigʻilari koʻpayadi va ular erta klimaxga uchraydilar. Bir narsani tushunib yetish kerak. Hozirgi kunda butun dunyoda insonlarning DNKlariga tahdid kuchayib borayotir. Kishi DNKsi alohida laboratoriyalarda oʻzgartiriladi deb sodda oʻylamaslik kerak. DNKni kundalik hayotimizda duch kelayotganimiz holatlar oʻzgartirib tashlyapti”.

Shuni alohida taʼkidlash oʻrinliki, bugungi dunyo xaritasida iqtisodiy va ijtimoiy yuksak davlatlarning maʼnaviy tanazzul yoqasiga kelib qolganligining shohidi boʻlib turibmiz. Mana shu nomutanosiblik Gʻarb va Yaqin sharq davlatlarida kuzatilayotir. Gʻarb davlatlarda XX asr boshlaridagi maʼnaviy tanazzulga qarshi immunitet hosil qilish programmasi qariyb yuz yildan buyon hali oʻz yechimini topmagan.

Ruhiy nosogʻlom muhitdan paydo boʻlayotgan robot bolalar bugun jahon iqtisodiyotini boshqaruvini qoʻlga kiritgan. Roman qahramoni janob Ximer ana shu toifaning haqqoniy timsolidir. Bu timsol hali koʻplab asarlarda turli xil shakllarda ishtirok etishi turgan gap. Yozuvchi ayni shu jarayonni saygʻoq misolida keng qamrovli sujet liniyalarida ochib bergani tahsinga sazovordir. Toʻgʻri, romanda oʻrinsiz takrorlar, maromiga yetmagan qahramon xarakterlari ham mavjud. Ular roman poetikasida qayta tahrir qilinishi lozim.

Iqtiboslar/ Snoski/ References

1. Эшонкулов Н. Мендан “мен”гача. –Т., Академнашр. 2015. –Б.349-350. (Eshonqulov N. Mendan “men”gacha. -T., Akademnashr.2015. -B.349-350.)
2. Кўрсатилган адабиёт, -Б.197. (Ko‘rsatilgan adabiyot, -B.197.)
3. Умуров Х. Бадий ижд асослари. –Т., Ўзбекистон. 2001. –Б. 80.(Umurov H. Badiiy ijod asoslari. -T., O‘zbekiston. 2001.-B.)
4. Кўрсатилган адабиёт, -Б.250.(Ko‘rsatilgan adabiyot, -B.250.)
5. Тўлибоев Х. Ҳозирги ўзбек романчилигида бадий услуб ва жанрий-композицион яхлитлик синтези. Филоло.фан. фалсафа.док.дисс.яси. –ФарДУ. 2018. –Б. 79. (To‘liboyev X. Hozirgi o‘zbek romanchiligida badiiy uslub va janriy -kompozitsion yaxlitlik sintezi. Filol.fan.falasafa dok.diss. – FarDU. 2018. – B.79.)

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Ma'suma Obidjonova

Dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

obidjonovamasuma001@gmail.com

ILMIY FANTASTIK ASARLARNI QIYOSIY O'RGANISHNING NAZARIY
ASOSLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ilmiy fantastika janrini qiyosiy o'rganishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu janrning global adabiy hodisa sifatidagi o'rni va turli adabiy an'analarda shakllanish xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik yondashuv, struktur-semantik tahlil hamda xronotop modeli asosiy metodologik tayanch sifatida qo'llanadi. Maqolada ingliz va o'zbek adabiyoti materiallari asosida ilmiy fantastikaning o'ziga xos modellari qiyoslanadi. Tahlillar natijasida ingliz adabiyotidagi ilmiy fantastika ko'proq tizimli va texnologik xarakterga egaligi, o'zbek adabiyotida esa ushbu janr ijtimoiy, axloqiy va falsafiy qatlamlar bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishi isbotlanadi. Shuningdek, zamonaviy texnologik tafakkur va interdisiplinar yondashuv bilan bog'liq jihatlar tadqiq etiladi. Tadqiqot natijasida ilmiy fantastikani qiyosiy o'rganish janrning universalligi va milliy xususiyatlarini aniqlash, uni jamiyat tafakkuri hamda madaniy jarayonlar bilan bog'liq holda talqin qilish imkonini berishi asoslanadi. Mazkur ish janr nazariyasini tizimli boyitishga xizmat qiladi.

***Kalit so'zlar:** ilmiy fantastika, qiyosiy adabiyotshunoslik, janr nazariyasi, qiyosiy-tipologik tahlil, xronotop, ilmiy faraz, badiiy model, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti, texnologik tafakkur.*

Masuma Obidjonova

Associate Professor, Doctor of Philosophy in

Philological Sciences (PhD)

Alisher Navoiy Tashkent State University of

The Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

obidjonovamasuma001@gmail.com

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE COMPARATIVE STUDY OF SCIENCE FICTION WORKS

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the comparative study of the science fiction genre. The research explores the role of science fiction as a global literary phenomenon and its formation across diverse literary traditions. Comparative-typological analysis, structural-semantic analysis, and the chronotope model are employed as the principal methodological frameworks of the study. Based on materials from English and Uzbek literature, the article identifies distinct models of science fiction. The analysis demonstrates that while science fiction in English literature tends to be more systematic and technological, in Uzbek literature, it manifests through an integration of social, ethical, and philosophical layers. Furthermore, the study examines modern trends related to technological thinking and interdisciplinary approaches. The findings justify that a comparative study of science fiction enables the identification of both universal and national characteristics of the genre, allowing for its interpretation in relation to social thought and cultural processes. This research contributes significantly to the systemic enhancement of genre theory.

Keywords: *science fiction, comparative literature, genre theory, comparative-typological analysis, chronotope, scientific hypothesis, artistic model, English literature, Uzbek literature, technological thinking.*

Маъсума Обиджонова

Доцент, доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан
obidjonovamasuma001@gmail.com

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СРАВНИТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ НАУЧНО-ФАНТАСТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются теоретико-методологические основы сравнительного изучения жанра научной фантастики. В исследовании освещается роль научной фантастики как глобального литературного феномена и особенности её формирования в различных литературных традициях. В качестве основной методологической базы используются сравнительно-типологический подход, структурно-семантический анализ и модель хронотопа. На материале английской и узбекской литературы выявляются специфические модели научной фантастики. Анализ показывает, что если в английской литературе научная идея носит более системный и технологический характер, то в узбекской литературе она проявляется в гармонии с социальными, этическими и философскими пластами. Также рассматриваются современные направления развития, связанные с технологическим мышлением и междисциплинарным подходом. В результате исследования обосновывается, что

сравнительное изучение научной фантастики позволяет определить универсальные и национальные особенности жанра, а также интерпретировать его в тесной связи с общественным сознанием и культурными процессами. Работа вносит вклад в системное обогащение теории жанра.

Ключевые слова: научная фантастика, сравнительное литературоведение, теория жанра, сравнительно-типологический анализ, хронотоп, научная гипотеза, художественная модель, английская литература, узбекская литература.

Zamonaviy adabiy jarayonda ilmiy fantastika faqat badiiy janr sifatida emas, balki fan, falsafa va ijtimoiy tafakkur kesishgan murakkab hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu janr insoniyatning kelajak haqidagi tasavvurlari, texnologik taraqqiyot oqibatlari hamda sivilizatsion xavotirlarini badiiy modellashtirish imkonini beradi. Shu sababli ilmiy fantastikani alohida milliy adabiyot doirasida o'rganish uning mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi; uni qiyosiy kontekstda tadqiq etish zarurati yuzaga keladi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik ilmiy fantastikani o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv turli adabiy an'analarda umumiy muammolar qanday talqin qilinishini aniqlash imkonini beradi. Rene Vellek va Ostin Uorren qiyosiy adabiyotshunoslik mohiyatini quyidagicha izohlaydi:

“Qiyosiy adabiyotshunoslik – bu biror milliy adabiyot doirasidan tashqarida adabiyotni o'rganish, shuningdek, adabiyot bilan boshqa bilim sohalari o'rtasidagi aloqalarni tadqiq etishdir. U turli adabiyotlar o'rtasidagi bog'liqlik, o'xshashlik va farqlarni aniqlashga intiladi” [12, B.47]. Mazkur nazariy yondashuv ilmiy fantastika uchun ayniqsa dolzarbdir. Chunki bu janr o'z tabiatiga ko'ra transmilliy xarakterga ega bo'lib, unda ilmiy g'oya, texnologik tasavvur va ijtimoiy prognoz unsurlari turli madaniyatlarda o'zaro uyg'unlashadi. Shu bois ilmiy fantastikani qiyosiy o'rganish orqali nafaqat janrning umumiy qonuniyatlari, balki milliy tafakkur xususiyatlari ham ochiladi.

Ilmiy fantastikaning nazariy talqinida uning bilish bilan bog'liq funksiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Darko Suvin bu haqda shunday yozadi: “Ilmiy fantastika – bu begonalashtirish va bilish unsurlarining o'zaro ta'siri asosida shakllanadigan adabiy janrdir. Undagi ‘novum’ – bu muallif va o'quvchi uchun odatiy bo'lgan reallikdan chetga chiqadigan yangi hodisa yoki munosabatdir” [11, B.7]. Ushbu qarash ilmiy fantastikaning mohiyatini – voqelikni bevosita tasvirlash emas, balki uni muqobil model orqali anglash vositasi ekanini ko'rsatadi. Demak, uni qiyosiy o'rganish turli adabiyotlarda “reallikni qayta qurish” mexanizmlarini solishtirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolaning maqsadi ilmiy fantastika janrini qiyosiy o'rganishning nazariy asoslarini aniqlash, uning metodologik prinsiplari va asosiy mezonlarini tizimlashtirishdan iborat. Maqolada ilmiy fantastikani qiyosiy tahlil qilish zarurati, unga tayanuvchi nazariy qarashlar va qo'llaniladigan metodlar izchil yoritiladi.

Ilmiy fantastika turli adabiy an'analarda yuzaga kelgan bo'lsa-da, uning asosida umumiy intellektual muammolar yotadi. Inson va texnologiya o'rtasidagi munosabat, ilmiy taraqqiyotning ijtimoiy oqibatlari, kelajak modeli haqidagi tasavvurlar turli madaniyatlarda mustaqil shakllanadi. Shu jihat ilmiy fantastikani qiyosiy o'rganishni zarur qiladi. Janrning nazariy talqinida uning bilish bilan bog'liqligi alohida ta'kidlanadi. Karl Fridman quyidagicha yozadi: “Ilmiy fantastika ijtimoiy reallikni anglashning alohida shaklidir. U mavjud dunyoni

o'zgartirilgan shaklda ko'rsatib, uni tushunish imkoniyatini kengaytiradi" [5, B.16]. Mazkur yondashuv ilmiy fantastikaning asosiy vazifasini belgilaydi. Janr real voqelikni bevosita aks ettirmaydi. U ilmiy faraz orqali yangi model yaratadi. Shu sababli turli adabiyotlarda bu model qanday qurilganini qiyoslash ilmiy ahamiyat kasb etadi. G'arb adabiyotida ilmiy fantastika ko'pincha texnologik tizim orqali ifodalanadi. Ayzek Azimovning "Men, robot" asarida robotlar qat'iy qonunlarga asoslangan tizim sifatida tasvirlanadi. Bu modelda asosiy muammo nazorat va mas'uliyat bilan bog'liq. Stanislav Lemning "Solaris" romanida esa inson ilmiy bilim orqali o'zga ongni tushunishga urinadi, biroq bu urinish chegaraga borib taqaladi. Bu yerda ilmiy bilishning o'zi muammo sifatida talqin qilinadi.

O'zbek adabiyotida ilmiy fantastika o'ziga xos rivoj yo'liga ega. Hojiakbar Shayxovning "Tutash olamlar" romanida parallel makonlar g'oyasi ilmiy faraz sifatida ishlatiladi. Asarda inson ongining boshqa olam bilan aloqasi tasvirlanadi. Bu konsepsiya ilmiy gipoteza asosida qurilgan bo'lsa-da, talqinda falsafiy qatlam kuchli. Tohir Malikning "Chorrahada qolgan odamlar" asarida ilmiy tajriba inson taqdiriga bevosita ta'sir qiluvchi omil sifatida beriladi. Bu yerda ilmiy element syujetni harakatga keltiradi va ijtimoiy tanlov muammosini ochadi. Mahkam Mahmudovning "Teskari ko'zlar sayyorasi" asarida esa boshqa sayyora modeli orqali insoniyatning axloqiy va ijtimoiy kamchiliklari aks ettiriladi. Bu asarda fantastik muhit tanqidiy vosita sifatida ishlaydi. Ilmiy fantastikaning ijtimoiy funksiyasi ham qiyosiy yondashuvni talab qiladi. Fredrik Jeymsen quyidagicha fikr bildiradi:

"Ilmiy fantastika hozirgi zamonni bilvosita tarzda anglash imkonini beradi. "U ijtimoiy tizimlarni o'zgartirilgan shaklda ko'rsatib, ularni tushunishga xizmat qiladi" [7, B.286]. Bu qarash ilmiy fantastikani tarixiy tafakkur bilan bog'laydi. Turli adabiyotlarda yaratilgan asarlarni qiyoslash orqali jamiyatlarning ilmiy taraqqiyotga munosabati va ijtimoiy ong xususiyatlari aniqlanadi.

Ilmiy fantastika har bir madaniyatda o'ziga xos model asosida shakllanadi. Artur Klarkning "2001: Kosmik odisseya" asarida inson evolyutsiyasi texnologik taraqqiyot bilan bog'lanadi. O'zbek fantastikasida esa ilmiy g'oya ko'pincha insonning axloqiy va ruhiy holati bilan birgalikda talqin qilinadi. Hojiakbar Shayxov va Mahkam Mahmudov asarlarida ilmiy faraz bilan bir qatorda ijtimoiy va ma'naviy muammolar ham markazga chiqadi. Natijada ilmiy fantastikani qiyosiy o'rganish orqali janrning umumiy rivoj yo'nalishlari, ilmiy farazning badiiy talqini va turli madaniyatlarda shakllangan tafakkur modellari aniqlanadi.

Ilmiy fantastikani qiyosiy o'rganish umumiy adabiyot nazariyasidan farqli ravishda aniq metodologik tayanchni talab qiladi. Bu yerda masala faqat asarlarni yonma-yon qo'yish emas, balki ularni yagona nazariy maydonda talqin qilishdan iborat. Qiyosiy yondashuv adabiy hodisani kengroq tizimda ko'rish imkonini beradi.

Qiyosiy adabiyotshunoslikning zamonaviy talqinida asosiy e'tibor adabiyotlararo aloqalarga emas, balki ularning tipologik o'xshashliklariga qaratiladi. Klaudio Gilyen bu haqda shunday yozadi: "Qiyosiy adabiyotshunoslik adabiy hodisalarni milliy chegaralardan tashqarida, umumiy qonuniyatlar asosida o'rganadi. Bu soha aloqalarni emas, balki tuzilma va funksiyadagi o'xshashliklarni aniqlashga intiladi" [6, B.3].

Bu fikr ilmiy fantastika uchun muhim. Chunki bu janr ko'pincha bevosita ta'sir natijasida emas, balki o'xshash tarixiy va ilmiy sharoitlarda mustaqil ravishda shakllanadi. Demak, qiyosiy tahlil bu yerda genetik emas, balki tipologik xarakterga ega bo'ladi. Ilmiy fantastika nazariyasida asosiy tushunchalardan biri "ilmiy faraz"dir. Darko Suvin ushbu tushunchani

quyidagicha izohlaydi: “Ilmiy fantastika markazida odatiy reallikdan farq qiluvchi yangi unsur turadi. Bu unsur asar dunyosini tashkil etuvchi asosiy prinsip vazifasini bajaradi” [11, B.63].

Mazkur “yangi unsur” turli adabiyotlarda turlicha shakl oladi. Ayzek Azimov asarlarida u texnologik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Stanislav Lemda esa u bilish chegarasini ifodalovchi ong shakliga aylanadi. O'zbek adabiyotida Hojiakbar Shayxovning “Tutash olamlar” romanida bu unsur parallel makon g'oyasi orqali beriladi. Qiyosiy yondashuv aynan shu farqlarning mohiyatini ochadi. Janrni qiyosiy o'rganishda yana bir muhim nazariy tayanch xronotop tushunchasidir. Mixail Baxtin xronotopni quyidagicha ta'riflaydi: “Xronotop – bu asarda vaqt va makonning badiiy birligidir. Unda voqealar rivoji va qahramon harakati o'z ifodasini topadi” [14, B.84].

Ilmiy fantastikada xronotop alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki janr ko'pincha alternativ makon va kelajak zamon modellariga tayanadi. Masalan, “Solaris” romanida noma'lum sayyora xronotopi inson ongining chegarasini ochadi. “Tutash olamlar”da esa makonlararo o'tish g'oyasi orqali voqelik kengaytiriladi. Bu holatlarni qiyoslash orqali fantastik makon va zamonning turli talqinlari aniqlanadi.

Ilmiy fantastikani qiyosiy o'rganishda yana bir nazariy yo'nalish uning ijtimoiy funksiyasi bilan bog'liq. Fredrik Jeymsinning fikricha, “Ilmiy fantastika ijtimoiy tuzilmalarni o'zgartirilgan shaklda ko'rsatadi. U orqali jamiyat o'z imkoniyatlarini va chegaralarini ang'laydi [7, B.289]. Bu yondashuv ilmiy fantastikani ijtimoiy tafakkur mahsuli sifatida ko'rsatadi. Demak, qiyosiy tahlil orqali turli jamiyatlarning ilmiy va ijtimoiy qarashlari aniqlanadi. Natijada ilmiy fantastikani qiyosiy o'rganish quyidagi nazariy asoslarga tayanadi: tipologik yondashuv, ilmiy faraz tushunchasi, xronotop modeli va ijtimoiy talqin prinsipi. Ushbu asoslar janrni tizimli va ilmiy izchil tahlil qilish imkonini beradi.

Shuni unutmash kerakki, Ilmiy fantastikani qiyosiy o'rganishda asosiy muammo metod emas, balki tahlil mezonlarini to'g'ri belgilashdir. Chunki bu janr umumiy adabiy kategoriyalar bilan emas, balki o'ziga xos nazariy belgilari orqali farqlanadi. Birinchi mezon ilmiy o'zgarishning badiiy modeli hisoblanadi. Ilmiy fantastika boshqa janrlardan farqli ravishda o'z markaziga “o'zgarish”ni qo'yadi. Jeyms Gann bu haqda shunday yozadi: “Ilmiy fantastika inson hayotiga ta'sir qiladigan o'zgarishlarni tasvirlaydi. Bu o'zgarishlar ilmiy yoki texnologik kashfiyotlar bilan bog'liq bo'ladi”. Mazkur mezon asosida asarlar qiyoslanganda, ularning farqi aniq ko'rinadi. Masalan, Ayzek Azimovda o'zgarish tartibga solingan tizim orqali kechadi. Mahkam Mahmudovning “Teskari ko'zlar sayyorasi” asarida esa o'zgarish begona muhit orqali beriladi va insoniyatga tashqi baho sifatida ishlaydi. Bu yerda ilmiy element tanqidiy funksiyani bajaradi.

Ikkinchi mezon ilmiy farazning reallikka bog'lanish darajasidir. Ilmiy fantastikani boshqa fantastika turlaridan ajratadigan jihat ham shu. Tadqiqotlarda bu quyidagicha izohlanadi: “Ilmiy fantastika ‘yangi unsur’ni mantiqan asoslangan holda quradi. Bu unsur real dunyo bilan bog'langan bo'lishi kerak”. Shu nuqtada o'zbek va amerika adabiyoti o'rtasidagi farq aniq ko'rinadi. Masalan, A. Azimovda ilmiy model qat'iy tizimga ega. Hojiakbar Shayxovning “Tutash olamlar” romanida esa ilmiy faraz mavjud bo'lsa-da, u ko'proq falsafiy talqin bilan uyg'unlashadi. Bu holat qiyosiy tahlilda janr chegaralarini aniqlashga yordam beradi.

Uchinchi mezon ilmiy fantastikaning ijtimoiy funksiyasidir. Zamonaviy tadqiqotlarda bu janrning asosiy vazifasi sifatida ko'riladi. Karl Fridman ilmiy fantastikaning nazariy ahamiyatini quyidagicha baholaydi: “Ilmiy fantastika boshqa janrlarga qaraganda tarixiy va

ijtimoiy tafakkur bilan chuqurroq bog'langan". Bu fikr qiyosiy tahlil uchun muhim. Chunki har bir asar o'z jamiyatining muammosini aks ettiradi. Masalan, Rey Bredberining "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" romanida ommaviy madaniyat va nazorat muammosi markazda turadi. Tohir Malikning "Chorrahada qolgan odamlar" asarida esa ilmiy tajriba orqali insonning axloqiy tanlovi masalasi ochiladi. Har ikki asarda ilmiy unsur mavjud, lekin uning ijtimoiy vazifasi turlicha.

To'rtinchi mezon ilmiy fantastikaning bilish funksiyasidir. Zamonaviy tadqiqotlar bu janrni "nazariy fikrlash shakli" sifatida ham ko'radi. Ilmiy fantastika nazariya bilan yaqin aloqada rivojlanadi va uni tushuntirish vositasiga aylanadi. Bu mezon asosida qaralganda, ilmiy fantastika faqat syujet emas, balki tafakkur modeli sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyotida bu jihat ko'pincha falsafiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Mahkam Mahmudov va Hojiakbar Shayxov asarlarida ilmiy g'oya insonning ma'naviy holati bilan birga talqin qilinadi. Inglizabon adabiyotda esa bu ko'proq tizimli va texnologik shaklda beriladi.

Beshinchi mezon janrning global va milliy xususiyatlari nisbatidir. Zamonaviy tadqiqotlar ilmiy fantastikani global hodisa sifatida baholaydi. Ilmiy fantastika turli madaniyatlarda umumiy mavzularni ishlab chiqadi. Bu holat qiyosiy tahlilni majburiy qiladi. Chunki bir xil mavzular turli madaniyatlarda turlicha yechim topadi. Inglizabon adabiyotda texnologiya markazda bo'lsa, o'zbek fantastikasida inson va jamiyat masalasi ustun turadi. Natijada ilmiy fantastikani qiyosiy o'rganish uchun asosiy mezonlar quyidagilardan iborat bo'ladi: ilmiy o'zgarish modeli, ilmiy farazning mantiqiyliqi, ijtimoiy funktsiya, bilish jarayoni va madaniy kontekst. Ushbu mezonlar orqali asarlar yuzaki emas, balki nazariy darajada solishtiriladi.

Ilmiy fantastikani qiyosiy o'rganishda asosiy masalalardan biri uning turli adabiy an'analarda qanday shakl olishini aniqlashdir. Bu yerda gap umumiy mavzular haqida emas, balki janrning g'oyaviy ishlash mexanizmi haqida boradi. Ya'ni ilmiy g'oya qanday badiiy tizimga aylantiriladi, qaysi elementlar markazga chiqadi va qanday tafakkur ustuvor bo'ladi. Zamonaviy tadqiqotlarda ilmiy fantastika ko'pincha madaniy tafakkur mahsuli sifatida qaraladi. Gavaya universiteti professori Jon Rider bu haqda shunday yozadi: "Ilmiy fantastika o'z mazmunini ishlab chiqarayotgan madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq. U global janr bo'lsa-da, har bir madaniyatda o'ziga xos shakl oladi" [9, B.2]. Bu qarash qiyosiy tahlil uchun muhim asos beradi. Chunki ilmiy fantastika yagona model asosida rivojlanmaydi. U turli adabiyotlarda turlicha yo'nalishda shakllanadi.

Ingliz adabiyotida ilmiy fantastika ko'pincha tizimli va texnologik modelga tayanadi. Masalan, Ayzek Azimov asarlarida ilmiy g'oya qat'iy mantiq asosida quriladi. Robotlar tizimi aniq qonunlarga bo'ysunadi va shu orqali jamiyat modeli yaratiladi. Artur Klark asarlarida esa ilmiy fantastika kosmik miqyosda rivojlanadi. Bu yerda texnologiya insoniyat evolyutsiyasining asosiy omiliga aylanadi. Ushbu modelda ilmiy tafakkur markaziy o'rinni egallaydi.

O'zbek adabiyotida ilmiy fantastika boshqa yo'nalishda shakllanadi. Hojiakbar Shayxovning "Tutash olamlar" romanida ilmiy g'oya mavjud bo'lsa-da, u qat'iy tizimga aylanmaydi. Asarda parallel olamlar konsepsiyasi inson ongining imkoniyatlari bilan bog'lanadi. Mahkam Mahmudovning "Teskari ko'zlar sayyorasi" asarida esa fantastik makon ijtimoiy tanqid vositasiga aylanadi. Bu yerda ilmiy elementdan ko'ra, u orqali berilayotgan baho muhimroq bo'ladi. Bu ikki yo'nalish o'rtasidagi farqni zamonaviy tadqiqotchilar ham qayd

etadi. Britaniya va Amerika ilmiy fantastik adabiyotini tahlil qilgan olim Farah Mendleson ilmiy fantastikaning shakllanishini quyidagicha tushuntiradi: “Ilmiy fantastika turli madaniy muhitlarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Uning tuzilishi o‘quvchi bilan o‘rnatilgan kelishuvga bog‘liq” [8, B.282]. Bu fikr muhim jihatni ochadi. Ilmiy fantastika faqat muallif tomonidan emas, balki madaniy kutishlar asosida shakllanadi. Inglizabon adabiyotda o‘quvchi ilmiy aniqlikni kutadi. O‘zbek adabiyotida esa badiiy-falsafiy talqin ustunroq bo‘ladi.

Qiyosiy modelni aniqlashda yana bir muhim jihat ilmiy g‘oyaning funksiyasidir. Inglizabon adabiyotda u ko‘pincha prognoz (bashorat qilish) vazifasini bajaradi. Kelajak modeli quriladi va u orqali insoniyat istiqboli ko‘rsatiladi. O‘zbek adabiyotida esa ilmiy fantastika ko‘proq refleksiv xarakterga ega. U kelajakni emas, balki mavjud holatni anglash vositasi sifatida ishlaydi. Shu nuqtayi nazardan Kembrij universiteti doktori, fantast yozuvchi Adam Robertsning ilmiy fantastika haqidagi fikrlari juda dolzarb. Olim va adibning fikricha, “Ilmiy fantastika zamonaviy dunyoni tushunishning asosiy shakllaridan biridir. U texnologik madaniyatning o‘zini anglash usulidir” [10, B.11]. Bu yondashuv qiyosiy tahlilga yangi yo‘nalish beradi. Endi ilmiy fantastika faqat adabiy janr emas, balki madaniy tafakkur shakli sifatida ko‘riladi. Shu asosda turli adabiyotlar solishtiriladi. O‘z navbatida ilmiy fantastikaning qiyosiy modellari ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchisi tizimli va texnologik model bo‘lib, unda ilmiy mantiq ustuvor. Ikkinchisi esa badiiy-falsafiy model bo‘lib, unda ilmiy g‘oya insoniy muammolar bilan uyg‘unlashadi. Ushbu modellarni qiyoslash orqali ilmiy fantastikaning global va milliy xususiyatlari aniqlanadi.

Ilmiy fantastikani qiyosiy o‘rganish natijasida mazkur janrning turli adabiy an‘analarda bir xil asosiy prinsiplarga tayanishi bilan birga, ularning turlicha badiiy modellarda namoyon bo‘lishi aniqlanadi. Bu farq, eng avvalo, ilmiy g‘oyaning asardagi funksiyasi va uning badiiy tizimdagi o‘rnida ko‘rinadi. Ayrim adabiyotlarda ilmiy faraz asarning markaziy konstruktiv omiliga aylansa, boshqa hollarda u qo‘shimcha semantik qatlam sifatida ishtirok etadi.

Qiyosiy tahlil natijalari ilmiy fantastikaning ikki asosiy rivoj yo‘nalishini ko‘rsatadi. Birinchi yo‘nalishda ilmiy model badiiy tuzilmani to‘liq belgilaydi va syujet, obrazlar tizimi hamda konflikt aynan shu model asosida shakllanadi. Ikkinchi yo‘nalishda esa ilmiy unsur boshqa badiiy qatlamlar bilan uyg‘unlashadi va mustaqil tizim sifatida ajralib chiqmaydi. O‘zbek adabiyotida ko‘proq ikkinchi holat kuzatiladi, ya‘ni ilmiy fantastika ijtimoiy, axloqiy va psixologik muammolar bilan uzviy bog‘langan holda rivojlanadi. Mazkur xususiyat o‘zbek adabiyotshunosligida ham qayd etilgan. Professor Ra‘no Ibrahimova o‘zbek fantastikasini kengroq tizim sifatida baholab, unda ilmiy fantastika boshqa fantastik shakllar bilan uzviy aloqada mavjud ekanini ta‘kidlaydi: “O‘zbek adabiyotida fantastika an‘analarining shakllanishi va rivoji adabiy jarayonning muhim hodisalaridan biridir. Fantastika faqat ilmiy emas, balki sarguzasht, mifologik va folklor shakllarini ham o‘z ichiga oladi”. Shuningdek, u fantastik elementning asardagi o‘rni muallifning estetik pozitsiyasi bilan belgilanishini alohida qayd etadi: “Fantastik elementlarning asardagi o‘rni muallif dunyoqarashi, janr xususiyati va badiiy niyatni amalga oshirish usullariga bog‘liq” [16]. Mazkur qarash ilmiy fantastikani qiyosiy o‘rganishda muhim metodologik xulosa beradi. Janrni faqat ilmiy model doirasida emas, balki umumiy fantastik tafakkur tizimi ichida tahlil qilish zarur bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy fantastikaning milliy adabiyotdagi o‘rnini aniqroq belgilash imkonini yaratadi.

Qiyosiy yondashuv yana bir muhim natijani beradi. Ilmiy fantastika turli madaniyatlarda umumiy mavzularni ishlab chiqsa-da, ularning talqini tarixiy va ijtimoiy sharoitga bog‘liq holda

o'zgaradi. Shu sababli qiyosiy tahlil janrning universalligi bilan bir qatorda uning milliy xususiyatlarini ham aniqlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda ilmiy fantastika faqat badiiy hodisa sifatida emas, balki jamiyat tafakkurining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy fantastikani qiyosiy o'rganish istiqbollari bir necha yo'nalishda davom etishi mumkin. Avvalo, o'zbek ilmiy fantastikasini tizimli ravishda tadqiq etish zarurati mavjud. Bu yo'nalishda alohida asarlar o'rganilgan bo'lsa-da, umumlashtiruvchi nazariy tadqiqotlar yetarli darajada shakllanmagan. Shuningdek, ingliz, amerika va boshqa adabiyotlar bilan qiyosiy tahlilni kengaytirish orqali janrning rivoj tendensiyalarini aniqlash mumkin. Zamonaviy texnologik muammolarni aks ettiruvchi asarlar esa qiyosiy tadqiq uchun yangi material vazifasini bajaradi. Mazkur janrdagi asarlarni qiyosiy o'rganish natijasida adabiyotshunoslik doirasida yangi yondashuv shakllanadi. Bu yondashuv badiiy matnni alohida hodisa sifatida emas, balki kengroq madaniy va intellektual jarayon bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Iqtiboslar/Синоски/References

1. Attebery B. *Strategies of Fantasy*. Bloomington: Indiana University Press, 1992.
2. Bould M., Andrew M., Adam R., Sherryl V, eds. *The Routledge Companion to Science Fiction*. London: Routledge, 2009.
3. Bradbury R. *Fahrenheit 451*. New York: Ballantine Books, 1953.
4. Clarke A. C. *2001: A Space Odyssey*. London: Hutchinson, 1968.
5. Freedman C. *Critical Theory and Science Fiction*. Middletown, CT: Wesleyan University Press, 2000.
6. Guillén C. *The Challenge of Comparative Literature*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1993.
7. Jameson F. *Archaeologies of the Future: The Desire Called Utopia and Other Science Fictions*. London: Verso, 2005.
8. Mendlesohn F. *Rhetorics of Fantasy*. Middletown, CT: Wesleyan University Press, 2008.
9. Rieder J. *Colonialism and the Emergence of Science Fiction*. Middletown, CT: Wesleyan University Press, 2008.
10. Roberts A. *Science Fiction*. London: Routledge, 2000.
11. Suvin D. *Metamorphoses of Science Fiction: On the Poetics and History of a Literary Genre*. New Haven: Yale University Press, 1979.
12. Wellek R., Austin W. *Theory of Literature*. New York: Harcourt, Brace & Company, 1949.
13. Азимов А. Я., робот. Москва: Эксмо, 2002. (Azimov A. Y., robot. Moskva: Eksmo, 2002).
14. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. Москва: Художественная литература, 1975. (Baxtin M. Voprosi literatur)
15. Брэдбери Р. Марсианские хроники. Москва: Эксмо, 2007. (Bredberi R. Marsianskiye xroniki. Moskva: Eksmo, 2007).
16. Ибрагимова Р. «Зеркало Искандера (Узбекская фантастика как фактор развития мировой литературной традиции)». Ziyouz. [https://www.ziyouz.uz/\(Ibragimova](https://www.ziyouz.uz/(Ibragimova) R. “Zerkalo Iskandera(Uzbekskaya fantastika kak factor razvitiya mirovoy literaturnoy traditsii”).
17. Малик Т. Чоррахада қолган одамлар. Тошкент: Шарқ, 2001. (Malik T. Chorrahada qolgan odamlar. Toshkent: Sharq, 2001).
18. Махмудов М. Тескари кўзлар сайёраси. Тошкент: Ёш гвардия, 1989. (Mahmudov M. Teskari ko'zlar sayyorasi. Toshkent: Yosh gvardiya, 1989).
19. Шайхов Х. Туташ оламлар. Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт, 1984. (Shayxov X. Tutash olamlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1984).

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Ergasheva Dilshoda,

tayanch doktoranti

Samarqand davlat pedagogika instituti

Samarqand, O'zbekiston

dilshodaabdusalomovna@gmail.com

“MUNSHAOT”DAGI MAKTUBLARDA QUR’ON OYATLARINING IQTIBOS SIFATIDA KELTIRILISHI

ANNOTATSIYA

“Munshaot” asaridagi maktublar bir necha adabiyotshunos professor olimlar tomonidan tasnif etilgani holda, biz ham ushbu maktublarning tarkibida Qur’on oyatlari hamda hadislar mavjud maktublar hamda falsafiy mazmundagi maktublar turini ajrtadik. Navoiy ijodining tub ildizi Qur’oni Karim va hadislardan suv ichgani kabi, “Munshaot” asari ham ana shunday sarchashmalar ozuqasidan yiroq emasligini ko‘rsatib berdik.

Kalit so‘zlar: “Munshaot”, maktub, tasnif, Qur’on oyatlari, hadis, iqtibos, Navoiy falsafasi.

Ergasheva Dilshoda,

doctoral candidate,

Samarkand State Pedagogical Institute

Samarkand, Uzbekistan

dilshodaabdusalomovna@gmail.com

THE CITATION OF QUR’ANIC VERSES AS QUOTATIONS IN THE LETTERS OF “MUNSHAOT”

ABSTRACT

Although the letters in the work *Munshaot* have already been classified by several literary scholars and professors, in this study we additionally distinguished a separate category of letters containing Qur’anic verses and hadiths, as well as letters of philosophical content. Just as the deep roots of Navoi’s creative work draw nourishment from the Holy Qur’an and hadiths, we have demonstrated that the work *Munshaot* is likewise not far removed from the sustenance of such primary sources.

Keywords: Munshaot, letter, classification, Qur’anic verses, hadith, quotation, Navoi’s philosophy.

Эргашева Дилшода,
базовый докторант
Самаркандского государственного педагогического института
Самарканд, Узбекистан
dilshodaabdusalomovna@gmail.com

ЦИТИРОВАНИЕ АЯТОВ КОРАНА В ПИСЬМАХ ИЗ СБОРНИКА “МУНШААТ”

АННОТАЦИЯ

Несмотря на то, что письма в произведении “Муншаот” уже были классифицированы рядом профессоров и литературоведов, в данном исследовании нами также выделены письма, содержащие аяты Корана и хадисы, а также письма философского содержания. Подобно тому, как творчество Alisher Navoiy своими глубинными корнями восходит к Священному Корану и хадисам, в работе показано, что произведение «Муншаот» также неразрывно связано с этими духовными источниками.

Ключевые слова: «Муншаот», письмо, классификация, аяты Корана, хадисы, философия Навои.

“Munshaot” ning bir necha qo ‘lyozma nusxalari bo ‘lib, muallif tomonidan “Kulliyot” tarkibida keltirilgan nusxasida 104 maktub mavjud bo ‘lib, bugunga qadar ushbu maktublar o ‘zbek adabiyoti tarixi doirasida bir necha olimlar, filolog-professorlar tomonidan o ‘rganildi. Masalan, maktublar mazmuniy jihatdan bir necha turlarga ajratildi (S.G ‘aniyeva, Yu.Tursunov, Q.Ergashev); “Munshaot” matni ustida tadqiqotlar olib borildi (Yu.Tursunov).

Ustozlarimiz tomonidan shu kunga qadar “Munshaot”dagi maktublar quyidagicha tasnif etilgan edi:

I. Munshaot nazariyasiga ilk bor navoiyshunos olimi S.G ‘aniyeva tamal toshini qo ‘ydi va navoiy “Munshaot”idagi maktublarni quyidagicha tasnifladi:

- 1) davlat va siyosatga aloqador maktublar;
- 2) turli shaxslarga ularning lavozimlari va ishlari xususida yozilgan xatlar;
- 3) badiiy ijod borasidagi yozishmalar;
- 4) tabrik va ta’zianomalar;
- 5) shaxsiy kechinmalarni ifodalovchi maktublar.

II. Yu.Tursunovning “Munshaot - Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini o ‘rganishda tarixiy-badiiy manba sifatida” nomli nomzodlik dissertatsiyasida Suyima G ‘aniyeva tasnifiga quyidagi qo ‘shimchalar kiritib o ‘tgan:

- 1) nasihat xarakteridagi maktublar;
- 2) tanbeh ifodalangan maktublar;
- 3) minnatdorlik ifodalangan maktublar;
- 4) qisqa maktublar.

Q.Ergashevning “O ‘zbek nasrida insho. (Munshaot asosida)” filologiya fanlari nomzodlik dissertatsiyasi bilan tanishar ekanmiz, ushbu olimning Navoiy maktublarini quyidagicha tasniflaganiga guvoh bo ‘ldik:

- 1) murofiah yo ‘sinida bitilgan xatlar;

- 2) murosala yo'sinida bitilgan maktublar;
- 3) riqo yo'sinida bitilgan xatlar.

Murofia tarzida bitilgan maktub duo-tilaklar bilan boshlanib, duo-tilaklar bilan yakunlanadi. Murosala uslubidagi bitiklar esa murofiadan quyidagicha farq qiladi, yani ularning murojaat qismi dabdabali bo'lmaydi hamda xotimasi ham qisqagina duo yoki tilakdan tashkil topadi xolos. Riqa usulida yozilgan xatlarda adresatga takalluf qilinmaydi. Maktublar qisqa, tanbeh va nasihat ruhida yoziladi, - deydi va izohlarini keltiradi.

Biz esa "Munshaot"ni tadqiqot obyekti sifatida o'rganar ekanmiz, undagi maktublarning mazmuniy jihatdan tasnif etilgan turiga quyidagi ikki turni qo'shishga jazm etdik:

1. Qur'on oyatlari va hadislar iqtibos tarzida keltirilgan maktublar;
2. Falsafiy mazmundagi maktublar.

Biz "Munshaot" asaridagi maktublarni o'rganish uchun asosiy manba sifatida Yu.Tursunov tomonidan Navoiyning barcha maktublari jamlangan, nisbatan mukammal variant sifatida tuzilgan "Munshaot"ning "Zabarjad Media" nashriyotida 2025-yili nashr etilgan nashridan foydalandik. Ushbu nashrda Navoiyning 110 maktubi keltirilgan bo'lib, bu nashrning son jihatidan biroz ko'p bo'lishiga sabab Navoiy "Munshaot" tarkibiga kiritmagan ba'zi maktublar ushbu nashrdan o'rin olgan. Masalan, O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmlar hazinasining Hamid Sulaymon fondida 2777-inv. raqami bilan saqlanayotgan Navoiy "Xamsa"si qo'lyozmasi sahifasida "Айзоан мин иншои амир алишер навоий рухсати ҳаж" sarlavhali maktub ham ushbu nashrga kiritilgan. Navoiy ijodida, davlat arboblighi faoliyatida ham komil inson masalasi, mohiyati bosh o'rinda bo'lgan. Shu sabab Navoiy ijodini islomdan, tasavvufdan, Qur'on va hadislardan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. N.Komilov "Navoiyning nazarida komil inson - xayoliy timsol emas, balki tasavvuf yo'lini tanlagan haqiqiy, tirik shaxs - chin darveshdir" deya Navoiy ijodi va shaxsiyatiga baho beradi. Nima bo'lishidan qat'iy nazar Navoiy ijodining asosini olimlar tomonidan o'rganilgan manbada Qur'on asosiy manba bo'lib xizmat qiladi[1. – B. 1741].

Ilmiy izlanishlarimiz natijasi shu bo'ldiki, "Munshaot"ning so'nggi mukammal nashrining olti maktubida Qur'onning 13 oyati keltirilgan. 110 maktubning 1,3,11,18,75,104-maktublarida iqtibos sifatida keltirilgan oyatlar muallifning turli maqsad-muddaosini ifodalash uchun berilgan. Masalan, 1-maktubda keltirilgan "G'oshiya" surasining 18-19 oyatlari, 3-maktubda keltirilgan "Taborak" surasining 5-oyati, "Nur" surasining 35-oyatlari tabiat tasvirini ifodalash va uning mukammal yaratilganligiga ishora etish maqsadida keltirilgan.

Iqtibos haqida ilk marotaba Atoullloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" hamda Husayn Voiz Koshifiyning "Badoyi' ul-afkor fi sanoyi' il-ash'or"ida ma'lumot berilgan[2. – B.16]. Jumladan, Koshifiy iqtibosga shunday ta'rif beradi: "Va bu san'atni shu jihatdan iqtibos derlarkim, olovni qamrab olganda nur va yorug'lik hosil bo'lganidek, iqtibos bo'ladigan so'zdan she'rda nur va ziyo hosil bo'lur"[3. – B].

18,75,104-maktublarda keltirilgan iqtiboslar orqali ("Oli imron", "Ar-rahmon", "Qasos" suralarida keltirilgan oyatlar) ijodkor dunyoning foniy ekanligi, hech bir kimsa bu dunyoda abadiy emasligi va "kull nafsun zoyiqat ul-mavt"[4. – B.238] (har bir jon muqarrar o'lim sharbatini ichishligi) ekanligini eslatma tarzida ta'kidlaydi. Bundan tashqari 75-maktubda Navoiy "Qulluq duodin so'ng arzadosht ulkim" deya Hazrat Nuranning vafotlari munosabati bilan bizdan hol so'ragan edingiz deya javob maktubi berilgan. Ushbu maktub adresati

Yu.Tursunov tahliliga ko'ra Badiuzzamondir[5. – B. 90]. Navoiy maktubning kirish qismini “haq subhanahu va taolo ul hazrat zoti malakiy sifotin ahli olam uchun ko'p yillar boqiy va poyanda tutsun va davlatlarining xurshidini jovidi mazo va tobanda asrasun”[6. – B.], deydi. Yani Navoiy maktub boshini “qulloqona duodin so'ng” deya ortiqcha takalluf etmaganidan uning ustozlari Jomiy vafotidan (Navoiy “Nuran” istilohini, aynan, ustozlari Jomiyga nisbatan bir necha marta qo'llagan) nihoyatda ta'sirlangani, o'zi uchun qadrlil bir insoni – ustozlari, hammaslagidan ayriliqning og'ir judoligini maktubning boshlanish kayfiyatidan sezish qiyin emas. Ellik bir yoshni qoralab qolgan shoirlarga bu, albatta, ta'sir qilmay qolmas edi. Lekin Navoiy o'ta fasohatli shaxs edi. “... nuran hodisai vafotlarin so'rub erdilar” deya tafsilot berib, o'z samimiy dil istaklarini shohga bayon etadi. Albatta, buni to'g'ri tushunish vojib, chunki Jomiydek kishining vafoti eng avval Navoiydek tili (shoirona suhbatlari), dili (maslagi) bir-biriga mutanosib bo'lgan, bir qancha vaqt bir zamonda hamnafas bo'lgan shogirdga og'ir zarba bo'lmasdan qolmas edi. Navoiy o'z dardiga o'zi taskin topa oladi. Maktubida “Rahmon”, “Qasos”, “Qamar” surasidan oyatlar keltirib, bir tomondan o'ziga o'zi dalda bersa, ikkinchi tomondan o'qiguvchiga ogohlantirish, eslatma berib o'tadi. “Kullu man alayha... fa...n” karimasi[7. – B.] (yer yuzidagi barcha jonzot foniidir), “Kulli shay'in ha...likun illa...vajhahu” oyati[8. – B.] (barcha narsa halok bo'lguvchidir, lekin Uning o'zigina mangudir), “fi maq'adin sidqin inda malikin muqtadir”[9. – B.] (taqvodor zotlar jannatlarda Qodir Podshoh huzurida rozi bo'lingan holatda bo'lurlar) kalimasi 75-maktubda Navoiyning falsafiy qarashlarini, shoirlarning hayotdagi tub anglashlarini ifoda etishning asos nuqtasini aks ettirishga xizmat qiladi. Navoiy navoiyona lutf ko'rsatib maktub yakunida shunday deydi: “Ammo faqirlarkim, alarning sharif zotlari barokatidin mahjur va jonbaxsh takallumlari obi hayotidin mahrum qolurlar... Ammo ul hazratdek so'rg'uchi bo'lsa, ko'ngul g'amidin ne g'am-u, xotir alamidin ne alam”.

Xulosa qilganda, “Munshaot” Navoiyning o'z zamonasidagi real qiyofasi, olgan nafasi, zamonasida qoldirgan ezgu “panja”sidir. Navoiyning qaysi maktubini o'qimang, unda ezgulikka chorlov bor. Aynan shu chorlovga islom olamining muqaddas kitobi Qur'oni Karim oyatlari hidoyat nuri vazifasini o'tash uchun xizmat qiladi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz... Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi” deganida naqadar haq edi. Sovet ittifoqi davrida Navoiy ijodidagi so'fiyona qarashlar, diniy ifodalarning o'rganilishi qiyin masala edi. Biroq istiqloq zamonida bunday ta'qiqning yo'qligi, qaytaga Navoiy ijodidagi bunday ifodalar butun bashariyat ta'lim-tarbiyasi uchun muhim eslatma ekani, bu eslatmalarning o'rganilishi esa shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda zarurat ekanligi ayni haqiqat. Masalan, asarda keltirilgan 11-maktubda Navoiy “Inna-l-lo...ha ya'muru bi-l-adli va-l ihsani” (Alloh adl va ehsonga buyuradi, Nahl surasi, 99-oyat) oyati butun insoniyatga qaratilgan nuqta desak mubolag'a bo'lmaydi. Umuman, Navoiy ijodini o'rganar ekanmiz, buyuk dahoning yangidan-yangi qirillarini o'zimiz uchun kashf etaveramiz.

Iqtiboslar/ References /Сноски

1. Navoiy A. “Munshaot”. T.: Zabarjad Media, 2025-yil.

2. Qur'oni Karim, Rahmon surasi.
3. حسين واعظ كاشفي' ص ۱۱۰
4. Davlatov Olim. Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqini. PhD diss. 2017-yil, 16-bet.(Davlatov Olim. Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqini. PhD diss. 2017-yil, 16-bet).)
5. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т.: Гафур Гулом номидаги Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. 284-б.(Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi, 1991. 284-b).
6. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Т.: Маънавият, 1998. -160 б.
7. Muftulloyeva Gavhar. Navoiyning хотира-biografik asarlarida shayxlar talqini. Xalqaro sun'iy intellekt jurnali. Amerika akademik nashriyoti, 05-jild, 06-son, 2025-yil, 1741-sahifa.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил, 20 сентябрь(О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi//Xalq so'zi,2017-yil, 20 sentabr).

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Hamrayev Ilg'or,

assistant o'qituvchi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish metodikasi kafedrası

Samarqand, O'zbekiston

ilgarhamrayevi@gmail.com

Abdiraxmonava Nargiza

4-kurs talabala

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish metodikasi

Samarqand, O'zbekiston

Qnoa2204@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIFLARDAKI 1–2 SINF O'QUVCHILARI UCHUN TARBIYA DARSLARINI TO'G'RI TASHKIL QILISH METODIKASI

ANNOTATSIYA

